18. Pesaran M.H., Shin, Y., 1999., *An autoregressive distributed lag modelling approach to cointegration analysis*, *Econometrics and Economic Theory in the 20th Century: The Ragnar Frisch Centennial Symposium*.
19. Bouyacoub B., 2024, *Empirical exploration of economic policy in the Middle East and North Africa (MENA) region: An ARDL approach*, *Financial Markets, Institutions and Risks*, 8(1).
20. Engle R.F., Granger C.W., 1987, *Co-integration and error correction: Representation, estimation, and testing*, *Econometrica: Journal of the Econometric Society*, 55(2): 251-276.
21. Pesaran M.H., Shin Y. and SMITH R.J., 2001, *Bounds testing approaches to the analysis of level relationships*, *Journal of Applied Econometrics*, 16(3): 289-326.
22. Brown R.L, Durbin J. and Evans J.M., 1975, *Techniques for testing the constancy of regression relationships overtime*, *Journal of the Royal Statistical Society: Series B (Methodological)*, 37(2): 149-192.
23. Mahfoudi F, Riache S., and Louail B., 2024, *The effect of natural resources and foreign direct investment on economic growth*, *Economics and Environment*, 88. 731.
24. Galdini. 2024. *The transformation of resource-rich countries in the International Division of Labour: 'back-ward' industrialization and relative surplus population in Uzbekistan*, *New Political Economy*, 29:2, P. 192-209

УЎК: 338.2:502.131(575.1)

Ulug'bek QULLIYEV,

*Iqtisodiyot va moliya vazirligi Yashil iqtisodiyotga
o'tish va rivojlantirishni muvofiqlashtirish boshqarmasi yetakchi xodimi,
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi mustaqil izlanuvchisi (O'zbekiston),
E-mail: Ulugbek.Qulliyev@imv.uz*

UGLEROD NARXLASH MEXANIZMLARINING CO₂ EMISSİYALARIGA TA'SIRI: DINAMIK PANEL MA'LUMOTLAR ASOSIDA EKONOMETRIK BAHOLASH

Annotatsiya. Uglerod narxlash mexanizmlarining CO₂ emissiyalarini kamaytirishdagi samaradorligi ko'plab tadqiqotlarda o'rganilgan bo'lsa-da, uglerod solig'i va emissiyalar savdosi tizimi (ETS—emissions trading system) narxlarining ta'sirini yagona ekonometrik model doirasida qiyosiy baholash, emissiyalarning vaqt bo'yicha inersiyasini hisobga olish hamda qisqa va uzoq muddatli ta'sirlarni ajratib ko'rsatishga qaratilgan empirik tadqiqotlar nisbatan cheklangan. Mazkur tadqiqot ushbu ilmiy bo'shliqni 50 ta mamlakatning 1990–2021-yillardagi panel ma'lumotlari asosida to'ldirishga qaratilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, uglerod solig'i yoki emissiyalar savdosi tizimi narxining 10 AQSh dollari/tCO₂ ga oshishi jon boshiga CO₂ emissiyalarini qisqa muddatda 0,8–1,0 foizga, uzoq muddatda esa 6,4–7,0 foizga kamaytiradi. Driscoll–Kray standart xatolari va COVID-19 davrini chiqarib tashlash asosidagi ishonchlilik tekshiruvlari natijalarning barqarorligini tasdiqladi. Tadqiqotning ilmiy hissasi uglerod solig'i va emissiyalar savdosi tizimi narxlarining emissiyalarga ta'sirini yagona dinamik modelda qiyosiy va miqdoriy baholashdan iborat. Olingan natijalar 50 ta mamlakatdan iborat tanlanma bo'yicha uglerod narxlash mexanizmlarining o'rtacha emissiya ta'sirini ifodalaydi hamda O'zbekiston kabi ushbu mexanizmlarni joriy etishni ko'rib chiqayotgan mamlakatlar uchun xalqaro empirik dalil bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: uglerod solig'i, ETS, CO₂ emissiyasi, dinamik panel modeli.

**Влияние механизмов углеродного
ценообразования на выбросы CO₂:
эконометрическая оценка на основе
динамических панельных данных**

Ulugbek Kulliyev,

*ведущий специалист Департамента
координации перехода к зелёной экономике и
её развития Министерства экономики и
финансов, независимый исследователь
Академии государственной политики
и управления*

Аннотация. Несмотря на то что эффективность механизмов углеродного ценообразования в сокращении выбросов CO₂ изучена во многих исследованиях, эмпирические работы, в которых в рамках единой эконометрической модели проводится сравнительная оценка влияния углеродного налога и цен в системе торговли выбросами (ETS – emissions trading system), учитывается временная инерционность выбросов, а также разграничиваются краткосрочные и долгосрочные эффекты, остаются относительно ограниченными. Настоящее исследование направлено на восполнение данного научного пробела на основе панельных данных по 50 странам за 1990–2021 годы. Получен-

ные результаты показывают, что повышение углеродного налога или цены ETS на 10 долл. США/тCO₂ приводит к сокращению выбросов CO₂ на душу населения примерно на 0,8–1,0% в краткосрочном периоде и на 6,4–7,0% в долгосрочном периоде. Проверки на устойчивость с использованием стандартных ошибок Дрисколла–Края и исключением периода пандемии COVID-19 подтвердили стабильность полученных результатов. Научный вклад исследования заключается в сравнительной и количественной оценке влияния углеродного налога и цен ETS на выбросы в рамках единой динамической модели. Полученные результаты отражают среднее влияние механизмов углеродного ценообразования на выбросы в выборке из 50 стран и служат международной эмпирической основой для государств, включая Узбекистан, рассматривающих возможность внедрения таких механизмов.

Ключевые слова: углеродный налог, ETS, выбросы CO₂, динамическая панельная модель.

The impact of carbon pricing mechanisms on CO₂ emissions: an econometric assessment based on dynamic panel data

Ulugbek Kulliyev,

*leading specialist of the Department for
Coordination of the Transition to and
Development of the Green Economy,
Ministry of Economy and Finance,
Independent Researcher at the
Academy of Public Policy and Administration*

Abstract. *Although the effectiveness of carbon pricing mechanisms in reducing CO₂ emissions has been examined in numerous studies, empirical research that comparatively assesses the effects of carbon taxes and emissions trading system (ETS) prices within a unified econometric framework, accounts for the persistence of emissions over time, and distinguishes between short- and long-run effects remains relatively limited. This study aims to address this research gap using panel data*

covering 50 countries over the period 1990–2021. The results show that a USD 10/tCO₂ increase in either the carbon tax or the ETS price reduces per capita CO₂ emissions by approximately 0.8–1.0% in the short run and by 6.4–7.0% in the long run. Robustness checks based on Driscoll–Kraay standard errors and the exclusion of the COVID-19 period confirm the stability of the results. The scientific contribution of the study lies in the comparative and quantitative assessment of the effects of carbon tax and ETS prices on emissions within a unified dynamic model. The findings represent the average effect of carbon pricing mechanisms on emissions across a sample of 50 countries and provide international empirical evidence for countries, including Uzbekistan, that are considering the introduction of such mechanisms.

Keywords: *carbon tax, emissions trading system, CO₂ emissions, dynamic panel model.*

Kirish

Bugungi kunda mamlakatlar asrimizning eng muhim muammolaridan bo'lgan iqlim o'zgarishi muammosini hal qilish uchun turli amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirib kelishmoqda. Bunday chora-tadbirlar sirasiga yashil moliyalashtirish instrumentlarini joriy qilish, qazib olinadigan yoqilg'ilarga subsidiyalar ajratishni to'xtatish (bosqichma-bosqich kamaytirish asosida), davlat budjeti xarajatlarini markirovkalash, yashil obligatsiyalarni emissiya qilish va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Shu bilan birga, iqlim siyosatining eng muhim fiskal-bozor vositalaridan biri uglerod narxlash mexanizmi hisoblanadi. Ushbu vositani qo'llamasdan yashil iqtisodiyotga o'tish yetarli darajada samarali bo'lmaydi. Hozirgi kunda uglerod narxlash instrumenti xalqaro amaliyotda asosan ikki shaklda – uglerod solig'i va emissiyalar savdosi tizimi (keyingi o'rinlarda ETS – **Emissions Trading System**) orqali keng qo'llanilmoqda.

Jahon banki ma'lumotiga ko'ra [7] 2025-yilga kelib dunyo bo'yicha 80 ga yaqin uglerod narxlash instrumentlari, ya'ni turli mamlakat va hududlarda joriy etilgan uglerod solig'i va ETS amalda

qo'llanilmoqda va ular global issiqxona gazlari emissiyalarining qariyb 28 foizini qamrab olmoqda. Bu esa uglerod narxlash mexanizmlarining iqlim siyosatida tobora muhim o'rin egallayotganini ko'rsatadi.

Iqlim o'zgarishining iqtisodiy va ekologik oqibatlari kuchayib borayotgan sharoitda issiqxona gazlari emissiyalarini samarali kamaytirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy vositalarni aniqlash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Uglerod solig'i va ETS ifloslantirish xarajatlarini ishlab chiqarish va iste'mol qarorlariga kiritish orqali korxonalarni energiya samaradorligini oshirishga, qazib olinadigan yoqilg'ilardan foydalanishni qisqartirish hamda kam uglerodli texnologiyalarga investitsiya kiritishga rag'batlantiradi. Biroq ushbu mexanizmlarning mavjudligi emissiyalar avtomatik ravishda kamayishini anglatmaydi, chunki ularning samaradorligi uglerod narxi darajasi, iqtisodiyotning tarmoq tarkibi, energiya manbalari va institutsional sharoitlarga bog'liq.

Mazkur masala O'zbekiston kabi energiya va uglerod sig'imi yuqori bo'lgan, yashil iqtisodiyotga o'tish va sanoatni modernizatsiya qilishni maqsad qilgan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ayniqsa dolzarbdir. Uglerod narxlash (uglerod solig'i va ETS narxlarini o'z ichiga oladi) mexanizmlarini joriy etishdan oldin ularning ekologik samarasi va maqbul narx darajasini xalqaro empirik ma'lumotlar asosida baholash zarur. Shu jihatdan ushbu tadqiqot uglerod solig'i va ETS narxlarining CO₂ emissiyalariga qisqa va uzoq muddatli ta'sirini aniqlash orqali ilmiy asoslangan iqlim va fiskal siyosatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotda ham mavjud adabiyotlar o'rganilgan hamda uglerod narxlash mexanizmlarining, xususan, uglerod solig'i va ETS narxlarining aholi jon boshiga CO₂ emissiyalariga ta'siri empirik jihatdan baholangan. Tadqiqot doirasida 50 ta mamlakatning 1990–2021-yillardagi panel ma'lumotlari asosida dinamik panel regressiya modeli qo'llanilib, emissiyalarning vaqt bo'yicha inersiyasi, mamlakatlarga xos doimiy omillar va yillik global shoklar hisobga olingan.

Adabiyotlar sharhi

Iqtisodiyot nazariyasidan ma'lumki, biror iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish yoki uni kamaytirish uchun eng samarali iqtisodiy instrumentlardan biri bu – narx instrumentidir. Bu bizga talab va taklif qonunidan ham ma'lum. Hukumat tomonidan uglerod solig'ining kiritilishi (yoki ETSni) bu mavjud iqtisodiy faoliyatining uglerod intensivligiga muvofiq uning tannarxida aks ettirilishini anglatadi. Shuni hisobga olgan holda, iqlim siyosati hamda issiqxona gazlari emissiyasi o'rtasidagi sabab-bog'liqlik munosabatlarini aniqlashga qaratilgan ko'plab empirik tadqiqotlar mavjud.

Uglerod narxlash mexanizmlarining nazariy asoslari iqtisodiy faoliyat natijasida yuzaga keladigan salbiy tashqi ta'sirlarni kamaytirish konsepsiyasiga borib taqaladi. Pigou ifloslantiruvchi faoliyatning xususiy xarajatlari bilan uning jamiyat uchun yuzaga keltiradigan ijtimoiy xarajatlari o'rtasidagi tafovutni tuzatish uchun tashqi zarar miqdoriga mos soliq joriy etish zarurligini asoslagan [8]. Mazkur yondashuv uglerod solig'ining fundamental nazariy asosi bo'lib, emissiyaga narx belgilash orqali iqtisodiyot subyektlarining ishlab chiqarish va iste'mol qarorlariga ekologik xarajatlarni kiritishni nazarda tutadi.

Weitzman narxga va miqdorga asoslangan tartibga solish vositalarini noaniqlik sharoitida qiyosiy tahlil qilgan [9]. Ushbu nazariy yondashuvda uglerod solig'i narx instrumenti, ETS esa emissiyalar miqdorini cheklovchi instrument sifatida talqin qilinadi. Montgomery esa sotiladigan emissiya ruxsatnomalari bozori korxonalar o'rtasida emissiyalarni kamaytirish majburiyatlarini eng kam xarajat asosida taqsimlash imkonini berishini nazariy jihatdan asoslagan [10]. Mazkur fundamental tadqiqotlar uglerod solig'i va ETSning bir xil ekologik maqsadga turli iqtisodiy mexanizmlar orqali erishishini ko'rsatadi.

Alohida mamlakatlar tajribasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda uglerod narxlash samaradorligi bo'yicha turlicha natijalar olingan. Andersson Shvetsiyada uglerod solig'i va transport

yoqilg'isiga qo'shilgan qiymat solig'i joriy etilishini sintetik nazorat usuli yordamida baholab, transport sektoridagi CO₂ emissiyalari taqqoslama kontrfaktual ssenariyga nisbatan qariyb 11 foizga kamayganini aniqlagan [11]. Muallif ushbu qisqarishning asosiy qismi aynan uglerod solig'i bilan bog'liq ekanini ko'rsatgan.

Pretis Britaniya Kolumbiyasida uglerod solig'ining ta'sirini farqlar farqi (DiD), sintetik nazorat va tarkibiy uzilishlarni aniqlash usullari orqali o'rgangan [12]. Natijalar transport sektorida emissiyalar kamayganini ko'rsatgan bo'lsa-da, jami CO₂ emissiyalarida yirik va statistik jihatdan ishonchli qisqarish aniqlanmagan. Mazkur holat uglerod narxlashning samaradorligi narx darajasi, qamrov, tarmoqlar tarkibi va qo'shimcha siyosat vositalariga bog'liqligini ko'rsatadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, fundamental tadqiqotlar uglerod solig'i va ETSning iqtisodiy samaradorligini nazariy jihatdan asoslagan bo'lsa, alohida mamlakatlar bo'yicha empirik tadqiqotlar ularning amaliy natijalari bir xil emasligini ko'rsatadi. Bu esa turli rivojlanish darajasi, energiya tarkibi va institutsional sharoitlarga ega mamlakatlarni yagona panel model doirasida o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

2025-yilda Kohlscheen va b. tomonidan olib borilgan tadqiqotda 121 ta mamlakat bo'yicha dinamik panel regressiya modeli yordamida Uglerod solig'i, ETS va kengroq iqlim siyosati qat'iyligining CO₂ emissiyalariga ta'siri baholangan [3]. Tuzilgan model uchun ma'lumotlar bazasi mavjud bo'lgan barcha mamlakatlarni qamrab olgan tadqiqotda iqlim siyosati natijasida salmoqli hissadagi CO₂ emissiyasi kamaygani aniqlandi. Xususan, CO₂ tonnasiga uglerod solig'i 10 AQSh dollariga oshirilishi jon boshiga CO₂ emissiyalarini qisqa muddatda 1,3 foizga, uzoq muddatda esa 4,6 foizga kamaytirishi aniqlangan. Shuningdek, tadqiqotda ETS kvotalari narxining oshishi issiqxona gazlari emissiyasini sezilarli kamaytirishi aniqlangan.

Shu bilan birga, olib borilgan tadqiqotga muvofiq uglerod solig'i ETS tizimiga nisbatan barqarorroq statistik natija bergani qayd etilgan.

Bu qaysidir ma'noda, uglerod solig'ining ustuvorligini anglatadi [1]. Biroq, ETS ham bir qancha ustunliklarga ega bo'lib bu ustunliklar haqida boshqa tadqiqotlarimizda keltirib o'tganmiz [5].

Xususan, D. Pulatov va U. Qulliyev tadqiqoti xulosalariga ko'ra ETS umumiy emissiyalar hajmini nazorat qilish imkonini beradi. Maqolada ETS bozor moslashuvchanligini ta'minlashi qayd etilgan. Korxonalar emissiyani kamaytirish yoki ruxsatnomalarni sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa yuqori emissiyali sanoat korxonalarini kam uglerodli texnologiyalarga o'tishga, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilishga va past uglerodli investitsiyalarni oshirishga rag'batlantiradi [5].

Ushbu yo'nalishda A. Stechemesser va b. tomonidan olib borilgan tadqiqotda 1998–2022-yillar davomida 41 ta mamlakatda amalga oshirilgan 1 500 ta iqlim siyosati choralari tizimli ravishda baholangan [6]. Ushbu tadqiqotga ko'ra mashina o'rganishi va farqlar farqi usuli yondashuvlari asosida qaysi siyosat choralari issiqxona gazlari emissiyasini sezilarli kamaytirgani aniqlangan. Natijalarga ko'ra, o'rganilgan 1 500 ta siyosiy aralashuvdan faqat 63 tasi yirik miqyosdagi emissiya qisqarishiga olib kelgan va ushbu choralar jami 0,6–1,8 mlrd tonna CO₂ emissiyasining oldini olishga xizmat qilgan.

Tadqiqotning muhim xulosasi shundan iboratki, alohida subsidiyalar yoki tartibga soluvchi cheklovlar ko'p hollarda yetarli natija bermagan. Eng samarali holatlar, odatda, uglerod solig'i, energiya soliqlari yoki narxga asoslangan rag'batlar boshqa siyosat choralari – subsidiyalar, texnik standartlar, energiya samaradorligi talablari va tartibga solish mexanizmlari bilan uyg'unlashtirilganda kuzatilgan. Bu esa issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirishda yagona instrumentdan ko'ra kompleks "policy mix" yondashuvi samaraliroq ekanini ko'rsatadi [6].

Best, Burke va Jotzo tomonidan 2020-yilda o'tkazilgan tadqiqotda uglerod narxlash siyosatining CO₂ emissiyalariga ta'siri 142 ta mamlakatning yigirma yillik ma'lumotlari asosida

baholangan [2]. Tadqiqot davrining yakuniga kelib ushbu mamlakatlarning 43 tasida milliy yoki hududiy darajada uglerod narxlash mexanizmi amal qilgan. Ekonometrik baholash natijalariga ko'ra, uglerod narxlash tizimi mavjud mamlakatlarda yoqilg'i yonishidan hosil bo'ladigan CO₂ emissiyalarining o'rtacha yillik o'sish sur'ati bunday mexanizm mavjud bo'lmagan mamlakatlarga nisbatan qariyb 2 foiz bandga past bo'lgan. Shuningdek, uglerod narxining har bir yevro/tCO₂ ga oshishi keyingi yildagi emissiyalar o'sish sur'atining taxminan 0,3 foiz bandga pasayishi bilan bog'liq ekanligi aniqlangan. Mazkur tadqiqot uglerod narxlashning umumiy samaradorligini tasdiqlasa-da, uglerod solig'i va ETS narxlarining qisqa hamda uzoq muddatli ta'sirlari alohida qiyosiy baholanmagan.

Bayer va Aklin tomonidan 2020-yilda amalga oshirilgan tadqiqotda Yevropa Ittifoqi ETSning CO₂ emissiyalariga ta'siri kontrfaktual baholash usuli va tarmoqlar kesimidagi emissiya ma'lumotlari asosida o'rganilgan [1]. Mualliflarning hisob-kitoblariga ko'ra, Yevropa Ittifoqi ETS 2008–2016-yillarda mazkur tizim mavjud bo'lmagan ssenariyga nisbatan qariyb 1,2 mlrd tonna yoki 3,8 foiz CO₂ emissiyasining oldini olgan. Tadqiqot ETS kvotalari narxi nisbatan past bo'lgan davrda ham ishonchli va kelgusida qat'iylashishi kutilayotgan savdo tizimi emissiyalarni kamaytirishi mumkinligini ko'rsatadi. Biroq tadqiqot faqat Yevropa Ittifoqi ETS tizimiga qaratilgan bo'lib, uglerod solig'i bilan qiyosiy tahlilni va mamlakatlararo uzoq muddatli ta'sirlarni qamrab olmaydi.

O'rganilgan adabiyotlar uglerod narxlash mexanizmlarining CO₂ emissiyalarini kamaytirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Biroq ayrim tadqiqotlarda uglerod solig'i va ETS yagona umumlashtirilgan uglerod narxlash ko'rsatkichi sifatida baholangan bo'lsa, boshqa tadqiqotlar muayyan mamlakat yoki hududdagi alohida mexanizmga e'tibor qaratgan. Uglerod solig'i va ETS narxlarining emissiyalarga ta'sirini yagona dinamik model doirasida bir vaqtning

o'zida qiyosiy baholash, emissiyalarning vaqt bo'yicha inersiyasini hisobga olish hamda qisqa va uzoq muddatli ta'sirlarni ajratib ko'rsatishga qaratilgan empirik dalillar nisbatan cheklangan.

Tadqiqotning ilmiy hissasi

Mazkur tadqiqotning mavjud adabiyotlarga qo'shgan ilmiy hissasi bir necha jihatda namoyon bo'ladi. Birinchidan, uglerod solig'i va ETS narxlarining CO₂ emissiyalariga ta'siri bir xil nazorat o'zgaruvchilari va yagona ekonometrik spetsifikatsiya doirasida alohida hamda birgalikda baholanadi. Ikkinchidan, dinamik panel modeliga emissiyalarning kechiktirilgan qiymati kiritilib, ularning vaqt bo'yicha inersiyasi hisobga olinadi hamda uglerod narxlash mexanizmlarining qisqa va uzoq muddatli ta'sirlari ajratib ko'rsatiladi. Uchinchidan, mamlakat va yil fiksirlangan effektlari orqali mamlakatlarga xos o'zgarmas omillar hamda global yillik shoklar nazorat qilinadi. To'rtinchidan, Driscoll–Kray standart xatolari va COVID-19 davrini chiqarib tashlash orqali natijalarning barqarorligi tekshiriladi. Shu tariqa tadqiqot uglerod solig'i va ETS narxlarining emissiyalarga ta'sirini qiyosiy va miqdoriy baholash bo'yicha mavjud empirik adabiyotlarni to'ldiradi.

Ma'lumotlar bazasi va metodologiya

Ma'lumotlar bazasi

Tadqiqotda 50 ta mamlakat bo'yicha 1990–2021-yillarni qamrab oluvchi panel ma'lumotlar bazasidan foydalanildi. Ma'lumotlar tarkibiga jon boshiga CO₂ emissiyasi, uglerod solig'i narxi, ETS narxi, jon boshiga YaIM, YaIM o'sish sur'ati, urbanizatsiya darajasi, ishlab chiqarish sanoatining YaIMdagi ulushi hamda elektr energiyasi ishlab chiqarishda neft, ko'mir va qayta tiklanuvchi energiya ulushi kiritildi.

Bog'liq o'zgaruvchi sifatida jon boshiga CO₂ emissiyasining natural logarifmi olindi. Asosiy tushuntiruvchi o'zgaruvchilar sifatida uglerod solig'i narxi va ETS narxi tanlandi. Uglerod narxlash mexanizmlarining emissiyalarga kechikkan ta'sirini hisobga olish hamda teskari sababiyat xavfini kamaytirish maqsadida uglerod

solig'i va ETS o'zgaruvchilari modelga bir yilga kechiktirilgan holda kiritildi.

Regressiya modelida 1 600 ta kuzatuvdan foydalanildi. Model 50 ta quyidagi jadvalda keltirilgan mamlakatlarni o'z ichiga qamrab olgan

bo'lib (1-jadval), tanlanmani shakllantirishda, avvalo, uglerod solig'i yoki ETS amal qiladigan davlatlarni qamrab olish, shuningdek, hududiy va iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha xilma-xillikni ta'minlashga e'tibor qaratildi.

1-jadval

Modeli uchun tanlab olingan mamlakatlar

№	Mintaqa	Mamlakatlar soni	Mamlakatlar
1.	Yevropa	20	Avstriya, Belgiya, Chexiya, Daniya, Estoniya, Finlyandiya, Fransiya, Germaniya, Gretsiya, Vengriya, Irlandiya, Italiya, Niderlandiya, Norvegiya, Polsha, Portugaliya, Ruminiya, Rossiya, Ispaniya, Shvetsiya
2.	Osiyo	15	Ozarbayjon, Bangladesh, Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Eron, Yaponiya, Qozog'iston, Malayziya, Pokiston, Filippin, Janubiy Koreya, Tailand, Turkiya, O'zbekiston
3.	Afrika	6	Misr, Gana, Keniya, Marokash, Nigeriya, Janubiy Afrika
4.	Amerika	8	Argentina, Boliviya, Braziliya, Kanada, Chili, Kolumbiya, Meksika, Peru
5.	Okeaniya	1	Avstraliya
Jami		50	

Manba: Mamlakatlar muallif tomonidan maqsadli tanlab olingan. Tanlanmani shakllantirishda, avvalo, uglerod solig'i yoki ETS amal qiladigan davlatlar qamrab olingan, qolgan mamlakatlar esa jahon iqtisodiyotining turli rivojlanish darajasi va hududiy xususiyatlarini ifodalash maqsadida tanlangan.

Ekonometrik model

Mazkur tadqiqot natijalari tanlanmaga kiritilgan 50 ta mamlakat bo'yicha o'rtacha panel ta'sirini ifodalaydi. Baholangan koeffitsiyentlar alohida bir mamlakat, jumladan O'zbekiston uchun hisoblangan individual ta'sir ko'rsatkichlari emas. O'zbekiston tadqiqot tanlanmasiga kiritilgan mamlakatlardan biri bo'lib, olingan natijalar mamlakat uchun bevosita ekonometrik baho sifatida emas, balki uglerod narxlash siyosatini ishlab chiqishda foydalanish mumkin bo'lgan xalqaro empirik dalil sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqotda uglerod narxlash mexanizmlarining jon boshiga CO₂ emissiyalariga ta'sirini baholash uchun dinamik panel regressiya modeli qo'llanildi. Tadqiqotda dinamik fiksirlangan effektlar panel modeli tanlanishining asosiy sababi CO₂ emissiyalarining vaqt bo'yicha yuqori darajada inert xususiyatga ega ekanligidir.

Mamlakatlarning joriy emissiya darajasi avvalgi davrdagi energiya infratuzilmasi, sanoat tarkibi, texnologik imkoniyatlari va iste'mol tuzilmasiga bog'liq bo'lganligi sababli modelga bog'liq o'zgaruvchining bir yillik kechiktirilgan qiymati kiritildi. Bu yondashuv statik panel modeliga nisbatan emissiyalarning dinamik moslashuv jarayonini hisobga olish hamda uglerod narxlash mexanizmlarining qisqa va uzoq muddatli ta'sirlarini alohida baholash imkonini beradi.

Fiksirlangan effektlar modelidan foydalanish mamlakatlarning geografik joylashuvi, tabiiy resurslar bilan ta'minlanganligi, tarixiy energiya tarkibi va institutsional xususiyatlari kabi vaqt davomida deyarli o'zgarmaydigan, biroq CO₂ emissiyalariga ta'sir qiluvchi kuzatilmaydigan omillarni nazorat qilish zarurati bilan izohlanadi. Yil fiksirlangan effektlari esa barcha mamlakatlarga bir vaqtda ta'sir qiluvchi global omillarni hisobga olish imkonini beradi.

Model spetsifikatsiyasini tanlash maqsadida Hausman testi o'tkazildi. Test natijasiga ko'ra, $\chi^2(10)=116,86$ va $p=0,0000$ ni tashkil etdi. Nol gipotezaning rad etilishi mamlakatlarga xos kuzatilmaydigan individual effektlar tushuntiruvchi o'zgaruvchilar bilan korrelyatsiyalanganligini ko'rsatdi. Shu sababli tasodifiy effektlar modeliga nisbatan fiksirlangan effektlar modeli afzal deb topildi.

Bundan tashqari, mamlakatlarga xos individual effektlarning birgalikdagi ahamiyatligi F-test yordamida tekshirildi. Test natijasiga ko'ra, $F(49,1420)=4,35$ va $p=0,0000$ ni tashkil etdi. Nol gipotezaning rad etilishi mamlakatlar o'rtasidagi kuzatilmaydigan individual farqlar statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko'rsatdi. Bu esa pooled OLS modeliga nisbatan mamlakat fiksirlangan effektlari modelidan foydalanish zarurligini tasdiqladi.

Yil fiksirlangan effektlarining birgalikdagi statistik ahamiyatligi ham alohida tekshirildi. Test natijasi $F(31,49)=5,23$ va $p=0,0000$ ni tashkil etdi. Nol gipotezaning rad etilishi barcha yil effektlari birgalikda nolga teng emasligini ko'rsatdi. Shu sababli global iqtisodiy shoklar, energiya narxlaridagi o'zgarishlar va barcha mamlakatlarga bir vaqtda ta'sir qiluvchi boshqa vaqt omillarini nazorat qilish uchun yil fiksirlangan effektlari yakuniy modelda saqlab qolindi.

Mamlakatlar kesimida klasterlangan barqaror standart xatolardan foydalanish geteroskedastiklik va bir mamlakat ichidagi vaqt bo'yicha avtokorrelyatsiya mavjud bo'lishi ehtimolini hisobga olish imkonini beradi.

Tadqiqotda uchta asosiy model baholandi. Birinchi modelda faqat uglerod solig'i, ikkinchi modelda faqat emissiyalar savdo tizimi – ETS narxi, uchinchi modelda esa uglerod solig'i va ETS narxi birgalikda kiritildi.

1-model: uglerod solig'i ta'sirini baholash modeli, 1-formula:

$$\ln CO2_{i,t} = a_i + \delta_t + b_1 \ln CO2_{i,t-1} + b_2 \text{carbonTax}_{i,t-1} + b_3 \ln gdp_pc_{i,t} + b_4 GDPgrowth_{i,t} + b_5 Urban_{i,t} + b_6 \text{manuf}_{i,t} + b_7 \text{elec_oil_share}_{i,t} + b_8 \text{elec_coal_share}_{i,t} + b_9 \text{elec_renw_share}_{i,t} + \varepsilon_{i,t} \quad (1)$$

Ushbu modelda asosiy tushuntiruvchi o'zgaruvchi sifatida bir yil oldingi uglerod solig'i narxi olinadi. Model uglerod solig'i narxining oshishi jon boshiga CO₂ emissiyalariga qanday ta'sir ko'rsatishini baholashga qaratilgan.

2-model: ETS narxi ta'sirini baholash modeli, 2-formula:

$$\ln CO2_{i,t} = a_i + \delta_t + b_1 \ln CO2_{i,t-1} + b_2 ETS_{i,t-1} + b_3 \ln gdp_pc_{i,t} + b_4 GDPgrowth_{i,t} + b_5 Urban_{i,t} + b_6 \text{manuf}_{i,t} + b_7 \text{elec_oil_share}_{i,t} + b_8 \text{elec_coal_share}_{i,t} + b_9 \text{elec_renw_share}_{i,t} + \varepsilon_{i,t} \quad (2)$$

Mazkur modelda asosiy e'tibor ETS narxiga qaratiladi. ETS narxi bir yilga kechiktirilgan holda modelga kiritiladi. Bu yondashuv ETS narxidagi o'zgarishlarning emissiyalarga keyingi davrda qanday ta'sir qilishini baholash imkonini beradi.

3-model: Uglerod solig'i va ETS narxining birgalikdagi ta'sirini baholash modeli, 3-formula:

$$\ln CO2_{i,t} = a_i + \delta_t + b_1 \ln CO2_{i,t-1} + b_2 \text{carbonTax}_{i,t-1} + b_3 ETS_{i,t-1} + b_4 \ln gdp_pc_{i,t} + b_5 GDPgrowth_{i,t} + b_6 Urban_{i,t} + b_7 \text{manuf}_{i,t} + b_8 \text{elec_oil_share}_{i,t} + b_9 \text{elec_coal_share}_{i,t} + b_{10} \text{elec_renw_share}_{i,t} + \varepsilon_{i,t} \quad (3)$$

Bu formulalarda: $\ln CO2_{i,t-1}$ – mamlakatda t yildagi jon boshiga CO₂ emissiyasining natural logarifmi;

a_i – mamlakatlarga xos o'zgarish omillarni ifodalovchi mamlakatlar fiksirlangan modeli;

δ_t – barcha mamlakatlarga bir vaqtda ta'sir qiluvchi yillik omillarni ifodalovchi yillar fiksirlangan modeli;

$\ln CO2_{i,t-1}$ – oldingi yilgi jon boshiga CO₂ emissiyasining natural logarifmi;

$\text{CarbonTax}_{i,t-1}$ – bir yil oldingi uglerod solig'i narxi;

$ETS_{i,t-1}$ – bir yil oldingi ETS narxi;

$\ln GDPpc_{i,t}$ – jon boshiga YaIMning natural logarifmi;

$GDPgrowth_{i,t}$ – YaIMning yillik o'sish sur'ati;

$Urban_{i,t}$ – urbanizatsiya darajasi;

$\text{manuf}_{i,t}$ – ishlab chiqarish sanoatining YaIMdagi ulushi;

$\text{elec_oil_share}_{i,t}$ – elektr energiyasi ishlab chiqarishda neft ulushi;

$elec_coal_share_{i,t}$ – elektr energiyasi ishlab chiqarishda ko‘mir ulushi;

$elec_renw_share_{i,t}$ – elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi energiya ulushi;

$\epsilon_{i,t}$ – tasodifiy xatolik hadi.

Barcha modellarda mamlakatlarga xos kuzatilmaydigan doimiy omillarni nazorat qilish uchun mamlakatlar fiksirlangan modeli, global yillik shoklarni hisobga olish uchun esa yillar fiksirlangan modeli kiritildi. Standart xatolar mamlakat darajasida cluster-robust shaklda

hisoblandi. Bu yondashuv bir mamlakat ichida vaqt bo‘yicha kuzatuvlar o‘rtasida bog‘liqlik bo‘lishi ehtimolini hisobga olish imkonini beradi.

Empirik natijalar

Asosiy regressiya natijalari

Asosiy empirik tahlil uchta model asosida amalga oshirildi. Birinchi modelda faqat uglerod solig‘i, ikkinchi modelda faqat ETS narxi, uchinchi modelda esa uglerod solig‘i va ETS narxi birgalikda kiritildi.

2-jadval

Uglerod narxlash mexanizmlarining CO₂ emissiyalariga ta’siri

O‘zgaruvchilar	Model 1: Uglerod solig‘i	Model 2: ETS	Model 3: Uglerod solig‘i va ETS
L.In_CO ₂	0.881*** (0.0165)	0.891*** (0.0166)	0.877*** (0.0162)
L.CarbonTax	–0.000961*** (0.000106)		–0.000899*** (0.000107)
L.ETS		–0.00100*** (0.000256)	–0.000815*** (0.000268)
ln_GDP_pc	0.0619***	0.0606***	0.0622***
GDP growth	0.00437***	0.00422***	0.00419***
Urban	0.0000791	–0.0000329	–0.0000657
Manufacturing/GDP	0.00199**	0.00176*	0.00196**
Neftdan olinadigan elektr energiyasi	0.00131***	0.00114***	0.00130***
Ko‘mirdan olinadigan elektr energiyasi	0.00194***	0.00170***	0.00185***

Izoh: Qavs ichida cluster-robust standart xatolar keltirilgan. *** $p < 0.01$, ** $p < 0.05$, * $p < 0.10$.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, uglerod solig‘i koeffitsiyenti barcha tegishli spetsifikatsiyalarda manfiy va statistik jihatdan ahamiyatli. 1-model natijalariga ko‘ra, uglerod solig‘i narxining 1 dollar/tCO₂ ga oshishi jon boshiga CO₂ emissiyasini qisqa muddatda taxminan 0,1 foizga kamaytiradi. 3-modelda uglerod solig‘i ETS bilan birgalikda kiritilganda ham uning ta’siri manfiy va 1 foizlik ahamiyatlilik darajasida statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lib qolmoqda.

ETS bo‘yicha natijalar ham shunga o‘xshash. 2-modelda ETS narxi koeffitsiyenti – 0.00100 ni tashkil etadi. Bu ETS narxining 1 dollar/tCO₂ ga oshishi jon boshiga CO₂ emissiyasini qisqa

muddatda taxminan 0.10 foizga kamaytirishini anglatadi. Model 3 da ETS koeffitsiyenti – 0.000815 ga teng bo‘lib, uglerod solig‘i bilan birga kiritilganda ham statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lib qolmoqda.

Oldingi yilgi CO₂ emissiyasi koeffitsiyenti barcha modellarda 0.87-0.89 oralig‘ida bo‘lib, emissiyalarning yuqori darajada inert ekanini ko‘rsatadi. Bu energiya infratuzilmasi, sanoat tuzilmasi va iste’mol odatlarining qisqa muddatda sekin o‘zgarishi bilan izohlanadi.

Nazorat o‘zgaruvchilari bo‘yicha natijalar ham iqtisodiy mantiqqa mos keladi. Jon boshiga YaIM va YaIM o‘sishi CO₂ emissiyasi bilan ijobiy

bog‘liq. Elektr energiyasi ishlab chiqarishda neft va ko‘mir ulushining yuqori bo‘lishi emissiyalarni oshiradi. Qayta tiklanuvchi energiya ulushi esa manfiy koeffitsiyentga ega bo‘lsa-da, asosiy modelda statistik jihatdan ahamiyatli emas. Shuningdek, foydalanilgan ma’lumotlar bazasiga ko‘ra qayta tiklanuvchi energiya ulushi manfiy yillari mavjud bo‘lib bu o‘zgaruvchining shartli tanlab olinganidan dalolat beradi.

Modelning ishonchlilik (Robustness) tahlili

Asosiy natijalarni tekshirish maqsadida bir nechta robustness testlar o‘tkazildi. *Birinchidan*, model Driscoll – Kray standart xatolari asosida qayta baholandi. Ushbu yondashuv heteroskedas-

tiklik, avtokorrelyatsiya va mamlakatlar o‘rtasidagi umumiy shoklar ehtimolini hisobga olish imkonini beradi. Natijalarga ko‘ra, uglerod solig‘i koeffitsiyenti – 0.000899 va ETS koeffitsiyenti – 0.000815 bo‘lib, har ikkisi statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lib qoldi. Bu asosiy natijalarning standart xatolar tanloviga sezgir emasligini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, COVID-19 pandemiyasi bilan bog‘liq noodatiy iqtisodiy shoklarni inobatga olish maqsadida 2020–2021-yillar kuzatuvlari modeldan chiqarib tashlandi. Natijalar quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

COVID-19 yillari chiqarib tashlangan holdagi robustness natijalari

O‘zgaruvchilar	COVID-19 pandemiyasi davri chiqarib tashlangan model
L.ln_CO ₂	0.8748***
L.CarbonTax	–0.000866***
L.ETS	–0.000864***
ln_GDP_pc	0.0629***
GDP growth	0.00377***
Urban	0.000111
Manufacturing/GDP	0.00188*
Neftdan olinadigan elektr energiyasi	0.00134***
Ko‘mirdan olinadigan elektr energiyasi	0.00193***
Qayta tiklanuvchi manbalardan olinadigan elektr energiyasi	–0.000672
Kuzatuvlar soni	1 600
Mamlakatlar soni	50
Within R-squared	0.9418

Izoh: *** $p < 0.01$, ** $p < 0.05$, * $p < 0.10$.

Robustness natijalari asosiy xulosalarni tasdiqlaydi. COVID-19 pandemiyasi davri yillarini chiqarib tashlaganda ham uglerod solig‘i va ETS koeffitsientlari manfiy hamda 1 foizlik ahamiyatlilik darajasida statistik jihatdan ishonchli bo‘lib qolmoqda. Bu esa asosiy natijalar pandemiya davridagi noodatiy iqtisodiy shoklar hisobiga shakllanmaganini ko‘rsatadi.

Muhokamalar va natijalar

Empirik natijalar uglerod narxlash mexanizmlarining CO₂ emissiyalarini kamayti-

rishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Uglerod solig‘i va ETS narxlarining oshishi emissiyalarni pasaytiruvchi iqtisodiy signal sifatida ishlaydi. Bunda ifloslantirish xarajatlari oshgani sari korxonalar energiya samaradorligini oshirish, yoqilg‘i tarkibini o‘zgartirish yoki past uglerodli texnologiyalarga investitsiya qilishga ko‘proq rag‘bat oladi.

Tadqiqot natijalarida oldingi yilgi CO₂ emissiyasi koeffitsiyentining yuqori bo‘lishi emissiyalar dinamikasining inert xarakterga ega

ekanligini tasdiqlaydi. Bu iqlim siyosati natijalari darhol emas, balki vaqt o'tishi bilan kuchayib borishini anglatadi. Shu sababli uglerod narxlash mexanizmlarini joriy etishda uzoq muddatli siyosiy barqarorlik, narx signallarining oldindan prognoz qilinishi va biznes uchun aniq qoidalar muhim hisoblanadi.

O'zbekiston kabi rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun mazkur natijalar muhim siyosiy xulosalarga ega. Uglerod narxlash mexanizmlarini joriy etish fiskal daromadlarni oshirish bilan birga, ularni energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya, sanoat modernizatsiyasi va ijtimoiy himoya choralari yo'naltirish imkonini beradi. Biroq bunday mexanizmlarni bosqichma-bosqich, iqtisodiyot tarmoqlarining moslashuv imkoniyatlarini hisobga olgan holda joriy etish maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar

Ushbu maqolada 50 ta mamlakat bo'yicha panel ma'lumotlar asosida uglerod solig'i va ETS narxlarining jon boshiga CO₂ emissiyalariga ta'siri baholandi. Dinamik fiksirlangan effektlar panel modeli natijalari uglerod narxlash mexanizmlarining emissiyalarni kamaytirishda statistik jihatdan sezilarli ta'sirga ega ekanini ko'rsatdi.

Mazkur natijalar tanlanmaga kiritilgan 50 ta mamlakat bo'yicha hisoblangan o'rtacha panel ta'sirini ifodalaydi va alohida mamlakatlar uchun individual baho hisoblanmaydi.

Asosiy modelda uglerod solig'i koeffitsiyenti taxminan -0.001 , ETS koeffitsiyenti esa taxminan -0.0008 ni tashkil etdi. Har ikkala koeffitsiyent

manfiy va 1 foizlik ahamiyatlilik darajasida statistik jihatdan ishonchli bo'ldi. Bu uglerod solig'i va ETS narxlarining oshishi jon boshiga CO₂ emissiyalarining kamayishi bilan bog'liq ekanini anglatadi. Modelning guruh ichidagi determinatsiya koeffitsiyenti (within R-squared) 0.947 bo'lib, mamlakatlar ichida vaqt bo'yicha emissiyalardagi o'zgarishlarning katta qismi model orqali tushuntirilayotganini ko'rsatadi.

Natijalarning barqarorligi tahlillari ham asosiy xulosalarni tasdiqladi. Driscoll-Kraay standart xatolari bilan qayta baholash hamda COVID-19 yillarini chiqarib tashlash natijalarni sezilarli o'zgartirmadi. Bu model natijalarining barqarorligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Uglerod narxlash mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish orqali iqtisodiyot subyektlariga moslashish uchun yetarli vaqt berish zarur.

Uglerod narxlashdan tushadigan daromadlarni energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya va sanoat modernizatsiyasi loyihalariga yo'naltirish maqsadga muvofiq. Mazkur natijalar "ikki karra foyda" gipotezasiga muvofiq samarali natija beradi [5].

Ijtimoiy ta'sirlarni yumshatish maqsadida aholining zaif qatlamlari uchun kompensatsion mexanizmlar ishlab chiqilishi kerak. Tadqiqotlarimizda ijtimoiy yumshatish mexanizmlarining zarurligi keltirilgan, xususan buni tarif islohotlarini amalga oshirishda berilgan takliflarda ham ko'rish mumkin [4].

Uglerod narxlash siyosati boshqa yashil fiskal vositalar, energiya tariflari islohoti va yashil investitsiya mexanizmlari bilan uyg'unlashtirilishi lozim.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, tadqiqot natijalari uglerod solig'i va ETS kabi fiskal-bozor instrumentlari CO₂ emissiyalarini kamaytirishda samarali vosita sanaladi. Shu bilan birga, ushbu siyosatlarning muvaffaqiyatli joriy etilishi institutsional salohiyat, ma'lumotlar sifati, siyosiy barqarorlik va tushumlarning adolatli qayta taqsimlanishiga bog'liq.

**Dinamik fiksirlangan
effektlar panel modeli
natijalari uglerod narxlash
mexanizmlarining
emissiyalarni kamaytirishda
statistik jihatdan sezilarli
ta'sirga ega ekanini ko'rsatdi.**

Manba va adabiyotlar

1. Bayer, P., & Akin, M. (2020). *The European Union Emissions Trading System reduced CO₂ emissions despite low prices. Proceedings of the National Academy of Sciences*, 117(16), 8804–8812.
2. Best, R., Burke, P. J., & Jotzo, F. (2020). *Carbon pricing efficacy: Cross-country evidence. Environmental and Resource Economics*, 77(1), 69–94.
3. Kohlscheen, E., Moessner, R., & Takats, E. (2025). *Effects of carbon pricing and other climate policies on CO₂ emissions. National Institute Economic Review*. <https://doi.org/10.1017/nie.2025.10066>.
4. Negmatov, J., Mahkamova, Sh., & Quliyev, U. (2022). *Elektr energiyasi tariflarini shakllantirishning ijtimoiy-iqtisodiy tahlili. Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar*, 4(20), 198–204.
5. Pulatov D.H., Quliyev U.M. *Introducing ETS and carbon tax in Uzbekistan: Opportunities and Comparative Analysis // Экономика и социум. – 2025. – №10(137). – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/introducing-ets-and-carbon-tax-in-uzbekistan-opportunities-and-comparative-analysis.*
6. Stechemesser, A., Koch, N., Mark, E., Dilger, E., Klösel, P., Menicacci, L., Nachtigall, D., Pretis, F., Ritter, N., Schwarz, M., Vossen, H., & Wenzel, A. (2024). *Climate policies that achieved major emission reductions: Global evidence from two decades. Science*, 385(6711), 884–892. DOI: 10.1126/science.adl6547.
7. World Bank. *State and Trends of Carbon Pricing 2025*. Washington, DC: World Bank, 2025. DOI: 10.1596/978-1-4648-2255-1.
8. Pigou, A. C. (1920). *The Economics of Welfare*. London: Macmillan.
9. Weitzman, M. L. (1974). *Prices vs. Quantities. The Review of Economic Studies*, 41(4), 477–491. DOI: 10.2307/2296698.
10. Montgomery, W. D. (1972). *Markets in Licenses and Efficient Pollution Control Programs. Journal of Economic Theory*, 5(3), 395–418.
11. Andersson, J. J. (2019). *Carbon Taxes and CO₂ Emissions: Sweden as a Case Study. American Economic Journal: Economic Policy*, 11(4), 1–30.
12. Pretis, F. (2022). *Does a Carbon Tax Reduce CO₂ Emissions? Evidence from British Columbia. Environmental and Resource Economics*, 83, 115–144.

УЎК: 330.101.8

Konstantin KURPAYANIDI,

*Professor, Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti (O'zbekiston),
Rossiya tabiiy fanlar akademiyasining professori,
E-mail: antinari@gmail.com*

O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING INSTITUTSIONAL DETERMINANTLARI VA MAKROIQTISODIY OQIBATLARI

Annotatsiya. Maqola O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning institutsional determinantlari, korrupsiya bilan bog'liqligi hamda makroiqtisodiy va barqaror rivojlanish oqibatlarini chuqurlashtirilgan tarzda tahlil qiladi. Adabiyotlar sharhi asosida muallifning original hissasi quyidagilarda namoyon bo'ladi: birinchidan, yashirin iqtisodiyot va korrupsiyani yagona institutsional reproduksiya mexanizmi sifatida konseptualashtirish; ikkinchidan, Milliy statistika qo'mitasining 2025-yil yakuniy ma'lumotlari asosida kuzatilmaydigan iqtisodiyotning tarkibiy ko'lamini va yashirin segmentining makroiqtisodiy vaznini aniqlashtirish; uchinchidan, korrupsiyaning fiskal barqarorlik, investitsion muhit, resurslar alokatsiyasi, mehnat bozori va barqaror rivojlanish maqsadlariga ta'sirini integratsiyalashgan baholash. Tadqiqot natijalari korrupsiya va yashirin iqtisodiyot o'rtasidagi o'zaro kuchaytiruvchi aloqa O'zbekiston sharoitida statistik buzilishlar, byudjet bazasining torayishi, tarmoqlar kesimida notekis formalizatsiya va institutsional ishonchning pasayishi orqali namoyon bo'layotganini ko'rsatadi. Mualliflik hisob-kitoblari asosida yashirin iqtisodiyotning 10, 25 va 50 foizini legallashtirish ssenariylari bo'yicha formal yalpi qo'shilgan qiymatning mos ravishda 14,7; 36,8 va 73,5 trln so'mga oshishi mumkinligi asoslandi. Shu asosda fiskal ma'muriyatchilikni soddalashtirish, korrupsiyaga qarshi raqamli monitoring, yuqori xavfli tarmoqlarda maqsadli formalizatsiya va

institutsional koordinatsiyani kuchaytirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: institutsional determinantlar, korrupsiya, yashirin iqtisodiyot, kuzatilmaydigan iqtisodiyot, fiskal barqarorlik, barqaror rivojlanish, formalizatsiya, O'zbekiston.

Институциональные детерминанты и макроэкономические последствия теневой экономики в Узбекистане

Константин Курпаяниди,
профессор,

*Международный институт пищевых
технологий и инженерии,
Профессор Российской академии
естествознания*

Аннотация. В статье проведена углублённая редакция и аналитическая реконфигурация проблематики теневой экономики Узбекистана через призму институциональных ограничений и коррупции. Оригинальный авторский вклад состоит в интеграции обзора литературы, официальной статистики по ненаблюдаемой экономике за 2025 год и оценки воздействия коррупции на макроэкономическую устойчивость и устойчивое развитие. Показано, что коррупция выступает не внешним сопутствующим явлением, а внутренним механизмом воспроизводства теневого сектора, усиливая фискальные потери, искажение конкурентной

среды, деформацию инвестиционных стимулов и регионально-отраслевую асимметрию формализации. На основе авторских расчётов предложены сценарии частичной легализации скрытой экономики и сформулированы институциональные рекомендации, ориентированные на снижение транзакционных издержек, расширение цифровой прослеживаемости и укрепление подотчетности государства.

Ключевые слова: теневая экономика, коррупция, институциональные детерминанты, ненаблюдаемая экономика, устойчивое развитие, фискальная устойчивость, Узбекистан.

Institutional determinants and macroeconomic effects of the shadow economy in uzbekistan

Konstantin Kurpayanidi,
Professor, International Institute of Food
Technology and Engineering,
Professor of Russian Academy of Natural
Sciences

Abstract. *This revised paper examines the shadow economy in Uzbekistan through the integrated lens of institutional determinants, corruption, macroeconomic performance and sustainable development. The author's original contribution lies in combining the literature review with newly structured evidence from official 2025 national statistics and an analytical framework in which corruption is treated as an endogenous mechanism reproducing hidden economic activity. The paper demonstrates that corruption amplifies fiscal leakages, distorts sectoral allocation of resources, weakens investment incentives, lowers the reliability of macroeconomic statistics and slows progress toward sustainable development goals. Based on authorial scenario calculations, partial legalization of the hidden segment may increase formal gross value added by 14.7, 36.8 and 73.5 trillion soums under 10, 25 and 50 per cent formalization scenarios respectively. Policy recommendations focus on digital traceability, targeted sectoral formalization, administrative*

simplification and stronger inter-agency coordination.

Keywords: *shadow economy, corruption, institutional determinants, unobserved economy, sustainable development, fiscal sustainability, Uzbekistan.*

Kirish

Yashirin iqtisodiyot tranzitiv va rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun oddiy statistik noaniqlik emas, balki institutsional sifat, fiskal intizom va davlat-biznes o'zaro munosabatlarining real holatini aks ettiruvchi tizimli indikator hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida mazkur fenomen ayniqsa korrupsiya bilan qo'shilib ketgan holda namoyon bo'ladi: korrupsion rentaga intilish iqtisodiy agentlarni rasmiy qoidalardan chetlab o'tishga undasa, keng ko'lamdagi yashirin faoliyat esa, o'z navbatida, nazoratni zaiflashtiradi va korrupsion bitimlar uchun qulay muhit yaratadi. Shu sababli, yashirin iqtisodiyotni korrupsiyadan alohida o'rganish metodologik jihatdan cheklangan natijalarni beradi.

2025-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida kuzatilmaydigan iqtisodiyotning yalpi qo'shilgan qiymati 498 045,2 mlrd so'mni, uning YaIMdagi ulushi esa 26,9 foizni tashkil etdi; shundan yashirin iqtisodiyotning o'zi 147 005,1 mlrd so'm yoki 7,9 foiz YaIMga teng bo'ldi [20; 21]. Mazkur ko'rsatkichlar muammoning keng ko'lamini va uni faqat huquqiy-intizomiy emas, balki makroiqtisodiy hamda rivojlanish paradigmasida tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi – O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning institutsional determinantlarini aniqlash, korrupsiyaning uning reproduksiyasidagi rolini ochib berish, makroiqtisodiy va barqaror rivojlanish oqibatlarini baholash hamda hisob-kitoblarga tayangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning yangiligi shundaki, unda adabiyotlar sharhi, rasmiy statistik ma'lumotlar va ssenariyli mualliflik hisob-kitoblari yagona tahliliy modelga birlashtiriladi.

Adabiyotlar sharhi va muallifning original hissasi

Ilmiy adabiyotlarda yashirin iqtisodiyotga doir yondashuvlar, odatda, uch blokka jamlanadi: nazariy-definitson yondashuvlar, empirik baholash metodlari va institutsional sabablar tahlili. Dell'Anno [16], Schneider [23] hamda Makarova va hammualliflar [19] ushbu fenomenning kategoriyaviy va strukturaviy tavsifini ochib bersa, Burov, Xudaynazarov va Mamatqulov [15] O'zbekiston sharoitida uni baholashning uslubiy qiyinchiliklarini ko'rsatadi. Milliy mualliflar orasida Abdullaeva [11], Axmedov [12], Rahmonov [22], Ashurov [13; 14] va Kurpayanidi [17; 18] yashirin iqtisodiyotning institutsional omillari, axborot nosimmetriyasi, davlat boshqaruvi sifati hamda raqamlashtirish bilan bog'liq jihatlarni yoritadi.

Biroq mavjud adabiyotlarning katta qismi ikki cheklov bilan tavsiflanadi. Birinchidan, korrupsiya ko'pincha yashirin iqtisodiyotning shunchaki hamrohi sifatida talqin qilinadi, uning endogen reproduksiya mexanizmi sifatidagi roli yetarlicha ochib berilmaydi. Ikkinchidan, makroiqtisodiy oqibatlar ko'proq umumiy tavsif darajasida bayon qilinib, fiskal barqarorlik, investitsion muhit, tarmoqlararo resurs taqsimoti va barqaror rivojlanish maqsadlari bilan o'zaro bog'liqlik tizimli ravishda integratsiya qilinmaydi.

Mazkur maqolaning original mualliflik hissasi quyidagilardan iborat. Birinchidan, korrupsiya va yashirin iqtisodiyot o'rtasidagi aloqadorlik «institutsional rentaga asoslangan ikki tomonlama kuchaytiruvchi mexanizm» sifatida konseptualashtiriladi. Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2025-yil bo'yicha eng so'nggi rasmiy ko'rsatkichlari asosida kuzatilmaydigan iqtisodiyotning umumiy

va yashirin segmentlari o'rtasidagi nisbat qayta talqin qilinadi. Uchinchidan, yashirin iqtisodiyotning qisman legallashtirilishi bo'yicha ssenariyli mualliflik hisob-kitoblari kiritilib, formal sektorning potensial kengayish hajmi baholanadi. To'rtinchidan, korrupsiyaning barqaror rivojlanish maqsadlariga ta'siri makroiqtisodiy va institutsional indikatorlar bilan bog'langan yagona analitik blok shaklida yoritiladi.

Shunday qilib, maqola mavjud adabiyotlarni takrorlamaydi; aksincha, ularni O'zbekistonning hozirgi institutsional bosqichiga moslashtirilgan va statistik jihatdan yangilangan tahliliy konstruksiyaga birlashtiradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot metodologiyasi aralash yondashuvga asoslanadi. Nazariy qismda mantiqiy abstraksiya, qiyosiy-institutsional tahlil, induksiya va deduksiya usullari qo'llanildi. Empirik qismda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Lex.uz, Transparency International va tegishli ilmiy manbalardagi ma'lumotlar kontent-tahlil qilindi. Bunda asosiy maqsad – yashirin iqtisodiyot, korrupsiya va barqaror rivojlanish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatuvchi sababiy kanallarni aniqlashdan iborat.

Maqolada foydalanilgan hisob-kitoblar normativ-ekonomik va ssenariyli xarakterga ega. Jumladan, 2025-yilda yashirin iqtisodiyot hajmi 147 005,1 mlrd so'm ekani inobatga olinib, uning 10, 25 va 50 foizini formal sektorga o'tkazish ssenariylari bo'yicha formal yalpi qo'shilgan qiymatning potensial kengayishi baholandi. Ushbu usul to'g'ridan-to'g'ri byudjet tushumlarini emas, balki iqtisodiy bazaning kengayish salohiyatini aniqlashga qaratilgan bo'lib, u siyosiy qarorlar uchun diagnostik vosita sifatida xizmat qiladi.

Korrupsiyaning makroiqtisodiy oqibatlari esa to'rtta asosiy kanal bo'yicha tahlil qilindi: fiskal kanal, investitsion kanal, resurslar alokatsiyasi kanali va ijtimoiy-institutsional kanal. Barqaror rivojlanishga ta'sir bahosi BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari mantig'i, ayniqsa 8-, 9-, 10-, 16- va 17-maqsadlar kontekstida olib borildi.

Natijalar va muhokama

1-jadval

Yashirin iqtisodiyotning asosiy determinantlari, ularning sabablari va iqtisodiy oqibatlari

№	Asosiy determinantlar	Determinantning yuzaga kelish sababi	Ta'sir yo'nalishi	Iqtisodiy oqibat
1	Fiskal yuklamalar	Yuqori soliq bosimi va murakkab hisob-kitob tartiblari	Oshiradi	Daromadlarni yashirish, soliqlardan bo'yin tovlash va naqd aylanmaga o'tishni kuchaytiradi
2	Ijtimoiy badallar	Majburiy badallar xarajatining yuqoriligi	Oshiradi	Mehnat shartnomalarini norasmiylashtirish va ish haqini konvertida to'lash rag'batini kuchaytiradi
3	Mehnat bozorini tartibga solish	Qat'iy formal talablar va tekshiruv xarajatlari	Oshiradi	Norasmiy bandlik ulushini kengaytiradi
4	Tartibga solishning zichligi	Litsenziyalash, ruxsat olish va hisobot topshirish xarajatlari	Oshiradi	Kichik biznesni rasmiy sektordan chekinishga undaydi
5	Fuqarolik ishonchi pastligi	Davlat institutlariga ishonchning zaifligi	Oshiradi	Soliq intizomi va ijtimoiy legitimlikni susaytiradi
6	Soliq madaniyati zaifligi	Fiskal majburiyatlarning past ijtimoiy qabul qilinishi	Oshiradi	Soliq to'lashdan qochishni normal amaliyotga aylantiradi
7	Davlat boshqaruvi sifati va korrupsiya	Nazoratning selektivligi, mansab rentasi va past hisobdorlik	Keskin oshiradi	Raqobatni buzadi, resurslarni noto'g'ri taqsimlaydi va yashirin operatsiyalar uchun institutsional himoya yaratadi

Manba: muallif tomonidan ilmiy manbalar [11; 12; 15; 16; 19; 22; 23] asosida qayta tizimlashtirildi.

1-jadvaldan ko'rinadiki, yashirin iqtisodiyotning paydo bo'lishi alohida omillarning tasodifiy yig'indisi emas, balki tranzaksiya xarajatlari yuqori bo'lgan va qoidalarga rioya etish iqtisodiy jihatdan yetarlicha rag'batlantirilmagan institutsional muhit natijasidir. Jadvaldagi determinantlar ichida korrupsiya eng yuqori ko'paytiruvchi ta'sirga ega, chunki u bir vaqtning o'zida tartibga solish xarajatlarini oshiradi, huquqni qo'llashning selektivligini kuchaytiradi va iqtisodiy agentlarga noqonuniy «tezkor kelishuvlar» orqali rasmiy talablardan chetlab o'tish imkonini beradi.

Shu bois, yashirin iqtisodiyotning iqtisodiyotga ta'siri ikki darajada namoyon bo'ladi. Mikro darajada u alohida firmalar uchun qisqa muddatli xarajatlarni kamaytirishi mumkin, biroq makro darajada fiskal bazani yemiradi, adolatli raqobatni buzadi, ishlab chiqarish resurslarini samaraliroq subyektlardan korrupsion aloqalarga ega subyektlar tomon siljitadi va statistik axborotning aniqligini

pasaytiradi. Natijada davlatning iqtisodiy siyosati noto'liq ma'lumotlar asosida shakllanadi, bu esa monetar, fiskal va sanoat siyosati samaradorligini pasaytiradi.

Korrupsiyaning makroiqtisodiy oqibatlari

O'zbekiston uchun korrupsiyaning makroiqtisodiy oqibatlarini baholashda uni faqat etik yoki huquqiy muammo sifatida emas, balki iqtisodiy o'sishning institutsional solig'i sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq. Transparency International ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonning 2025-yildagi Corruption Perceptions Index bo'yicha ko'rsatkichi 31 ballni tashkil etib, mamlakat 182 davlat orasida 124-o'rinni egalladi; bu avvalgi yilga nisbatan 1 ballga pasayishdir [25; 26]. Mazkur signal davlat boshqaruvi sifati, hisobdorlik va investitsion ishonch borasida hanuz saqlanayotgan institutsional zaifliklarni anglatadi.

Fiskal kanal orqali korrupsiya, eng avvalo, soliqqa tortiladigan bazaning qisqarishini va

byudjet tushumlarining potensial yo'qotilishini kuchaytiradi. 2025-yilda yashirin iqtisodiyot hajmining 147 005,1 mlrd so'mga teng bo'lishi [20; 21] davlat uchun sezilarli darajadagi fiskal «ko'rinmas hudud» mavjudligini bildiradi. Mazkur segment rasmiy statistikada to'liq aks etmagani uchun davlat xarajatlarini rejalashtirish, soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini baholash va hududiy transfertlarni optimallashtirish jarayonlari buziladi.

Investitsion kanal orqali korrupsiya kapital qiymatini oshiradi. Ruxsatnomalar, tekshiruvlar, davlat xaridlari yoki infratuzilma bog'lanishlari jarayonida norasmiy to'lovlar mavjud bo'lsa, investor uchun kutilayotgan sof daromad pasayadi va loyiha davomida mavjudda bo'lgan «rag'batli» ortadi. Bunday muhit uzoq muddatli, texnologik va yuqori mahsuldor investitsiyalarni emas, balki qisqa muddatli rentaga yo'naltirilgan faoliyatni rag'batlantiradi.

Resurslar allokatatsiyasi kanali doirasida korrupsiya eng samarali korxonalarni emas, balki ma'muriy kirish imkoniyatlariga ega subyektlarni afzal holatga qo'yadi. Natijada ishlab chiqarish omillari bozor signallari asosida emas, balki norasmiy kelishuvlar asosida taqsimlanadi. Bu

umumiy omillar mahsuldorligining pasayishiga, innovatsion rag'batlarning zaiflashishiga va tarmoqlararo tarkibiy modernizatsiyaning sekinlashishiga olib keladi.

Ijtimoiy-institutsional kanal orqali korrupsiya rasmiy qoidalar legitimligini susaytiradi. Agar iqtisodiy agentlar muvaffaqiyatning bosh omili sifatida samaradorlikni emas, balki «aloqa» va norasmiy kelishuvlarni ko'rsa, qonuniy faoliyatning nisbiy jozibadorligi pasayadi. Bu esa soliq intizomining yomonlashuvi, norasmiy mehnat bandligining kengayishi va institutsional ishonchning pasayishi orqali iqtisodiy o'sishning sifatini yemiradi.

Muallifning baholashiga ko'ra, korrupsiyaning makroiqtisodiy oqibatlari O'zbekistonda to'rtta yakuniy natijada jamlanadi: birinchidan, fiskal barqarorlik zaiflashadi; ikkinchidan, investitsion resurslarning samaradorligi pasayadi; uchinchidan, rasmiy statistika va siyosiy rejalashtirish o'rtasida tafovut chuqurlashadi; to'rtinchidan, iqtisodiy o'sishning inklyuziv va institutsional sifati yomonlashadi. Demak, korrupsiyaga qarshi siyosat makroiqtisodiy siyosatning periferik emas, markaziy komponenti sifatida ko'rilishi lozim.

2-jadval

Mualliflik ssenariyli hisob-kitoblari: yashirin iqtisodiyotni legallashtirishning potensial samarasi

Ssenariy	Formal sektorga qo'shiladigan yashirin YAQQ, trln so'm	YaIMga nisbatan qo'shimcha ulush, foiz band	Tahliliy xulosa
10% formalizatsiya	14,7	0,79	Past intensivlikdagi chora-tadbirlar ham formal bazani sezilarli kengaytirishi mumkin
25% formalizatsiya	36,8	1,98	Ma'muriy soddalashtirish va raqamli monitoring birgalikda sezilarli makroeffekt beradi
50% formalizatsiya	73,5	3,95	Chuqur institutsional islohotlar sharoitida o'sish sifati va rasmiy sektor salohiyati tubdan kuchayadi

Manba: muallif hisob-kitoblari; baza – 2025-yilda yashirin iqtisodiyotning 147 005,1 mlrd so'mlik hajmi [20; 21].

Ssenariyli hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, korrupsiyani kamaytirish va yashirin iqtisodiyotning kamida chorak qismini formal sektorga o'tkazishning o'zi formal yalpi qo'shilgan

qiymatni qariyb 36,8 trln so'mga kengaytirish salohiyatiga ega(2-jadval). Bu ko'rsatkichni avtomatik byudjet tushumi sifatida emas, balki rasmiy statistik qamrov, soliqqa tortish bazasi

va investitsion ishonchning kengayish potentsiali sifatida talqin qilish lozim.

Siyosiy jihatdan eng muhim xulosa shundaki, hatto to'liq emas, balki qisman formalizatsiya ham makroiqtisodiy jihatdan mazmunli natija

beradi. Shu sababli, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashning maqsadi faqat repressiv qisqartirish emas, balki legallashtirish xarajatlarini pasaytirish va rasmiy sektorga kirishni iqtisodiy jihatdan foydali qilishdan iborat bo'lishi kerak.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasida kuzatilmaydigan iqtisodiyot ko'lami

Ko'rsatkich	Hajmi, mlrd so'm	YaIMdagi ulushi, %
Rasmiy iqtisodiyot	1 351 654,8	73,1
Kuzatilmaydigan iqtisodiyot	498 045,2	26,9
Shundan: yashirin iqtisodiyot	147 005,1	7,9
Jami YaIM	1 849 700,0	100,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2025-yil yakunlari bo'yicha press-relizi asosida muallif tomonidan tuzildi [20; 21].

3-jadval ma'lumotlari ko'rsatadiki, kuzatilmaydigan iqtisodiyot O'zbekiston iqtisodiy tizimining chekka emas, balki strukturaviy ahamiyatga ega komponentidir. YaIMning 26,9 foizi statistika, soliqqa tortish va nazorat tizimlaridan to'liq yoki qisman tashqarida qolayotgani davlatning iqtisodiy siyosatini shakllantirishda qo'shimcha noaniqlik tug'diradi. Ayniqsa, yashirin iqtisodiyotning 7,9 foizlik ulushi korrupsiya, soliqlardan bo'yin tovlash va selektiv(tanlama) nazorat bilan chambarchas bog'langan segment

sifatida alohida xavf tug'diradi.

Makroiqtisodiy nuqtai nazardan, bunday ulush fiskal imkoniyatlarning cheklanishi, rasmiy bandlik ko'rsatkichlarining buzilishi, hududiy rivojlanish dasturlari samarasining pasayishi va davlatning antisiklik siyosat uchun tayanch axborot bazasining zaiflashishini anglatadi. Demak, kuzatilmaydigan iqtisodiyotning yuqori darajasi o'sish sur'atlari mavjud bo'lgan sharoitda ham o'sish sifatining yetarli darajada institutsionallashmaganidan dalolat beradi.

4-jadval

Kuzatilmaydigan iqtisodiyotning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi

Iqtisodiyot tarmog'i	Ulushi, %	Hajmi, trln so'm	Yuzaga kelish xususiyatlari
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	62,6	254,72	Norasmiy bandlik va statistik qamrovning cheklanganligi
Xizmat ko'rsatish	26,9	109,45	Naqd to'lovlar va deklaratsiya qilinmagan xizmatlar ulushi
Qurilish	23,5	95,62	Norasmiy mehnat munosabatlari va subpudrat shaffofligining pastligi
Sanoat	9,4	38,25	Nisbatan yuqori formalizatsiya va nazorat tizimlari

Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan qayta ishlangan [20; 21].

4-jadval tarmoqlar bo'yicha risklarning bir xil emasligini tasdiqlaydi. Eng katta konsentratsiya qishloq xo'jaligi, xizmatlar va qurilishda kuzatiladi. Bu uchala tarmoqda ham mehnat intensivligi yuqori, naqd pul aylanmasi katta va

ko'plab operatsiyalarni mayda bo'laklarga ajratish imkoniyati mavjud. Mazkur omillar korrupsion vositachilik va selektiv nazorat bilan birlashganda, yashirin iqtisodiyotning barqaror qayta ishlab chiqarilishini ta'minlaydi.

Sanoat sektorida ulushning pastligi esa institutsional xulosa chiqarish imkonini beradi: raqamlashtirilgan hisob-kitoblar, ishlab chiqarish zanjirlarining nisbatan yaxlitligi va kuzatuvchanlikning yuqoriligi yashirin operatsiyalarni cheklaydi. Demak, yuqori xavfli tarmoqlarda sanoatga xos izchillikdagi raqamli kuzatuv, elektron shartnomalar, mehnatni rasmiy ro'yxatga olish va to'lovlarning izchilligi joriy etilsa, yashirin iqtisodiyot ulushini sezilarli darajada qisqartirish mumkin.

O'zbekistonning barqaror rivojlanishiga korrupsiyaning ta'siri

Korrupsiyaning barqaror rivojlanishga ta'siri ko'p qatlamli bo'lib, u iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional mezonlarning barchasini qamrab oladi. *Birinchidan*, korrupsiya iqtisodiy o'sishning inklyuzivligini pasaytiradi. Resurslar raqobat va mahsuldorlik asosida emas, rentaga yaqinlik asosida taqsimlanganda, yuqori samarali loyihalar siqib chiqariladi, natijadasifatli ish o'rinlari yaratish sur'ati susayadi. Bu esa Barqaror rivojlanish maqsadlarining 8-maqsadi – munosib mehnat va iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, korrupsiya infratuzilma va sanoat modernizatsiyasining institutsional sifatini yomonlashtiradi. Davlat xaridlari, qurilish, energetika va kommunal loyihalarda rentaga yo'naltirilgan qarorlar ustun bo'lsa, investitsiya resurslari maksimal ijtimoiy qaytinga ega loyihalarga emas, norasmiy manfaatlar ta'siri kuchli bo'lgan segmentlarga oqib boradi. Bu 9-maqsad – sanoat, innovatsiyalar va infratuzilma bilan bevosita bog'liq cheklovdir.

Uchinchidan, korrupsiya ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi. Rasmiy ruxsatlar, xizmatlar va iqtisodiy imkoniyatlarga kirish imkoniyati teng bo'lmaganda, kichik biznes, yoshlar, ayollar va hududiy jihatdan chekka guruhlar nisbatan zaif holatda qoladi. Natijada imkoniyatlar tengsizligi chuqurlashadi va 10-maqsad – tengsizlikni qisqartirish jarayoni sekinlashadi.

To'rtinchidan, korrupsiya davlat institutlarining legitimligi va samaradorligini zaiflashtiradi. Bu 16-maqsad – tinchlik, adolat va samarali institutlar

uchun markaziy xavfdir. Agar iqtisodiy subyektlar uchun qonuniy yo'l bilan ishlashdan ko'ra norasmiy kelishuvlar arzonroq va tezroq bo'lsa, davlatning formal qoidalari amalda ikkilamchi tus oladi. Institutsional ishonchning bunday yemirilishi uzoq muddatda soliqqa ixtiyoriy rioya etish, jamoatchilik nazorati va davlat dasturlarining legitimligini pasaytiradi.

Nihoyat, korrupsiya barqaror rivojlanishning 17-maqsadiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki u davlat, biznes va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi sheriklikning sifatini yomonlashtiradi. Hisobdorlik va ma'lumot almashinuvi sust bo'lgan muhitda har qanday rivojlanish strategiyasi formallashgan hujjat darajasida qolish xavfiga ega. Demak, korrupsiyaga qarshi siyosat nafaqat jinoyatchilikka qarshi choralar yig'indisi, balki barqaror rivojlanish strategiyasining asosiy institutsional tayanchi sifatida qaralishi kerak.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari O'zbekiston sharoitida yashirin iqtisodiyot va korrupsiya o'zaro mustahkamlovchi institutsional tizimni tashkil etishini ko'rsatdi. Yashirin iqtisodiyotning umumiy ko'lami 2025-yilda YaIMning 26,9 foiziga, uning aynan yashirin segmenti esa 7,9 foiziga teng bo'lgani muammoning statistik emas, balki strukturaviy xarakterga ega ekanini tasdiqlaydi. Korrupsiya esa mazkur tizimning ichki «transmissiya mexanizmi» sifatida fiskal yo'qotishlar, resurslar noto'g'ri allokatsiyasi, investitsion tavakkalchilik va institutsional ishonch pasayishini kuchaytiradi.

Mualliflik ssenariyli hisob-kitoblari yashirin iqtisodiyotning hatto chorak qismini formal sektorga o'tkazishning o'zi formal yalpi qo'shilgan qiymatni taxminan 36,8 trln so'mga kengaytirishi mumkinligini ko'rsatdi. Bu natija repressiv nazoratdan ko'ra iqtisodiy rag'bat va institutsional soddalashtirishga tayangan siyosat samaraliroq bo'lishi mumkinligini anglatadi.

Shundan kelib chiqib, quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi. Birinchidan, yuqori xavfli tarmoqlarda – qurilish, xizmatlar va qishloq xo'jaligida – majburiy elektron shartnoma, elektron

hisob-faktura va ishchi kuchini raqamli ro'yxatga olish mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish zarur. Ikkinchidan, litsenziyalash, ro'yxatdan o'tish va soliq hisobotlari bo'yicha tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish uchun «bir darcha – bir identifikator – bir ma'lumot bazasi» tamoyili kuchaytirilishi lozim. Uchinchidan, korrupsion xavf yuqori bo'lgan ruxsat berish va nazorat funksiyalarida inson omilini qisqartiruvchi riskka asoslangan avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari joriy etilishi kerak.

To'rtinchidan, fiskal intizomni oshirish jazolash orqali emas, balki rasmiy faoliyatning nisbiy foydasini ko'paytirish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq: soliq keshbeklari, ixtiyoriy deklaratsiyani rag'batlantirish, kichik biznes uchun soddalashtirilgan o'tish rejimlari va ijtimoiy

himoya bilan bog'langan formalizatsiya paketlari joriy etilishi lozim. Beshinchidan, korrupsiyaga qarshi siyosatni iqtisodiy rivojlanish siyosatidan ajratib bo'lmaydi. Shu sababli barqaror rivojlanish indikatorlari, davlat xaridlari shaffofligi va sektorlar bo'yicha formalizatsiya ko'rsatkichlarini yagona monitoring tizimiga integratsiya qilish zarur.

Umuman, O'zbekiston uchun strategik ustuvorlik yashirin iqtisodiyotni faqat qisqartirish emas, balki rasmiy sektorga o'tishning iqtisodiy va institutsional shartlarini yaxshilashdan iborat. Ana shunda korrupsiya va yashirin iqtisodiyotning o'zaro kuchaytiruvchi ta'siri zaiflashadi hamda iqtisodiy o'sishning barqaror, inkluziv va institutsional sifatini oshirish mumkin bo'ladi.

Manba va adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi qonuni. (2014, May 5). Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqdligi to'g'risida (O'RQ-369-son). <https://lex.uz/docs/-2381133>
2. O'zbekiston Respublikasi qonuni. (2014, Sentyabr 25). Ijtimoiy sheriklik to'g'risida (O'RQ-376-son). <https://lex.uz/docs/2468216>
3. O'zbekiston Respublikasi qonuni. (2017, Yanvar 3). Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida (O'RQ-419-son). <https://lex.uz/docs/3088013>
4. O'zbekiston Respublikasi qonuni. (2018, Aprel 12). Jamoatchilik nazorati to'g'risida (O'RQ-474-son). <https://lex.uz/docs/3679099>
5. O'zbekiston Respublikasi qonuni. (2021, Aprel 22). Davlat xaridlari to'g'risida (O'RQ-684-son). <https://lex.uz/docs/5382983>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. (2020, Iyun 29). Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish to'g'risida (PF-6013). <https://lex.uz/docs/5495531>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. (2021, Iyun 6). Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etish to'g'risida (PQ-5177). <https://lex.uz/docs/5495538>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. (2025, Dekabr 10). Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish to'g'risida (PF-246). <https://lex.uz/uz/docs/-7897630>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. (2026, Fevral 16). "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida (PF-22). <https://lex.uz/ru/docs/-8050787>
10. Abduganiev, J. (2025). Shadow economy in Uzbekistan: National trends and international perspectives. *Academia Open*, 10(1). <https://doi.org/10.21070/acopen.10.2025.10548>
11. Abdullaeva, M. (2021). Tenevaya ekonomika, ee vliyaniye na ekonomicheskuyu sistemu. In *Library*, 21(4), 86–101. <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/8763>
12. Axmedov, F. (2023). O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish masalalari. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 1(5), 77–83.
13. Ashurov, M. S. (2023). Optimising the digital economy: Overcoming institutional constraints and information asymmetries. *Ekonomika i predprinimatelstvo*, 17(6), 188–195.

-
14. Ashurov, M. S. (2023b). *National innovation system: Methodological aspects*. *Ekonomika i predprinimatelstvo*, 17(9), 408–415.
 15. Burov, V. Yu., Khudaynazarov, A. K., & Mamatkulov, I. A. (2020). *Tenevaya ekonomika v Uzbekistane: Otsenka razmera i struktury*. *Tenevaya ekonomika*, 4(1), 23–46.
 16. Dell'Anno, R. (2022). *Theories and definitions of the informal economy: A survey*. *Journal of Economic Surveys*, 36(5), 1610–1643.
 17. Kurpayanidi, K. (2024). *Multidimensional approach to combating the shadow economy: Theory and practice*. *Byulleten' nauki i praktiki*, 10(5), 424–431.
 18. Kurpayanidi, K. I. (2025). *The shadow side of reforms: Institutional challenges of modernization in Uzbekistan*. *Bulletin of the Siberian State Industrial University*, 3(53), 131–143. [https://doi.org/10.57070/2304-4497-2025-3\(53\)-131-143](https://doi.org/10.57070/2304-4497-2025-3(53)-131-143)
 19. Makarova, N. N., Chusov, I. A., & Kravsova, O. V. (2023). *Shadow economy: Content and structure*. *Shadow Economy*, 7(4), 335–346. <https://doi.org/10.18334/tek.7.4.120321>
 20. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2026, Yanvar 26). *O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti: 2025-yil yanvar–dekabr oylari uchun press-reliz*. https://stat.uz/img/news/analitika-vvp_zb-lotin_p30500.pdf
 21. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2026). *Milliy hisoblar: Kuzatilmaydigan iqtisodiyot ma'lumotlari*. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2>
 22. Rakhmanov, L. (2023). *O'zbekistonda xufiyona iqtisodiyot ulushini kamaytirishda moliyaviy instrumentlar*. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 1(6), 189–195.
 23. Schneider, F. (2003). *Hiding in the shadows: The growth of the underground economy*. *International Monetary Fund*.
 24. Sutherland, E. H. (1983). *White-collar crime: The uncut version*. Yale University Press.
 25. Transparency International. (2026). *Corruption Perceptions Index 2025: Uzbekistan country profile*. <https://www.transparency.org/en/countries/uzbekistan>
 26. Transparency International. (2026, February 10). *Corruption Perceptions Index 2025*. <https://www.transparency.org/en/cpi/2025>
 27. World Economics. (2026). *Uzbekistan's informal economy size*. <https://www.worldeconomics.com/Informal-Economy/Uzbekistan.aspx>
-

Investitsiyalar, raqamli va innovatsion texnologiyalar /
Инвестиции, цифровые и инновационные технологии /
Investments, digital and innovative technologies

уЎК: 338.2:004.8(575.1)

Tursun AXMEDOV,

iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti loyiha rahbari (O'zbekiston),

E-mail: t.akhmedov@imrs.uz,

Rahmatullo AYUBOV,

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti yetakchi mutaxassisi (O'zbekiston),

E-mail: r.ayubov@imrs.uz

O'ZBEKISTONNING SUN'IY INTELLEKTDAN
FOYDALANISH BO'YICHA XALQARO
REYTINGDAGI O'RNINI YAXSHILASH YO'LLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rne, xususan Oxford Insights tomonidan e'lon qilinadigan "Sun'iy intellektga tayyorgarlik indeksi"dagi natijalari tahlil qilingan. Unda mamlakatning 2020–2025-yillardagi reyting ko'rsatkichlari dinamikasi, Markaziy Osiyo va Mustaqil davlatlar hamdo'stligi hamda dunyoning yetakchi mamlakatlari bilan taqqoslama tahlili keltirilgan. Shuningdek, sun'iy intellektni rivojlantirish, texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, hisoblash quvvatlari, infratuzilma, xavfsizlik va muhofaza, ilmiy-tadqiqot faoliyati hamda institutsional rivojlanish yo'nalishlarida mavjud holat baholangan. Tahlillar asosida O'zbekistonning xalqaro reytingdagi o'rniga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, sun'iy intellektga tayyorgarlik indeksi, Oxford Insights, xalqaro reytinglar, hisoblash quvvatlari, sun'iy intellekt infratuzilmasi, texnologik rivojlanish, sun'iy intellekt xavfsizligi, davlat boshqaruvi, xalqaro raqobatbardoshlik.

Пути улучшения позиции Узбекистана в международном рейтинге по использованию искусственного интеллекта

Турсун Ахмедов,

доктор экономических наук, профессор, руководитель проекта Института макроэкономических и региональных исследований,

Рахматулло Аюбов,

ведущий специалист Института макроэкономических и региональных исследований

Аннотация. В данной статье проанализировано место Узбекистана в международных рейтингах по использованию искусственного интеллекта, в частности результаты страны в «Индексе готовности к искусственному интеллекту», публикуемом Oxford Insights. В ней приведён анализ динамики рейтинговых показателей страны за 2020–2025 годы, а также сравнительный анализ с государствами Центральной Азии, Содружества Независимых Государств и ведущими странами мира. Кроме того, дана оценка текущего состояния по направлениям развития искусственного интеллекта, внедрения технологий в практику,

вычислительных мощностей, инфраструктуры, безопасности и защиты, научно-исследовательской деятельности, а также институционального развития. На основе проведённого анализа выявлены факторы, оказывающие негативное влияние на позицию Узбекистана в международном рейтинге, и разработаны приоритетные направления и практические предложения по их устранению.

Ключевые слова: искусственный интеллект, индекс готовности к искусственному интеллекту, Oxford Insights, международные рейтинги, вычислительные мощности, инфраструктура искусственного интеллекта, технологическое развитие, безопасность искусственного интеллекта, государственное управление, международная конкурентоспособность.

Ways to improve Uzbekistan's position in international rankings on the use of artificial intelligence

Tursun Akhmedov,
DSc (in Economics), professor,
project manager, Institute of Macroeconomic
and Regional Studies,
Rahmatullo Ayubov,
leading specialist, Institute of Macroeconomic
and Regional Studies

Abstract. *The article examines Uzbekistan's position in international rankings related to the use of artificial intelligence, particularly its performance in the Government AI Readiness Index published by Oxford Insights. The report presents an analysis of the dynamics of the country's ranking indicators during 2020–2025, as well as a comparative analysis with the countries of Central Asia, the Commonwealth of Independent States, and leading countries of the world. In addition, the current state of development in the areas of artificial intelligence advancement, practical implementation of technologies, computing capacity, infrastructure, security and protection, research activities, and institutional development*

is assessed. Based on the analysis, factors negatively affecting Uzbekistan's position in the international ranking have been identified, and priority directions and practical recommendations for addressing these factors have been developed.

Keywords: artificial intelligence, Government AI Readiness Index, Oxford Insights, international rankings, computing capacity, artificial intelligence infrastructure, technological development, artificial intelligence safety and security, public administration, international competitiveness.

Kirish

So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalari iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash, moliya va xizmatlar sohasida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirayotgan strategik omillardan biriga aylandi. Jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalar ulushining ortib borishi, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv mexanizmlarining keng joriy etilishi hamda innovatsion yechimlarga bo'lgan talabning kuchayishi mamlakatlarning sun'iy intellekt sohasidagi salohiyatini rivojlantirishni ustuvor vazifaga aylantirmoqda.

Bugungi kunda sun'iy intellektidan samarali foydalanish darajasi nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlari va mehnat unumdorligiga, balki davlatlarning global raqobatbardoshligi, investitsiyaviy jozibadorligi hamda xalqaro maydondagi mavqeiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda sun'iy intellekt infratuzilmasini yaratish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash, kadrlar salohiyatini oshirish hamda texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etishga qaratilgan kompleks siyosat amalga oshirilmoqda. Mamlakatlarning mazkur yo'nalishdagi tayyorgarlik darajasi va erishayotgan natijalarini baholashda nufuzli xalqaro reyting va indekslar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Oxford Insights tomonidan e'lon qilinadigan "Sun'iy intellektga tayyorgarlik indeksi" davlatlarning sun'iy intellektidan foydalanish bo'yicha institutsional, texnologik va

infratuzilmaviy salohiyatini kompleks baholash imkonini beruvchi xalqaro mezonlardan biri hisoblanadi. Mazkur indeks natijalari mamlakatlarning kuchli va zaif jihatlarini aniqlash, mavjud muammolarni baholash hamda istiqbol-dagi rivojlanish ustuvorliklarini belgilashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi [1].

O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalarini iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarga joriy etish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada mamlakatning sun'iy intellektga tayyorgarlik bo'yicha xalqaro reytinglardagi ko'rsatkichlari so'nggi yillarda sezilarli yaxshilanib bormoqda. Shu bilan birga, hisoblash quvvatlari, ilmiy tadqiqotlar ko'lam, texnologiyalar tarqalishi, xavfsizlik va muhofaza tizimlari kabi ayrim yo'nalishlarda mavjud muammolar mamlakatning reytingdagi o'rnini yanada yaxshilash uchun qo'shimcha choralar ko'rishni talab etadi.

Adabiyotlar tahlili

Sun'iy intellektning davlat boshqaruvi va iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati so'nggi yillarda xalqaro tashkilotlar, ilmiy markazlar va ekspertlar tomonidan keng o'rganilmoqda. Xususan, milliy darajadagi sun'iy intellektga tayyorgarlik omillarini empirik jihatdan o'rgangan Thakur (2025) 2020–2024-yillar davomida 155 mamlakat ma'lumotlari asosida panel regressiya tahlilini amalga oshirgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, inson kapitali, ma'lumotlar mavjudligi, raqamli infratuzilma va innovatsion salohiyat AI readiness darajasiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillar hisoblanadi. Muallif, shuningdek, boshqaruv sifati va strategik liderlikning ham sun'iy intellektni joriy etish imkoniyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini qayd etadi. [2].

Seini, Issah va Adam (2024) tomonidan Afrika davlatlari misolida o'tkazilgan tadqiqotda texnologik sektorning rivojlanganlik darajasi va hukumatlarning sun'iy intellektga tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan. Mualliflar Government AI Readiness Index ma'lumotlaridan foydalangan holda texnologik sektor yetukligi

hukumatlarning AI readiness ko'rsatkichlariga to'g'ridan-to'g'ri ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Tadqiqot natijalari texnologik infratuzilma va innovatsion ekotizimning rivojlanganligi sun'iy intellektni amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligini tasdiqlaydi [3].

Government AI Readiness Index metodologiyasining amaliy qo'llanilishi Alalaq (2025) tomonidan ham tahlil qilingan. Tadqiqotda indeks tarkibiga kiruvchi boshqaruv, texnologik infratuzilma va ma'lumotlar ekotizimi bilan bog'liq ko'rsatkichlarning mamlakatlarning sun'iy intellektni joriy etish salohiyatini baholashdagi o'rni o'rganilgan. Muallif indeks natijalari va mamlakatlarning texnologik rivojlanish darajasi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini ta'kidlab, yuqori reyting ko'rsatkichlariga ega davlatlar odatda rivojlangan hisoblash resurslari, kuchli ma'lumotlar infratuzilmasi hamda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi institutsional muhitga ega ekanligini qayd etadi [4].

Stanford Institute for Human-Centered Artificial Intelligence (HAI) ning AI Index Report 2025 hisobotida sun'iy intellekt sohasidagi global raqobatning asosiy drayverlari sifatida ilmiy tadqiqotlar hajmi, ilg'or modellarni yaratish salohiyati, xususiy investitsiyalar, patent faolligi va hisoblash resurslari ko'rsatib o'tilgan [2]. Hisobotda AQSH ilg'or fundamental modellarni ishlab chiqish bo'yicha yetakchilikni saqlab qolayotgani, Xitoy esa ilmiy nashrlar va patentlar soni bo'yicha ustunlikka ega ekanligi qayd etiladi. Mazkur natijalar sun'iy intellekt sohasidagi xalqaro yetakchilik, avvalo, kuchli ilmiy-tadqiqot bazasi, rivojlangan innovatsion ekotizim va yuqori unumdor hisoblash infratuzilmasiga tayanishini ko'rsatadi [5].

Inter-American Development Bank (IDB) ning "Are We Ready for AI? From Measurement to Policy Governance" tadqiqotida 200 dan ortiq mamlakat va hududlar kesimida sun'iy intellekt ekotizimining rivojlanishiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar baholanib, raqamli infratuzilma, ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatlari, inson

kapitali, innovatsion salohiyat va davlat boshqaruvi sifati asosiy determinantlar sifatida ajratib ko'rsatilgan. Mualliflarning ta'kidlashicha, sun'iy intellekt texnologiyalarini muvaffaqiyatli joriy etayotgan mamlakatlar nafaqat yuqori texnologik salohiyatga, balki ma'lumotlar almashinuvi, ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, xususi sektor ishtirokini rag'batlantirish va davlat organlari o'rtasida samarali muvofiqlashtirish mexanizmlariga ham ega bo'ladi. Shuningdek, tadqiqotda sun'iy intellektni rivojlantirish strategiyalarining samaradorligi ko'p jihatdan kadrlar tayyorlash tizimi, raqamli ko'nikmalar darajasi va innovatsiyalarni moliyalashtirish imkoniyatlariga bog'liq ekanligi qayd etilgan [6].

Metodologiya


Mazkur tadqiqotda O'zbekistonning sun'iy intellektga tayyorgarlik bo'yicha xalqaro reytingdagi o'rni va uni yaxshilash imkoniyatlarini baholash uchun qiyosiy tahlil, statistik tahlil hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning asosiy axborot manbasi sifatida Oxford Insights tashkiloti tomonidan e'lon qilingan "Government AI Readiness Index 2025" hisoboti va uning metodologik yondashuvlari olindi. Tahlil jarayonida O'zbekistonning 2020–2025-yillardagi reyting ko'rsatkichlari dinamikasi o'rganilib, natijalar Mustaqil Hamdo'stlik Davlatlari hamda

sun'iy intellekt sohasida yetakchi bo'lgan TOP-10 mamlakatlar ko'rsatkichlari bilan taqqoslandi. Shuningdek, indeks tarkibiga kiruvchi siyosiy majburiyat, me'yoriy-huquqiy muvofiqlik, ma'lumotlar sifati, elektron hukumat xizmatlari, hisoblash quvvatlari, sun'iy intellektning rivojlanganlik darajasi, texnologiyalar tarqalishi, xavfsizlik va muhofaza kabi indikatorlar kesimida tahlillar amalga oshirildi. Olingan natijalar asosida O'zbekistonning kuchli va zaif jihatlari aniqlanib, xalqaro reytingdagi pozitsiyasini yaxshilashga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Oxford Insights tomonidan e'lon qilinadigan Government AI Readiness Index reyting natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston so'nggi yillarda sun'iy intellektni rivojlantirish va uni davlat boshqaruvi hamda iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish bo'yicha sezilarli natijalarga erishgan. Xususan, 2020–2025-yillar davomida mamlakatning indeks bo'yicha umumiy balli 37,17 balldan 56,11 ballgacha oshgan bo'lib, reytingdagi o'rni 95-pog'onadan 62-pog'onagacha yaxshilangan. Natijada O'zbekiston besh yil davomida xalqaro reytingda 33 pog'onaga yuqorilashga erishdi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston SI tayyorgarlik indeksi dinamikasi (2020–2025)

Manba: Oxford Insights ma'lumotlari asosida mualliflar hisob-kitoblari.


Yuqoridagi ijobiy o'zgarishlar mamlakatda sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha muayyan natijalarga erishilganligini ko'rsatadi. Biroq yakuniy reyting ko'rsatkichi turli yo'nalishlar bo'yicha shakllanadigan indikatorlar yig'indisidan iborat bo'lgani sababli erishilgan natijalarning qaysi omillar hisobiga ta'minlangani hamda qaysi yo'nalishlar mamlakatning reytingdagi pozitsiyasini cheklab turganini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonning 2025-yildagi natijalarini indeks tarkibidagi asosiy indikatorlar kesimida tahlil qilish mamlakatning sun'iy intellektga tayyorgarlik darajasini yanada chuqurroq baholash imkonini beradi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston eng yuqori natijalarni siyosiy majburiyat (87,5 ball), me'yoriy-huquqiy muvofiqlik (84,25 ball), boshqaruv tamoyillari (74 ball) hamda ma'lumotlar sifati (73,06 ball) yo'nalishlarida qayd etgan. Mazkur ko'rsatkichlar mamlakatda sun'iy intellektni rivojlantirish uchun zarur institutsional va normativ-huquqiy muhit shakllanib borayotganligini anglatadi. Ayniqsa, me'yoriy-huquqiy muvofiqlik va siyosiy

majburiyat bo'yicha yuqori natijalar sohada amalga oshirilayotgan davlat siyosatining izchil xarakter kasb etayotganidan dalolat beradi (2-rasm).

Bundan tashqari, elektron hukumat xizmatlari hamda hukumatning raqamli siyosati bo'yicha erishilgan natijalar davlat boshqaruvi tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy samarasini aks ettiradi. Mazkur omillar O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasida bir qator indikatorlar bo'yicha yetakchi pozitsiyalarni egallashiga xizmat qilgan.

Shu bilan birga, indeks tarkibidagi ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha sezilarli tafovutlar saqlanib qolmoqda. Xususan, hisoblash quvvati (5,84 ball), sun'iy intellekt sohasining rivojlanganlik darajasi (21,01 ball), xavfsizlik va muhofaza (33,33 ball), jamiyat transformatsiyasi (42,75 ball) hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining tarqalishi (45,14 ball) yo'nalishlarida qayd etilgan natijalar mamlakatning umumiy reytingdagi o'rniga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda (2-rasm).




2-rasm. Sun'iy intellekt tayyorgarligi bo'yicha O'zbekiston va TOP-10 davlatlar taqqoslama tahlili (2025-yil)

Manba: Oxford Insights ma'lumotlari asosida mualliflar hisob-kitoblari.

Ayniqsa, texnologik infratuzilma va yuqori unumdor hisoblash resurslari bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarning pastligi O‘zbekistonning rivojlangan davlatlar bilan mavjud tafovutlarini yaqqol namoyish etadi. Chunki sun‘iy intellekt texnologiyalarini yaratish va amaliyotga joriy etish jarayonlarining samaradorligi bevosita hisoblash quvvatlari, ma‘lumotlar markazlari, ilmiy-tadqiqot bazasi hamda innovatsion ekotizimning rivojlanganlik darajasiga bog‘liqdir.

Yuqoridagi tahlillar O‘zbekistonning sun‘iy intellekt sohasidagi institutsional va normativ-huquqiy yo‘nalishlarda muayyan yutuqlarga erishganligini ko‘rsatsa-da, texnologik va amaliy ko‘rsatkichlar bo‘yicha rivojlangan davlatlar bilan sezilarli tafovutlar mavjudligini ham namoyon etmoqda. Mazkur farqlarni yanada aniqroq baholash maqsadida O‘zbekiston natijalarini sun‘iy intellekt sohasida dunyoning yetakchi davlatlaridan biri bo‘lgan Xitoy ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash maqsadga muvofiqdir.



3-rasm. O‘zbekiston va Xitoyning sun‘iy intellekt tayyorgarligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha taqqoslama tahlili (2025)

Manba: *Oxford Insights ma‘lumotlari asosida mualliflar hisob-kitoblari.*

Taqqoslama tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayrim yo‘nalishlarda O‘zbekistonning natijalari Xitoy ko‘rsatkichlariga yaqinlashgan bo‘lsa, ayrim indikatorlar bo‘yicha sezilarli tafovutlar saqlanib qolmoqda. Xususan, me‘yoriy-huquqiy muvofiqlik ko‘rsatkichi bo‘yicha O‘zbekiston 84,25 ball bilan Xitoyning 82,28 balllik natijasidan yuqori ko‘rsatkichni qayd etgan. Shuningdek, elektron hukumat xizmatlari hamda ma‘lumotlar sifati bo‘yicha farq nisbatan katta emas (3-rasm). Biroq texnologik salohiyatni ifodalovchi asosiy indikatorlar bo‘yicha vaziyat boshqacha shakllanmoqda. Jumladan, hisoblash

quvvatlari bo‘yicha O‘zbekistonning ko‘rsatkichi 5,84 ballni tashkil etgan bo‘lsa, Xitoyda ushbu ko‘rsatkich 80,66 ballga teng. Xuddi shuningdek, sun‘iy intellekt sohasining rivojlanganlik darajasi, texnologiyalarning tarqalishi hamda xavfsizlik va muhofaza yo‘nalishlarida ham sezilarli tafovut kuzatiladi (3-rasm).

Mazkur holat O‘zbekistonda sun‘iy intellektni rivojlantirishning keyingi bosqichi, avvalo, normativ-huquqiy bazani takomillashtirishdan ko‘ra ko‘proq texnologik infratuzilmani mustahkamlash, ilmiy-tadqiqot faoliyatini kengaytirish, ma‘lumotlar markazlari va yuqori

unumdor hisoblash resurslarini rivojlantirish hamda innovatsion ekotizimni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning sun'iy intellektga tayyorgarlik bo'yicha xalqaro reytingdagi o'rni so'nggi yillarda sezilarli darajada yaxshilanib, mamlakatda ushbu sohani rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar ijobiy natijalar berayotganini ko'rsatmoqda. Bunda siyosiy majburiyat, me'yoriy-huquqiy muvofiqlik, boshqaruv tamoyillari hamda raqamli davlat xizmatlari yo'nalishlarida erishilgan yutuqlar muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Shu bilan birga, hisoblash quvvatlari, sun'iy intellekt infratuzilmasi, texnologiyalar tarqalishi va xavfsizlik mexanizmlarini yanada rivojlantirish zarurati saqlanib qolmoqda. **Mazkur yo'nalishlar bo'yicha mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish va xalqaro reytingdagi pozitsiyalarni yanada mustahkamlash maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:**

1. O'zbekistonning sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha xalqaro reytingdagi o'rnini yaxshilash maqsadida yillik tizimli monitoringni tashkil etish. Mas'ul ijrochi etib tegishli vakolatli tashkilotni belgilash hamda mutasaddi vazirliklar va idoralar ishtirokini inobatga olgan holda xalqaro reyting monitoringini yo'lga qo'yish;

2. O'zbekistonning xalqaro reytingdagi o'rnini yaxshilash maqsadida ishlab chiqilayotgan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi"da sun'iy intellektni rivojlantirish darajasi hamda xavfsizlik va muhofaza yo'nalishlari bo'yicha mavjud past ko'rsatkichlarni bartaraf etishga qaratilgan institutsional mexanizmlarni joriy etish, shu jumladan sun'iy intellekt maslahat kengashini hamda sun'iy intellekt xavfsizlik institutini tashkil etish. Mazkur tuzilmalarga strategik tavsiyalar ishlab chiqish, xavf-xatarlarni baholash, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash, etik va huquqiy me'yorlarni shakllantirish hamda davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish vazifalarini yuklash;

3. Maqsadli ko'rsatkichlar tizimida O'zbekistonning 2030-yilgacha xalqaro reytingdagi o'rnini TOP-50 mamlakatlar qatoriga kiritishni ta'minlash maqsadiga erishishda hisoblash quvvatlari, sun'iy intellektni rivojlantirish darajasi, xavfsizlik va texnologiyalar tarqalishi bo'yicha aniqlangan past ko'rsatkichlar uchun aniq maqsadli indikatorlarni belgilash va ularni bosqichma-bosqich yaxshilash. Shuningdek, barcha hududlarda ma'lumotlar bazasi markazlarini tashkil etish orqali ma'lumotlar infratuzilmasini kengaytirish hamda sun'iy intellekt infratuzilmasi (superkompyuterlar, bulutli provayderlar, serverlar va boshqa yuqori unumli hisoblash resurslari) quvvatlarini oshirish va ularning hududlar kesimida muvozanatli rivojlanishini ta'minlash;

4. Xalqaro reytingda O'zbekiston bo'yicha ma'lumotlar bazasining obyektivligini ta'minlash maqsadida kerakli ma'lumotlarni mamlakatning o'zidan olishni ta'minlash uchun Oxford Insights kompaniyasi bilan o'zaro hamkorlikni tashkil qilish;

5. Xalqaro reyting bilan ishlashda ilmiy salohiyat hamda amaliy faoliyat uyg'unligini ta'minlash maqsadida xalqaro va davlat grantlari asosida sun'iy intellektni rivojlantirish, uning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek turli xavf-xatarlarning oldini olishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot dasturini ishlab chiqish.

**O'zbekistonning sun'iy
intellektga tayyorgarlik
bo'yicha xalqaro reytingdagi
o'rni so'nggi yillarda sezilarli
darajada yaxshilanib,
mamlakatda ushbu sohani
rivojlantirish borasida amalga
oshirilayotgan islohotlar
ijobiy natijalar berayotganini
ko'rsatmoqda.**

Manba va adabiyotlar

1. *Oxford Insights (2025) Government AI Readiness Index 2025.* <https://oxfordinsights.com/ai-readiness/government-ai-readiness-index-2025/>
 2. *Thakur, S. (2025) What Drives AI Readiness? An Empirical Study of 155 Countries.* https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=5233141
 3. *Seini, A.B., Issah, M. and Adam, I.O. (2024) Examining the Effects of Technology Sector Maturity on Government AI Readiness in Africa: Does Human Capital Matter?* <https://ssrn.com/abstract=4979976>
 4. *Alalaq, A.S. (2025) The Oxford Insights Government AI Readiness Index (GARI): An Analysis of its Data and Overcoming Obstacles, with a Case Study of Iraq.* <https://arxiv.org/abs/2503.20833>
 5. *Stanford Institute for Human-Centered Artificial Intelligence (HAI) (2025) AI Index Report 2025.* Stanford University. <https://hai.stanford.edu/ai-index/2025-ai-index-report>
 6. *De la Torre, A., Yeyati, E.L. et al. (2026) Are We Ready for AI? From Measurement to Policy Governance.* Inter-American Development Bank. <https://publications.iadb.org/publications/english/document/Are-We-Ready-for-AI-From-Measurement-to-Policy-Governance.pdf>
-

Korporativ boshqaruv, sanoat, agrar va hududiy iqtisodiyot /
Корпоративное управление, промышленность, аграрная и региональная экономика /
Corporate governance, industry, agriculture and regional economy

УЎК: 657.1:004.9(575.1)

Shaxnoza ABLAKULOVA,

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining

Samarqand filiali talabasi (O'zbekiston),

E-mail: shakhn0zaablakulovaa@gmail.com

Ibragim G'ANIYEV,

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent,

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Samarqand filiali (O'zbekiston),

E-mail: Ganiyevim@yandex.com

GILAM ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA MAHSULOT
TANNARXINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI VA
TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada gilam ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot tannarxini shakllantirish metodologiyasi "Asia Carpet Textile" MChJ misolida tadqiq etildi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi korxona ma'lumotlarini oddiy tasvirlash bilan cheklanmasdan, jarayon kalkulyatsiyasi, me'yoriy sarf tahlili, og'ishmalar tahlili, valyuta kursi sezgirligi va bilvosita xarajatlarni mashina-soat asosida taqsimlash yondashuvlarini integratsiyalashgan metodik model sifatida taklif etilganidir. "ZG" markali gilamning 1 m² tannarx kalkulyatsiyasi bo'yicha bevosita moddiy xarajatlar ulushi 94,61% ekani, importga sezgir material va logistika xarajatlari ulushi 93,3% darajasida shakllangani, 12,0% qayta tiklanmaydigan texnologik chiqindi mavjudligi aniqlandi. Tahlil natijasida valyuta kursi 10% o'sishi yalpi foyda marjasini 21,83% dan 14,94% gacha pasaytirishi, chiqindini 1 foiz punktga kamaytirish esa yiliga taxminan 1,19 mlrd so'mgacha tejamkorlik salohiyatini yuzaga keltirishi hisoblab chiqildi.*

Kalit so'zlar: *tannarx kalkulyatsiyasi, gilam ishlab chiqarish, me'yoriy sarf, og'ishma tahlili, bilvosita xarajatlar, mashina-soat; valyuta xavfi, texnologik chiqindi.*

Методология формирования себестоимости продукции на ковровых предприятиях и пути её совершенствования

Шахноза Аблакулова,

студент Самаркандского филиала

Ташкентского государственного

экономического университета,

Ибрагим Ганиев,

кандидат экономических наук,

доцент Самаркандского филиала

Ташкентского государственного

экономического университета

Аннотация. *В статье исследована методология формирования себестоимости продукции на ковровых предприятиях на примере ООО "Asia Carpet Textile". Научный результат заключается в разработке интегрированной модели калькулирования, объединяющей попроцессный метод, нормативный анализ расхода сырья, анализ отклонений, оценку валютной чувствительности и распределение косвенных расходов на основе машино-часов. Расчёты показали, что рост валютного курса на 10% снижает валовую маржу с 21,83%*

до 14,94%, а сокращение отходов на 1 п.п. даёт годовой экономический эффект около 1,19 млрд сумов.

Ключевые слова: калькуляция себестоимости, ковровое производство, нормативный расход, анализ отклонений, косвенные расходы, машино-часы, валютный риск.

Methodology of product cost formation in carpet manufacturing enterprises and ways to improve it: a case study of asia carpet textile llc

Shakhnoza Ablakulova,
student at Samarkand Branch of Tashkent State University of Economics,
Ibragim Ganiyev,
Associate professor, Samarkand branch of Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article examines product cost formation in carpet manufacturing enterprises based on the case of “Asia Carpet Textile” LLC. The study proposes an integrated costing model combining process costing, standard consumption analysis, variance analysis, currency sensitivity assessment, and machine-hour-based allocation of production overheads. The analysis of the “ZG” carpet shows that direct material costs account for 94.61% of production cost, import-sensitive materials represent 93.3% of the material block, and non-recoverable waste equals 12.0%. A 10% depreciation scenario reduces gross profit margin from 21.83% to 14.94%, while reducing waste by one percentage point generates annual savings of approximately UZS 1.19 billion.*

Keywords: *product costing, carpet manufacturing, standard consumption, variance analysis, overhead allocation, machine hours, currency risk.*

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish korxonalarining raqobatbardoshligi mahsulot tannarxini aniq hisoblash, xarajatlarni tahliliy

boshqarish va narx siyosatini iqtisodiy asoslash darajasiga bevosita bog'liq. Tannarx faqat buxgalteriya ko'rsatkichi emas, balki ishlab chiqarish texnologiyasi, resurslardan foydalanish sifati, logistika shartlari, boshqaruv nazorati va investitsion qarorlarning jamlangan iqtisodiy ifodasidir [1, 3]. Shu sababli mahsulot tannarxini shakllantirish metodologiyasining puxta ishlab chiqilishi sanoat korxonalarida moliyaviy barqarorlik va rentabellikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston va uning hududlarida to'qimachilik sanoati iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib qolmoqda. Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, 2025-yil yanvar–fevral oylarida viloyat sanoatida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 20,6%, fizik hajm indeksi 106,7%, ishlab chiqarish hajmi esa 1186,0 mlrd so'mni tashkil etgan [11]. Shu davrda respublika bo'yicha to'qimachilik mahsulotlari eksporti 403,7 mln AQSh dollariga teng bo'lib, uning tarkibida gilam mahsulotlari 3,4 mln AQSh dollarini tashkil etgani qayd etilgan [12]. Ushbu yangilangan statistik fon gilam ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni zamonaviy metodologiya asosida hisoblash zarurligini yanada kuchaytiradi.

Gilam ishlab chiqarishning texnologik xususiyatlari—ip sarfining dizayn bilan bog'liqligi, to'qish jarayonining avtomatlashtirilishi, yelimlash-quritish-kesish bosqichlarida energiya sarfi, shuningdek, qirqish jarayonida qayta tiklanmaydigan chiqindilarning paydo bo'lishi – tannarx hisobini oddiy xarajatlar yig'indisi sifatida emas, balki jarayonlar bo'yicha boshqariladigan tizim sifatida tashkil etishni talab qiladi.

Tadqiqotning maqsadi “Asia Carpet Textile” MChJ misolida “ZG” markali gilam mahsulotining 1 m² tannarxini jarayon kalkulyatsiyasi va me'yoriy-og'ishma tahlili asosida baholash hamda tannarxni takomillashtirishga xizmat qiluvchi amaliy metodik model ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: birinchidan, tannarxni shakllantiruvchi moddiy, mehnat va bilvosita xarajatlar tarkibini ajratish; ikkinchidan, xarajat elementlarining ulushi

va sezgirligini hisoblash; uchinchi, mavjud kalkulyatsiya tizimidagi metodologik bo'shliqlarni aniqlash; to'rtinchi, chiqindi, valyuta xavfi va bilvosita xarajatlar taqsimotini optimallashtirish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Tannarxni shakllantirish masalasi buxgalteriya hisobi, boshqaruv hisobi va ishlab chiqarish iqtisodiyoti kesishmasida o'rganiladi. IAS (International Accounting Standards) 2 "Inventories" standartida zaxiralar tannarxi xarid xarajatlari, qayta ishlash xarajatlari hamda zaxiralarni hozirgi joyi va holatiga keltirish uchun zarur boshqa xarajatlarni qamrab olishi belgilangan [4]. O'zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobining milliy standarti (4-sonli BHMS)ning "Tovar-moddiy zaxiralar" standarti ham tovar-moddiy zaxiralarning tan olinishi, baholanishi va tannarxga kiritiladigan xarajatlarni aniqlashni tartibga soladi [3].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibi uchun asosiy milliy metodologik hujjat hisoblanadi [2]. Kalonov, Ortiqov, Babaxalov va Ergashevlar tayyor mahsulot va tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishda xarajatlarni to'g'ri klassifikatsiya qilish zarurligini asoslaydi [5].

Xorijiy boshqaruv hisobi adabiyotlarida tannarx hisoblashning uch asosiy yo'nalishi keng tahlil qilingan. Drury [7] uzluksiz va bir turdagi mahsulot ishlab chiqarish sharoitida jarayon kalkulyatsiyasi eng maqbul yondashuv ekanligini ta'kidlaydi. Horngren, Datar va Rajan [6] me'yoriy xarajat tizimi doirasida haqiqiy xarajatlar bilan me'yoriy ko'rsatkichlar o'rtasidagi og'ishmalarni alohida hisoblash boshqaruv nazoratining muhim vositasi ekanini ko'rsatadi. Kaplan va Anderson [8] tomonidan ishlab chiqilgan vaqtga asoslangan faoliyat kalkulyatsiyasi (TDABC) esa bilvosita xarajatlarni umumiy hajmga emas, balki resurs iste'mol qiluvchi vaqt drayverlariga bog'lash imkonini beradi. Zimmerman [9] boshqaruv hisobida xarajatlarni to'g'ri taqsimlash boshqaruv qarorlari sifatiga bevosita ta'sir qilishini ta'kidlaydi.

Mavjud ilmiy manbalar tannarx nazariyasini yetarli darajada yoritgan bo'lsa-da, gilam ishlab chiqarish korxonalarida ip sarfi, dizayn, avtomatlashtirilgan to'qish, qirqish chiqindilari, import xom ashyo va energiya sarfi bir tizimda integratsiyalashgan holda kam o'rganilgan. Shu jihatdan ushbu maqola korxona ichki kalkulyatsiyasini ilmiy tahlil bilan bog'lab, moddiy-intensiv gilam ishlab chiqarish uchun amaliy takomillashtirish modelini taklif etadi.

1-jadval

Adabiyotlar sharhi bo'yicha konseptual xulosalar

Muallif/manba	Asosiy ilmiy g'oya	Mazkur tadqiqotga tatbiqi
IAS 2 [4]	Zaxiralar tannarxi xarid, qayta ishlash va hozirgi holatga keltirish xarajatlarini qamrab oladi.	Import xom ashyo, transport-logistika va ishlab chiqarish ustama xarajatlari tannarxga kiritildi.
4-son BHMS [3]	Tovar-moddiy zaxiralar tan olinishi, baholanishi va hisobotda aks ettirilishi tartibga solinadi.	"ZG" gilamining moddiy xarajatlari me'yoriy va pul o'lchovida baholandi.
Kalonov va boshq. [5]	Tayyor mahsulot tannarxi ishlab chiqarish xarajatlari klassifikatsiyasiga bog'liq.	Bevosita material, mehnat, ajratma va bilvosita xarajatlar alohida guruhlandi.
Drury [7]	Jarayon kalkulyatsiyasi uzluksiz ishlab chiqarish uchun maqbul usuldir.	Gilam ishlab chiqarish 4 bosqichli jarayon sifatida kalkulyatsiya qilindi.
Horngren va boshq. [6]	Og'ishmalar tahlili boshqaruv nazoratining diagnostik vositasidir.	MUV, MPV va energetik og'ishmalar uchun nazorat modeli ishlab chiqildi.
Kaplan va Anderson [8]	Bilvosita xarajatlar resurs iste'moli drayverlari asosida taqsimlanishi lozim.	m ² bilan birga mashin-soat drayverini qo'llash taklif etildi.

Manba: adabiyotlar tahlillari asosida mualliflar ishlanmasi.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi

Tadqiqot obyekti sifatida Samarqand tumanida faoliyat yurituvchi “Asia Carpet Textile” MChJning “ZG” markali gilam mahsuloti tanlandi. Tahlil birligi – 1 m² tayyor gilam mahsuloti. Tadqiqotda korxonaning ichki buxgalteriya kalkulyatsiyalari, me’yoriy sarf varaqalari, ishlab chiqarish texnologik tavsiflari, energiya va gaz sarfi bo’yicha hisob-kitoblar, asosiy vositalar amortizatsiyasi, ishlab chiqarish hajmi va sotish bahosi ma’lumotlaridan foydalanildi. Barcha qiymat ko’rsatkichlari O’zbekiston so’mda ifodalandi.

Metodologik yondashuv quyidagi bosqichlardan iborat: 1) jarayon kalkulyatsiyasi orqali xarajatlarni ishlab chiqarish bosqichlari bo’yicha ajratish; 2) vertikal tahlil yordamida xarajat elementlari ulushini aniqlash; 3) me’yoriy va haqiqiy sarf o’rtasidagi og’ishmalarni nazorat qilish uchun formulalar tizimini shakllantirish; 4) importga sezgir xarajatlar bo’yicha valyuta kursi sezgirligini baholash; 5) chiqindilarni kamaytirishning iqtisodiy samarasini hisoblash; 6) bilvosita xarajatlarni faqat m² asosida emas, mashin-soat asosida ham taqsimlash bo’yicha taklif ishlab chiqish.

Jarayon kalkulyatsiyasi quyidagi umumiy mantiqqa asoslandi:

$$Tm^2 = (MX + MH + BX) / Q$$

Bu yerda: Tm^2 – 1 m² mahsulot tannarxi; MX – material xarajatlari; MH – mehnat xarajatlari; BX – bilvosita ishlab chiqarish xarajatlari; Q – ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, m².

Me’yoriy-og’ishma tahlili uchun: Material sarfi og’ishmasi $MUV = (AQ - SQ) \times SP$; Material narxi og’ishmasi $MPV = (AP - SP) \times AQ$; Valyuta sezgirligi $\Delta C = Cimp \times \Delta e$ formulalari bilan asoslandi. Bu yerda: AQ – haqiqiy sarf, SQ – me’yoriy sarf, AP – haqiqiy narx, SP – me’yoriy narx, Cimp – importga sezgir xarajatlar bloki, Δe – valyuta kursi o’zgarish foizi.

Tadqiqot IAS 2 “Inventories” [4] xalqaro moliyaviy hisobot standarti va O’zbekiston Respublikasining 4-sonli BHMS [3] normalariga asoslanadi. Tadqiqot cheklovi shundan iboratki, hisob-kitoblar bitta korxona va bitta mahsulot turi misolida bajarilgan; natijalar butun gilam sanoati uchun to’liq umumlashtirilmaydi, biroq taklif etilgan metodologik model o’xshash texnologik jarayonga ega korxonalarda moslashtirish orqali qo’llanishi mumkin.

2-jadval

Tadqiqot metodologiyasining amaliy algoritmi

Bosqich	Amalga oshiriladigan tahlil	Natijaviy ko’rsatkich
1	Kalkulyatsiya obyekti tanlash: “ZG” gilami, 1 m ²	Tahlil birligi aniqlanadi
2	Xom ashyo va material sarfini me’yoriy jismoniy ko’rsatkichlarda baholash	kg/m ² va so’m/m ² qiymatlari shakllanadi
3	Bevosita va bilvosita xarajatlarni ajratish	Tannarxning tarkibiy tuzilmasi aniqlanadi
4	Vertikal tahlil	Har bir xarajat elementi ulushi topiladi
5	Valyuta va chiqindi sezgirligi	Risk va tejamkorlik salohiyati hisoblanadi
6	Takomillashtirish modeli	MUV, MPV, mashina-soat va waste-control mex-anizmlari taklif qilinadi

Manba: tadqiqotlar asosida mualliflar ishlanmasi.

Tahlil va natijalar

“Asia Carpet Textile” MChJda gilam ishlab chiqarish jarayoni to’rt bosqichdan iborat: (1) iplarni tayyorlash va dastgohga o’rnatish – Booria dasturi yordamida belgilangan me’yoriy sarf

asosida; (2) GES elektron boshqaruvli to’qish – to’qish tezligi, ip sarfi va ishlab chiqarish hajmi elektron tarzda kuzatiladi; (3) yarim tayyor gilamni texnologik tekshirish va sifat nazorati; (4) lak sexida yelimlash, quritish, qirqish, overlaklash,

etiketkalash (yorliq yopishtirish) va qadoqlash. Mazkur bosqichlarning har biri tannarxga turlicha ta'sir qiladi: birinchi va ikkinchi bosqichlar bevosita material sarfiga, to'rtinchi bosqich energiya, gaz, yelim va chiqindilar ulushiga ko'proq ta'sir etadi.

Korxonada Booria dizayn dasturi va GES elektron boshqaruv tizimi qo'llanilishi material sarfini oldindan normallashtirish imkonini beradi. Biroq normativ sarf mavjudligi o'z-o'zidan

boshqaruv samaradorligini ta'minlamaydi: me'yoriy ma'lumotlar real vaqt yoki oy yakuni bo'yicha haqiqiy sarf bilan solishtirilmasa, og'ishmalar boshqaruv qaroriga aylantirilmaydi. Shu sababli ushbu tadqiqotda tannarxni takomillashtirishning markaziy yo'nalishi sifatida "me'yoriy kalkulyatsiya + og'ishma tahlili + jarayon kalkulyatsiyasi" integratsiyasi taklif etildi.

3-jadval

"ZG" markali gilam bo'yicha 1 m² moddiy xarajatlar me'yori

№	Xom ashyo va materiallar	O'lchov	Me'yoriy sarf	Birlik narxi, so'm	Qiymati, so'm/m ²
1	Jut kalava ipi	kg	0,930	12 476,61	11 603,25
2	Heat-set polipropilen ip	kg	1,447	19 320,82	27 957,23
3	Sintetik shurtli kompleks ip	kg	0,478	19 774,00	9 451,97
4	Qattiq holatdagi yelim	kg	0,005	32 469,50	162,35
5	Yelim lateks	kg	0,200	11 400,00	2 280,00
6	To'qilgan tasma	kg	0,030	40 751,76	1 222,55
7	Transport, bo'xona va tayyorlash xarajatlari	so'm	—	—	2 047,26
	Jami bevosita moddiy xarajatlar		3,091 kg	—	54 724,61

Manba: "Asia Carpet Textile" MChJ buxgalteriya ma'lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi.

3-jadvaldan ko'rinadiki, 1 m² "ZG" gilami uchun asosiy xom ashyo sarfi 3,091 kgni tashkil qiladi. Tayyor mahsulot og'irligi 2,72 kg bo'lgani sababli qayta tiklanmaydigan texnologik chiqindi ulushi quyidagicha aniqlanadi:

Chiqindi ulushi = $(3,091 - 2,72) / 3,091 \times 100 = 12,0\%$.

Bu ko'rsatkich oddiy tavsifiy raqam sifatida emas, balki boshqaruv obyektiga aylantirilishi lozim, chunki har bir foiz punkt chiqindi kamayishi moddiy xarajatlarni bevosita qisqartiradi.

Importga sezgir xarajatlar blokini alohida ajratish metodologik jihatdan muhimdir. Jut kalava ipi, heat-set polipropilen ip, sintetik kompleks ip va ularga bog'liq transport-bo'xona xarajatlari jami 51 059,71 so'm/m² ni tashkil etadi. Bu bevosita moddiy xarajatlarning 93,3% iga teng. Demak, korxona tannarxining asosiy riski faqat material sarfi emas, balki valyuta kursi, import logistika narxlari va yetkazib berish muddatlari bilan bog'liq.

4-jadval

"ZG" markali gilam bo'yicha bilvosita ishlab chiqarish xarajatlari

№	Xarajat turi	Hisoblash tartibi	Qiymati, so'm/m ²
1	Asosiy vositalar amortizatsiyasi	$863\,171\,600 \times 20\% / 12 / 161\,400$	89,13
2	Bino ijarasi	$47\,930\,595 / 161\,400$	296,97
3	Elektr energiya	$200\,000\text{ kVt} \times 850 / 161\,400$	1 053,28
4	Gaz xarajati	$70\,000\text{ m}^3 \times 1\,607,14 / 161\,400$	697,02
	Jami bilvosita ishlab chiqarish xarajatlari		2 136,40

Manba: mualliflar tomonidan korxona hisob-kitob hujjatlari asosida tizimlashtirildi.

4-jadval bo'yicha bilvosita xarajatlarning eng katta qismi elektr energiyasi va gaz xarajatlariga to'g'ri keladi. Ularning jami bilvosita xarajatlardagi ulushi 81,9%ni tashkil qiladi. Bu natija tannarxni pasaytirish takliflari umumiy qoidalar bilan emas,

energiya tejamkor rejimlar, gaz sarfi monitoringi va dastgoh yuklamasini optimallashtirish kabi aniq operatsion choralar bilan bog'lanishi kerakligini ko'rsatadi.

5-jadval

“ZG” markali gilam bo'yicha 1 m² ishlab chiqarish tannarxi tuzilmasi

№	Xarajat elementi	Qiymati, so'm/m ²	Ulushi, %
1	Bevosita moddiy xarajatlar	54 724,61	94,61
2	Bevosita mehnat xarajatlari	2 337,16	4,04
3	Mehnatga oid ajratmalar	280,46	0,48
4	Boshqa ishlab chiqarish ustama xarajatlari	500,00	0,87
	Jami ishlab chiqarish tannarxi	57 842,23	100,00
5	Sotish bahosi	74 000,00	—
6	1 m ² bo'yicha yalpi foyda	16 157,77	—

Manba: “Asia Carpet Textile” MChJ buxgalteriya ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

5-jadval tannarxning material-intensiv xususiyatini tasdiqlaydi: bevosita moddiy xarajatlar 94,61%ni tashkil etmoqda. Bu holatda tannarxni takomillashtirishning asosiy yo'nalishi mehnat xarajatlari qisqartirish emas, balki xom ashyo narxi, sarf normasi, chiqindilar, import logistika va energiya xarajatlari boshqarishdan iborat bo'lishi kerak.

Rentabellik ko'rsatkichlarini aniq ajratish zarur: yalpi foyda marjasi = $16\,157,77 / 74\,000 \times 100 = 21,83\%$; tannarx rentabelligi = $16\,157,77 / 57\,842,23 \times 100 = 27,94\%$. Bu ikki ko'rsatkichni

aralash ishlatish xulosa noto'g'ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin.

Valyuta kursi sezgirligi bo'yicha hisob-kitob: importga sezgir xarajatlar 51 059,71 so'm/m² bo'lsa, 10% kurs o'sishi tannarxni 5 105,97 so'mga oshiradi. Yangi tannarx 62 948,20 so'm/m² ga teng bo'ladi. Narx o'zgarmagan holda yalpi foyda marjasi 21,83% dan 14,94% gacha, tannarx rentabelligi esa 27,94% dan 17,56% gacha pasayadi. Bu natija valyuta xavfini boshqarishni ixtiyoriy emas, balki strategik zarurat sifatida ko'rsatadi.

6-jadval

Chiqindini kamaytirish bo'yicha iqtisodiy samara modeli

Variant	Chiqindi ulushi	Zarur xom ashyo, kg/m ²	Tejam, so'm/m ²	Yillik tejam, so'm
Amaldagi holat	12,0%	3,091	—	—
1-variant	11,0%	3,056	616,47	1 193 988 149
2-variant	10,0%	3,022	1 217,68	2 358 395 221

Manba: “Asia Carpet Textile” MChJ buxgalteriya ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Izoh: hisob-kitobda oylik ishlab chiqarish hajmi 161 400 m², yillik hajm 1 936 800 m² deb olindi.

6-jadvaldan ko'rinadiki, chiqindini 12,0% dan 11,0% gacha kamaytirishning o'zi yiliga taxminan 1,19 mlrd so'mlik tejamkorlik salohiyatini yuzaga keltiradi. Bu taklif umumiy “chiqindini kamaytirish kerak” degan xulosa emas, balki aniq iqtisodiy natijaga ega boshqaruv qaroridir.

Amaliy jihatdan bunga qirqish pichoqlarini kalibrlash, chekka qirqimlarni alohida yig'ish, past zichlikdagi yordamchi mahsulotlar ishlab chiqarishda qayta ishlash, dizayn bosqichida ip sarfi chegaralarini optimallashtirish orqali erishish mumkin.

Tannarxni takomillashtirish bo'yicha mualliflik metodik modeli

Tadqiqot natijasida “Asia Carpet Textile” MChJ va shunga o'xshash gilam ishlab chiqarish korxonalari uchun besh blokli metodik model

taklif etildi. Modelning mohiyati tannarxni hisobot ko'rsatkichi sifatida yakunida qayd etish emas, balki ishlab chiqarish jarayoni davomida nazorat qilinadigan boshqaruv indikatorlari tizimiga aylantirishdan iborat.

7-jadval

Tannarxni takomillashtirishning besh blokli modeli

Blok	Muammo	Taklif etilgan yechim	Kutiladigan natija
1. Me'yoriy sarf	Norma va haqiqiy sarf solishtirilmaydi.	MUV va MPV bo'yicha oylik og'ishma reyestri yuritish.	Material sarfi va narx og'ishmalari tez aniqlanadi.
2. Chiqindi	12,0% chiqindi tannarxga bosim qiladi.	Qirqish chiqindisini alohida o'lchash, qayta ishlash va limitlash.	1 foiz punkt qisqarish yiliga ~1,19 mlrd so'm tejam beradi.
3. Valyuta xavfi	Importga sezgir xarajatlar 93,3%.	Valyuta tushumi va import to'lovlarini moslashtirish, yetkazib beruvchilarni diversifikatsiya qilish.	Kurs tebranishi ta'siri pasayadi.
4. Bilvosita xarajat	m ² asosidagi taqsimot turli zichlikdagi mahsulotlarni buzib ko'rsatadi.	Elektr, gaz va amortizatsiyani mashin-soat drayveri bilan parallel hisoblash.	Tannarx mahsulot turlari bo'yicha adolatliroq taqsimlanadi.
5. Raqamli nazorat	Booria/GES ma'lumotlari boshqaruv hisobotiga to'liq ulanmagan.	GES ma'lumotlarini buxgalteriya kalkulyatsiyasi bilan integratsiya qilish.	Haqiqiy sarf, vaqt va quvvatdan foydalanish bo'yicha operativ nazorat kuchayadi.

Manba: tadqiqotlar asosida mualliflar ishlanmasi.

Mazkur modelning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, u korxona ma'lumotlarini shunchaki bayon etmaydi, balki ularni boshqaruv hisobining aniq usullari bilan bog'laydi. Natijada tadqiqot nomida ko'rsatilgan “tannarxni shakllantirish metodologiyasi va uni takomillashtirish” mazmunan asoslanadi: metodologiya – jarayon kalkulyatsiyasi, me'yoriy-og'ishma tahlili, valyuta sezgirligi va mashina-soat taqsimoti; takomillashtirish – chiqindi, import riski, bilvosita xarajat va raqamli nazorat bo'yicha operatsion choralardan iborat.

Bilvosita xarajatlarni taqsimlash bo'yicha taklifni alohida ta'kidlash lozim. Hozirgi m² asosidagi taqsimot sodda va amaliy bo'lsa-da, gilam zichligi, dizayn murakkabligi va to'qish tezligi har xil bo'lgan mahsulotlarda xatolik keltirib chiqaradi. Shuning uchun har bir mahsulot turi bo'yicha GES tizimida qayd etiladigan mashina-soatlar yig'ilib, elektr energiyasi, amortizatsiya va xizmat ko'rsatish xarajatlarni quyidagi mantiq bilan taqsimlash tavsiya etiladi:

mahsulotga tegishli bilvosita xarajat = umumiy bilvosita xarajat × mahsulot mashina-soati/jami mashina-soat.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan tadqiqot “Asia Carpet Textile” MChJ misolida gilam mahsuloti tannarxini shakllantirish jarayoni material-intensiv, importga sezgir va texnologik chiqindilarga bog'liq ekanligini aniqladi. “ZG” markali gilam bo'yicha bevosita moddiy xarajatlar 54 724,61 so'm/m² yoki jami ishlab chiqarish tannarxining 94,61%ini tashkil etdi.

Tadqiqot natijasida korxona ma'lumotlaridan kelib chiqadigan aniq ilmiy natijalar shakllantirildi: 12,0% qayta tiklanmaydigan chiqindi iqtisodiy jihatdan o'lchandi; importga sezgir xarajatlar bloki 93,3% darajasida ajratildi; 10% valyuta kursi o'sishi yalpi foyda marjasini 21,83% dan 14,94% gacha pasaytirishi hisoblandi; chiqindini 1 foiz punktga kamaytirish yiliga taxminan 1,19 mlrd so'mlik iqtisodiy samara berishi asoslandi. Demak, maqolada keltirilgan xulosalar tadqiqot

nomiga bevosita mos: ular tannarxni shakllantirish metodologiyasini aniqlashtiradi va uni takomillashtirish yo'llarini miqdoriy asoslaydi.

Amaliy takliflar quyidagilardan iborat: birinchidan, GES tizimidagi haqiqiy sarf ma'lumotlari bilan kalkulyatsiyadagi me'yoriy sarflar o'rtasida MUV va MPV asosidagi oylik og'ishma tahlili joriy etilishi lozim; ikkinchidan, qirqish chiqindilarini alohida hisobga olish va qayta ishlash mexanizmi ishlab chiqilishi kerak; uchinchidan, import xom ashyo bo'yicha valyuta xavfi tabiiy hedjirlash, yetkazib beruvchilarni diversifikatsiya qilish va narx shartlarini muddatli

kelishuvlar orqali boshqarilishi zarur; to'rtinchidan, bilvosita xarajatlarni m² bilan bir qatorda mashina-soat asosida ham taqsimlash sinov tariqasida joriy etilishi maqsadga muvofiq; beshinchidan, Booria va GES ma'lumotlari buxgalteriya kalkulyatsiyasi bilan integratsiya qilinib, boshqaruv hisobotlari avtomatlashtirilishi lozim.

Kelgusidagi tadqiqotlarda ushbu modelni bir nechta gilam turi va bir nechta korxona misolida sinovdan o'tkazish, mahsulot zichligi, dizayn murakkabligi va mashina-soat o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik baholash maqsadga muvofiq.

Manba va adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. 13.04.2016-y., O'RQ-404-son. – Lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom. – Lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (4-sonli BHMS) "Tovar-moddiy zaxiralar". O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2020-yil 28-maydagi 24-son buyrug'i, ro'yxat raqami 3259. – Lex.uz.
4. International Accounting Standards Board. IAS 2 Inventories. IFRS Foundation, 2024.
5. Kalonov M.B., Ortiqov X.A., Babaxalov N.E., Ergashev Sh.T. Buxgalteriya hisobi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Zamin nashr, 2022. – 774 b.
6. Horngren C.T., Datar S.M., Rajan M.V. Cost Accounting: A Managerial Emphasis. 16th ed. – New Jersey: Pearson, 2021.
7. Drury C. Management and Cost Accounting. 10th ed. – London: Cengage Learning, 2018.
8. Kaplan R.S., Anderson S.R. Time-Driven Activity-Based Costing // Harvard Business Review. – 2004. – Vol. 82(11). – P. 131–138.
9. Zimmerman J.L. Accounting for Decision Making and Control. 9th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2020.
10. Tashnazarov S.N. Moliyaviy buxgalteriya hisobi 1: darslik. – Samarqand: "STEP-SEL" MChJ nashriyoti, 2023. – 580 b.
11. Samarqand viloyati statistika boshqarmasi. Samarqand viloyatining to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati. 09.04.2025. – www.samstat.uz.
12. Samarqand viloyati statistika boshqarmasi. O'zbekiston 2 oyda 403,7 mln AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksport qilgan. 16.04.2025. – www.samstat.uz.
13. "Asia Carpet Textile" MChJ. "ZG" markali gilam mahsuloti bo'yicha ichki buxgalteriya kalkulyatsiyasi va texnologik hujjatlar. – Samarqand tumani, 2025.
14. Booria Software. Carpet Design Automation: User Manual and Technical Reference. – Technical documentation.
15. Groz-Beckert Electronics System. Electronic Carpet Weaving Control Units: Technical documentation. – Albstadt, Germany.

Ijtimoiy masalalar, fan, ta'lim va kambag'allikni qisqartirish /
Социальные вопросы, наука, образование и сокращение бедности /
Social issues, science, education, and poverty reduction

УЎК: 338.48.368.9(575.1)

Найля ИБРАГИМОВА,
PhD (по экономическим наукам),
руководитель проекта Института
макроэкономических и региональных исследований (Узбекистан),
E-mail: nibragimova@ifmr.uz

ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РАСШИРЕНИЯ МЕДИЦИНСКОГО И
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В статье оценивается текущее состояние и перспективные направления развития медицинского и образовательного туризма в Узбекистане. Цель исследования заключается в выявлении ключевых факторов экспорта медицинских и образовательных услуг в рамках гравитационной модели, а также в разработке предложений по расширению присутствия Узбекистана на международных рынках данных услуг, включая развитие экспортно-ориентированных учреждений, международную аккредитацию, формирование национальных брендов и систем продвижения на внешних рынках.

Ключевые слова: экспорт услуг, медицинский туризм (поездки с целью лечения), образовательный туризм (деятельность ночующих посетителей и экскурсантов, для которых основная цель образование и обучение), международные пациенты, иностранные студенты, стратегия «Узбекистан – 2030».

O'zbekistonda tibbiy va ta'lim turizmi
xizmatlarini kengaytirishdagi
qiyinchiliklar va imkoniyatlar

Naylya Ibragimova,
PhD (iqtisodiyot fanlari bo'yicha),
Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti
loyiha rahbari

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda tibbiy va ta'lim turizmining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning maqsadi tortishish modeli doirasida tibbiy va ta'lim xizmatlari eksportining asosiy omillarini aniqlash va O'zbekistonning ushbu xizmatlar uchun xalqaro bozorlardagi ishtirokini kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, jumladan, eksportga yo'naltirilgan institutlarni rivojlantirish, xalqaro akkreditatsiya va xorijiy bozorlarda milliy brendlar va reklama tizimlarini rivojlantirishdir.

Kalit so'zlar: xizmatlar eksporti, tibbiy turizm, ta'lim turizmi, xalqaro bemorlar, xalqaro talabalar, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi.

Challenges and opportunities for expanding medical and educational tourism in Uzbekistan

Naylya Ibragimova,
PhD (in Economics),
Head of project, Institute for macroeconomic and regional studies

Abstract. This article examines current trends and prospects for the development of medical and educational tourism in Uzbekistan. The purpose of the study is to identify key factors of attracting international patients and students within the gravity model and to develop proposals for expanding

Uzbekistan's presence in international markets for these services, including the development of export-oriented institutions, international accreditation, development of national brands and promotion systems in foreign markets.

Keywords: *services exports, medical tourism, educational tourism, international patients, international students, Uzbekistan 2030 strategy.*

Введение

Экспорт медицинского и образовательного туризма и услуг является одним из перспективных направлений наращивания экспорта услуг с высокой добавленной стоимостью и диверсификации экономики Узбекистана.

В настоящее время экспорт медицинских и образовательных услуг в Узбекистане находится на ранней стадии формирования и достиг 56,4 млн долл. Высокие темпы роста в целом за период 2017–2025 гг. (рост образовательного туризма составил 11,3 раза, а рост медицинского туризма – 12,3 раза) отражают эффект низкой базы. Вместе с тем, целевые ориентиры Стратегии «Узбекистан – 2030» предусматривают увеличение экспорта в сфере медицинского и образовательного туризма до 0,5 млрд долл. в 2026 г. и до 1,5 млрд долл. к 2030 г. (с текущих 56,4 млн долл.). При этом государством обозначены ориентиры по увеличению экспорта медицинского туризма, что свидетельствует о признании стратегической важности направления. От экспорта одних только услуг медицинского туризма можно выручить 300 миллионов долларов в год.¹

Цель исследования состоит в оценке современного состояния и факторов, определяющих конкурентоспособность экспорта медицинских и образовательных услуг в Узбекистане, а также изучении возможностей наращивания экспортной выручки на основе международного опыта, а также в разработке механизмов поддержки, направленных на достижение целевых параметров экспорта медицинского и образовательного туризма к 2030 году.

Методология исследования базируется на структурном анализе данных Национального комитета Республики Узбекистан по статистике, за 2017–2025 гг. (экспорт услуг, количество поездок, расходы на одного пациента/студента), данных Всемирного банка о валовом внутреннем продукте и численности населения стран-доноров, а также базы данных CEPII Gravity Database. В исследовании использованы методы экономико-статистического и эконометрического анализа, а также сопоставления цен на медицинские и образовательные услуги. На основе данных о динамике численности иностранных студентов и пациентов, объёмах медицинского и образовательного туризма проведён сравнительный анализ международной студенческой мобильности и медицинского туризма, туристические поступления на одного международного туриста.

Для проведения эконометрического анализа использована выборка данных по 102 странам для международного медицинского туризма и по 58 странам для анализа международной образовательной мобильности в Узбекистане. Для количественной оценки влияния ВВП стран-доноров, расстояния и ценовых факторов на объёмы туристических потоков применена расширенная гравитационная модель с включением фактора ценовой конкурентоспособности. Потребитель (пациент или студент) максимизирует полезность при бюджетном ограничении, сравнивая «полную стоимость» поездки в разные страны: цену услуги в стране-реципиенте, транспортные издержки (прокси-расстояние), альтернативные издержки времени и транзакционные издержки поиска информации. Расширенная гравитационная модель с включением фактора ценовой конкурентоспособности имеет вид: $\ln(F_{ij}) = \beta_0 + \beta_1 * \ln(GDP_i) + \beta_2 * \ln(Pop_i) + \beta_3 * \ln(D_{ij}) + \beta_4 * \ln(P_j) + \beta_5 * Language_{ij} + \beta_6 * Visa_{ij} + \varepsilon_{ij}$, где: F_{ij} – экспорт услуг из Узбекистана, GDP_i – ВВП страны-донора, Pop_i – численность населения страны-донора, D_{ij} – расстояние до страны i , P_j – цены в стране-доноре, $Language_{ij}$ – нали-

¹ <https://president.uz/ru/lists/view/7282>

чие общего языка, $Visa_{ij}$ – безвизовый/упрощённый режим.

Обзор литературы

В сфере образовательного туризма McQuone (2025) в отчёте «Counting the Cost» показал, что ценовая эластичность спроса среди студентов из стран, не входящих в ЕС, составляет – 0,57 в краткосрочном периоде [1]. Beine, Delogu & Ragot (2017, 2020) вывели гравитационную модель для образовательного туризма, подтвердив «чёткое негативное влияние платы за обучение на мобильность студентов с эластичностью около – 0,8», а также подтверждают «важную роль качества образования» [2]. Исследование детерминанта выездного медицинского туризма из Азербайджана (Алиев, 2023) на основе опроса выявило, что среди факторов выбора направления лидируют «низкие цены в стране назначения» и «качество медицинских услуг». [3]. Pailwar & Mitra (2025) на расширенной гравитационной модели для анализа медицинского туризма показали, что страны, стремящиеся привлечь медицинских туристов, должны предлагать цены не экстремально низкие (что может сигнализировать о низком качестве), а цены, находящиеся в «оптимальном» среднем диапазоне, а расстояние отрицательно влияет на потоки пациентов во всех режимах: близлежащие кластеры притягивают друг друга сильнее, чем удалённые» [4].

Исследование по развитию выездного медицинского туризма в странах Центральной Азии, показывает, что ключевыми факторами притяжения выступают «визовая либерализация, отсутствие языкового барьера, доступные цены и высокое качество медицинских услуг» [5].

Гравитационное моделирование рекреационного туризма для Узбекистана (2019) подтвердило, что «чем ближе расстояние, тем выше гравитационная сила», а корреляция числа посетителей с ценой составила 0,978 [6]. Анализ российского рынка медицинского туризма (2024–2025) также подтверждает важность ценовой конкурентоспособности [7]. Исследова-

ние также показало, что минимальные языковые и административные барьеры обеспечивают удобные трансферы и бесшовную коммуникацию во взаимоотношениях "врач-пациент"». Loh, Tan & Lee (2019) применили гравитационную модель и показали, что языковая близость и международная аккредитация не являются значимыми предикторами двусторонней структуры медицинского туризма. [8]. В то же время Индекс развития медицинского туризма (Medical Tourism Index) [9] оценивает страны по качеству услуг, инфраструктуре, репутации и туристической привлекательности. Узбекистан в нём не представлен, что свидетельствует о слабой интеграции в глобальный рынок.

В сфере образовательного туризма Nikou, Kadel & Gutema (2025) показали, что на решение иностранных студентов влияют качество жизни в принимающей стране, академическое превосходство и экономические факторы, такие как зарплата и льготы [10]. Akhrova (2026) провела сравнительный анализ в Центральной Азии за период 2018–2024 годов и показала, что экспортная выручка (доходы страны) на одного иностранного студента в Узбекистане составляют от 450 до 850 долл., тогда как региональный лидер Кыргызстан получает 300–500 долл., а Казахстан 1200–2000 долл. [11]. В целом, для стран Центральной Азии, анализ образовательного туризма должен учитывать как ценовые преимущества, так и институциональные факторы (международное признание дипломов, аккредитацию образовательных программ), которые пока остаются ограничивающими факторами роста [12].

Основная часть

Динамика совокупного экспорта образовательного и медицинского туризма и услуг в Республике Узбекистан за 2017–2025 гг. показывает их активный рост с 4,3 млн долл до 56,4 млн долл. (рис. 1).



Рис.1. Динамика экспорта образовательных и медицинских услуг и туризма, тыс долл.

Источник: данные Национального комитета Республики Узбекистан по статистике: <https://nuz.uz/2026/01/30/v-uzbekistane-na-58-vyroslo-chislo-inostrannyh-studentov>

Наибольшую долю (85,5%) в 2025 г. (рис. 1) составил экспорт образовательного туризма – 32,7 млн долл. (57,9% от общего экспорта образовательных и медицинских услуг и туризма), а медицинского туризма – 15,6 млн долл. (27,6%,).

При этом образовательный туризм растет значительно активнее (рост на 96,4% только в 2023 г., на 11,7% только в 2024 г., на 27,3% только в 2025 г.). В результате доля образовательного туризма в общем объеме туризма выросла за период 2017–2025 гг. с 0,53% до 0,67% (но еще не достигла доли 2019 г. на уровне 0,77%). Образовательный туризм представлен в основном обучением иностранных студентов в высших учебных заведениях Узбекистана. Так, за последние годы увеличилось количество иностранных обучающихся, в том числе из стран Центральной и Южной Азии (из Индии до 13 тыс., Туркменистана до 4,7 тыс., Пакистана до 1,1 тыс., Казахстана до свыше 1 тыс., 0,7 тыс из Таджикистана и 0,5 тыс. из Китая на конец 2025/2026 учебного года). Больше всего иностранных студентов обучается в таких ВУЗах, как Самаркандский государственный медицинский университет (в 2025 году численность

обучающихся на международном факультете превышала 4,4 тыс. человек), Ташкентская медицинская академия, Бухарский государственный медицинский институт и Андижанский государственный медицинский институт, что свидетельствует о высокой международной востребованности медицинского образования Узбекистана.

Вместе с тем, медицинский туризм рос до 2024 г. более медленными темпами, чем экспорт образовательных услуг (рис. 1). Несмотря на резкий рост в 2,5 раза в 2025 г., его развитие остаётся ограниченным. Медицинский туризм в 2025 г. составил 86,2 тыс. поездок со снижением на 17,8 % к 2024 г. (со 104,9 тыс. к 2024 г., табл. 1), однако экспорт вырос до 15,6 млн долл. (рост в 2,5 раза) за счёт увеличения средних расходов на поездку с 57,6 до 180,4 долл. В результате, в 2025 гг. доля медицинского туризма выросла до 0,32% в общем экспорте туризма.

Таблица 1

Тенденции развития медицинского и образовательного туризма

	Медицинский туризм		Образовательный туризм	
	2024 г.	2025 г.	2024 г.	2025 г.
Экспорт (тыс. долл.)	6 037.7	15 554.2	25 679	32 619.8
Туристические поездки (тыс. поездок)	104,9	86,2	25,1	39,7
Расходы/поездка (долл./чел.)	57,6	180,4	1023,1	823,2

Источник: 2024 г. – факт (https://stat.uz/img/news/razvitie-turizma-i-otdykha_p88218.pdf), 2025 г. – данные Национального комитета Республики Узбекистан по статистике («Экспорт-импорт услуг Республики Узбекистан за январь–декабрь 2025 г.»), <https://nuz.uz/2026/01/30/v-uzbekistane-na-58-vyroslo-chislo-inostrannyh-studentov>, <https://nuz.uz/2026/01/27/v-uzbekistan-v-2025-godu-dlya-lecheniya-pribyli-bolee-86-tysyach-inostrancev/>

Несмотря на развитие туристических поездок и экспорт услуг в области образования и здравоохранения, фактические показатели (56,4 млн долл.) существенно отстают от целей в сфере медицинского и образовательного туризма в Стратегии 2030 (1,5 млрд долл. к 2030 г.).

Анализ географии экспорта медицинских и образовательных услуг показывает устойчивый рост доходов и числа иностранных поездок, что свидетельствует о повышении привлекательности Узбекистана как направления международного образования. В экспорте образовательных услуг (рис. 2) наблюдается устойчивый спрос со стороны стран Южной и

Центральной Азии (развивающееся азиатское направление) – наибольшее количество поездок приходится на Индию (17,2 тыс.) и Пакистан (1,78 тыс поездок), а также благодаря близости к Хорезмскому региону – на Туркменистан (9,3 тыс.). В 2025 г. иностранные граждане, приехавшие в Узбекистан для обучения, по другим странам распределились следующим образом: Таджикистан – 2904 чел., Китай – 1428 чел., Южная Корея – 917 чел., Кыргызстан – 912 чел., Египет – 893 чел., Филиппины – 745 чел., Соединенные Штаты Америки – 482 чел., другие государства – 3011 чел.




Рис. 2. Первая десятка стран по экспорту образовательных услуг Узбекистана (и количество поездок с целью получения образования)

Источник: расчеты по данным Национального комитета Республики Узбекистан по статистике.

В целом структура образовательного экспорта более диверсифицирована географически, чем медицинского. Однако потенциал роста связан с привлечением студентов из других стран и развитием англоязычных программ, что позволит увеличить их привлекательность.

Анализ географии экспорта медицинских услуг показал, что страновая структура экспорта медицинских услуг Узбекистана (рис. 3) характеризуется выраженным устой-

чивым трансграничным спросом со стороны соседних государств. **Основной объём поездок формируется странами Центральной Азии:** Таджикистаном (59,1 тыс. поездок), Кыргызстаном (15,6 тыс.) и Казахстаном (8,2 тыс.). Также в 2025 г. в Узбекистан за медицинской помощью обращались граждане России (1,9 тыс. поездок), Афганистана (914), Туркменистана (224), Турции (47), США (16), Китая (15) и Азербайджана (11).




Рис. 3. Первая десятка стран по экспорту медицинских услуг Узбекистана (и количество поездок с целью медицинского обслуживания)

Источник: расчеты по данным Национального комитета Республики Узбекистан по статистике.

При этом медицинские документы иностранного гражданина или лица без гражданства (амбулаторная карта, история болезни и выписка из нее) в медучреждениях заполняются на государственном языке. По заявлению пациента можно сделать перевод документов на иностранный язык. Однако комплексная привлекательность (качество услуг, международные аккредитации, сложность процедур, маркетинг) ещё требует развития для привлечения пациентов с более крупных рынков медицинского туризма, где пациенты готовы платить больше за подтверждённое качество.

Оценка средней стоимости как фактора ценовой конкурентоспособности. В международной статистике средняя стоимость годового обучения за границей варьируется по регионам, и в

странах Центральной Азии и СНГ (1–2,5 тыс. долл США) в среднем в 2 раза ниже чем в странах Южной и Юго-Восточной Азии (2–4 тыс. долл США) и в 4 раза ниже в странах Ближнего Востока/Европы (4–8 тыс. долл./год).[13] При этом в Узбекистане в 2025/2026 учебном году стоимость среднего контракта в высшем образовании составляет от 1,2 тыс. до 2,5 тыс. долл. в год (в зависимости от направления и вуза, более высокая стоимость у медицинских и отдельных технических направлений – 3 тыс. долл.). Так, например, сумма контракта для иностранных граждан в Национальном университете Узбекистана варьируется в пределах от 1200 долл. США до 1600 долл. в год для бакалавриата (и до 1750 долл. для магистратуры), в Институте инженеров ирригации и ме-

ханизации сельского хозяйства – 1500 долл. в год. Несколько дороже программы обучения по медицинским специальностям и более высоким ступеням образования (контракт на обучение в бакалавриате Ферганского медицинского института общественного здоровья 2,2 тыс. долл. в год (в магистратуре – 3 тыс. долл. в год), а также международные программы: например, в Сингапурском институте развития менеджмента стоимость контракта установлена на уровне 35,5 млн сумов в год (для граждан Узбекистана)/3520 долларов США в год (для студентов из стран СНГ)/4180 долларов США (для неграждан из других стран, кроме стран СНГ).

Индекс стоимости медицинского туризма

также показывает значительные различия в ценах на медицинские услуги: развивающиеся страны Азии и Восточной Европы предлагают цены до 80% ниже, чем страны Северной Америки [14]. Исследования показывают, что граждане США, Европы и Канады ежегодно совершают более миллиона поездок за границу для медицинского лечения [15]. Узбекистан предлагает значительно более низкие цены на многие медицинские услуги (стоматология, диагностика, пластическая хирургия) по сравнению с Индией, Турцией, Таиландом и Мексикой (как наиболее популярными направлениями медтуризма с умеренными ценами (значительно ниже, чем в США или Европе).

Таблица 2

Описательная статистика переменных гравитационной модели

	Variable	Obs	Mean	Std. dev.	Min	Max
Страна	country	114	57,5	33,1	1	114
Экспорт медтуризма (тыс. долл.)	medt	109	135,7	1016,0	0	10420,5
	ln_medt	102	-0,8	3,2	-4,6	9,3
Экспорт образовательного туризма (тыс. долл.)	edut	59	552,1	2178,0	0	13909,7
	ln_edut	58	3,1	2,6	-2,5	9,5
ВВП (млрд долл.)	gdp	109	920,4	3205,4	0,8	27361
	ln_gdp	109	5,0	2,0	-0,2	10,2
Население (млн чел.)	pop	114	62,6	191,3	0	1428
	ln_pop	114	2,6	2,1	-6,9	7,3
Расстояние (км)	d	114	5406,6	3641,2	350	14500
	ln_d	114	8,4	0,7	5,9	9,6
Общий язык	lang	114	0,1	0,3	0	1
Виза	visa	114	0,1	0,2	0	1

Источник: расчёты автора по данным Национального комитета по статистике Республики Узбекистан, World Bank, CEP II Gravity Database.

Гравитационная модель международной торговли постулирует, что объём двусторонних потоков между странами прямо пропорционален произведению их экономических «масс» (ВВП) и обратно пропорционален расстоянию.

В связи с высокой корреляцией между переменными $\ln GDP$ и $\ln POP$ ($r = 0,76$) данные показатели не включались одновременно в одну

спецификацию модели. Для проверки устойчивости результатов были оценены две альтернативные спецификации.

Ввиду наличия проблемы мультиколлинеарности (см. табл. 3, коэффициент корреляции между переменными $\ln GDP$ и $\ln POP$ составил 0,76) были оценены два отдельных уравнения с включением фактора $\ln GDP$ и фактора

lnPOP. Для получения состоятельных оценок стандартных ошибок и устранения возможного влияния гетероскедастичности, оценивание параметров осуществлялось с использованием

робастных стандартных ошибок, обеспечивающих корректность статистических выводов при наличии гетероскедастичности.

Таблица 3

Оценки корреляции независимых переменных (факторов)

	ln_medt	ln_gdp	ln_pop	ln_d	ln_pri~d	lang	visa
ln_medt	1.0000						
ln_gdp	0.2136	1.0000					
ln_pop	0.2359	0.7655	1.0000				
ln_d	-0.5998	0.0815	-0.1088	1.0000			
ln_price_med	0.0797	0.5356	0.0242	0.1896	1.0000		
lang	0.5675	-0.0711	0.0228	-0.4942	-0.1526	1.0000	
visa	0.5413	0.0010	0.0164	-0.4621	-0.0712	0.5385	1.0000

Источник: расчёты автора по данным Национального комитета по статистике Республики Узбекистан, World Bank, CEPII Gravity Database.

Оценки расширенной гравитационной модели с фактором ценовой конкурентоспособности модели по образовательному туризму (таблица 4) показали, что рост ВВП страны-донора на 1%

приводил в отчетном периоде в среднем к росту экспорта образовательных услуг Узбекистана на 0,65%, а рост численности населения страны-донора на 1% к росту экспорта на 0,72%.

Таблица 4

Результаты оценок для образовательного туризма
(зависимая переменная в лог. форме ln_edut)

Переменная	Уравнение 1		Уравнение 2	
	Коэффициент	p-value	Коэффициент	p-value
ln(GDPi)	0,65***	0,002	–	–
ln(Popi)	–	–	0,72***	0,000
ln(Dist)	-1,85***	0,013	-1,51***	0,005
ln(Price)	-0,11	0,804	0,69	0,251
Language	1,27	0,219	1,35	0,187
Visa	0,61	0,662	0,89	0,488
	Number of obs = 58		Number of obs = 58	
	F(5, 52) = 7.31		F(5, 52) = 9.87	
	Prob > F = 0.0000		Prob > F = 0.0000	
	R-squared = 0.4075		R-squared = 0.4442	

Источник: расчёты автора по данным Национального комитета по статистике Республики Узбекистан, World Bank, CEPII Gravity Database. Условные обозначения: *** $p < 0,01$; ** $p < 0,05$; * $p < 0,10$

Полученные результаты свидетельствуют о том, что потоки иностранных студентов в Узбекистан в 2025 г. определялись преимущественно

факторами гравитации (экономической массы стран происхождения и географической близости). Расстояние выступает значимым барье-

ром: увеличение расстояния между Ташкентом и столицей страны-донора на 1% снижает экспорт образовательных услуг на 0,85%–1,51%. В то же время ценовая конкурентоспособность,

наличие общего языка (например, программ обучения на английском языке) и упрощённый визовый режим не продемонстрировали статистически значимого влияния.

Таблица 5

Результаты оценок для медицинского туризма
(зависимая переменная в лог. форме $\ln_medt$)

Переменная	Уравнение 1		Уравнение 2	
	Коэффициент	p-value	Коэффициент	p-value
$\ln(GDPi)$	0,34**	0,038	–	–
$\ln(Popi)$	–	–	0,27**	0,047
$\ln(Dist)$	–1,79***	0,000	–1,56***	0,000
$\ln(Price)$	0,51	0,147	1,04***	0,001
Language	3,55***	0,000	3,69***	0,000
Visa	2,52**	0,003	2,84***	0,002
	Number of obs = 98		Number of obs = 102	
	F(5, 92) = 41.74		F(5, 96) = 36.60	
	Prob > F = 0.0000		Prob > F = 0.0000	
	R-squared = 0.5728		R-squared = 0.5621	

Источник: расчёты автора по данным Национального комитета по статистике Республики Узбекистан, World Bank, CEPII Gravity Database.

Условные обозначения: *** $p < 0,01$; ** $p < 0,05$; * $p < 0,10$.

Результаты оценки модели для медицинского туризма (таблица 5) показывают, что рост ВВП страны-донора медицинских туристов на 1% приводит к росту экспорта медицинских услуг Узбекистана на 0,34%, а расстояние оказывает более сильное негативное влияние (1,56%–1,79%). При этом привлечение медицинских туристов из страны-донора с более высокой численностью населения может привести к на 1% к росту экспорта на 0,27%. Фактор ценовой конкурентоспособности демонстрирует положительный знак, повышение цены медицинской услуги в стране-доноре на 1% увеличивает медицинский туризм в Узбекистан на 1,04%. Так, более высокие относительные цены на услуги медицинского туризма могут отражать привлечение массового медицинского туризма из соседних центрально-азиатских стран (например, на стоматологические услуги).

Однако помимо факторов гравитации (ВВП страны и расстояние) сильное влияние оказыва-

ет группа институциональных факторов: наличие общего языка (например, программ обучения на английском языке) увеличивает экспорт в 35–40 ($e^{3,6} - e^{3,7}$) раз, а упрощённый визовый режим – в 12–17 ($e^{2,5} - e^{2,8}$) раз.

**Результаты оценки модели
для медицинского туризма
показывают, что рост ВВП
страны-донора медицинских
туристов на 1% приводит к
росту экспорта медицинских
услуг Узбекистана на 0,34%,
а расстояние оказывает более
сильное негативное влияние
(1,56%–1,79%).**

Таблица 6

Сравнение значимости факторов для Узбекистана

Фактор	Образование	Медицина	Сравнение и выводы
Расстояние	-1,51 (-1,85)	-1,56 (-1,79)	Оба рынка туризма являются региональными, так как очень чувствительны к расстоянию.
Население	0,72	0,27	Для образования важнее ёмкость рынка
ВВП (платёже- способность)	0,65	0,34	Для образования важнее платёжеспособность
Общий язык	Статистически не значимы	35–40	Для медицинского туризма языковой и визовый факторы критичнее
Упрощённая виза		12–17	

Заключение

По результатам проведённого исследования можно сделать следующие выводы. Во-первых, ценовая конкурентоспособность пока не является статистически значимым фактором образовательного туризма и положительная ценовая эластичность медицинского туризма объясняется доверием к качеству медицинских услуг на региональном рынке. Во-вторых, расстояние остаётся значимым барьером и это подтверждает статус Узбекистана как регионального, а не глобального хаба медицинского и образовательного туризма. Для выхода на дальние рынки необходимы дополнительные меры институционального характера (JCI-аккредитация, маркетинг). В-третьих, языковой фактор является наиболее сильным институциональным драйвером и одновременно ограничением для привлечения пациентов из других стран, что объясняет доминирование стран постсоветского пространства в структуре медицинского туризма (96,2%), так как пациенты часто нуждаются в наличии общего языка. В-четвёртых, упрощённый визовый режим особенно важен для медицинского туризма, что связано с необходимостью повторных визитов и наличия сопровождающих лиц.

Для Узбекистана важно ориентироваться не только на доступную цену, но и на повышение качества сервиса, аккредитации клиник и сопровождения, чтобы двигаться к уровням конкуренции с Индией, Турцией, Малайзией и Южной Кореей в сегменте

международного спроса. Можно предложить следующее:

1. Стимулирование международной аккредитации образовательных программ и ВУЗов, внедрение единых стандартов качества для экспортно-ориентированных медицинских организаций. Несмотря на то, что в 2024 г. утверждены меры по стимулированию роста международных сертификатов (JCI– Joint Commission International) путем компенсации 50% затрат на аккредитацию для первых 30 частных медучреждений, процесс развития сети клиник с международной аккредитацией ещё только стартовал. Первое государственное медицинское учреждение в Узбекистане, официально сертифицированное по стандартам Joint Commission International (JCI, признанный «золотой стандарт» международной оценки качества и безопасности медицинских услуг) – Детский национальный медицинский центр. В других странах регионального уровня (например, Индия), по состоянию на 2024 год более 55 больниц имеют JCI-аккредитацию, что является ориентиром для сравнения.

2. Соглашения о взаимном признании дипломов и медицинских документов, развитие партнёрств с ведущими зарубежными клиниками и университетами.

3. Участие в международных рейтингах и платформах, таких как Индекс развития медицинского туризма (Medical Tourism Index) для оценки качества, инфраструктуры и привлекательности направления на рынке медтуризма.

4. Создание специализированных медицинских клиник, санаторно-курортных и реабилитационных комплексов и образовательных учреждений, изначально ориентированных на полный цикл работы с иностранными клиентами и внедрения международных стандартов качества.

5. Необходимо также внедрение единой системы стандартов сервиса, включая многоязычное сопровождение иностранных пациентов, унифицированные клинические и административные протоколы, стандарты пребывания, сопровождения и постлечебного взаимодействия.

6. На примере Малайзии (медицинские комплексы Sunway Medical Centre, KPJ Healthcare) целесообразно разработать и внедрить программу «экспортные центры медицинского туризма» по медицинским направлениям специализации с устойчиво высоким международным спросом (в частности, стоматология, вспомогательные репродуктивные технологии (ЭКО), ортопедия, кардиология, офтальмология).

7. Подготовка медицинских координаторов – развитие института медицинского координатора как обязательного элемента работы с иностранными клиентами.

8. Целесообразно формирование региональных кластеров по модели «медицинское лечение + реабилитация (отдых) + туризм» в приграничных территориях, обладающих природными и инфраструктурными предпосылками (Бухара, Хорезм, Чимган, Ферганская долина).

9. Разработка целевых программ поддержки направлений образования с высоким потенциалом: запуск PhD-программ для иностранцев и развитие магистратуры, дальнейшее развитие англоязычных и совместных образовательных программ по направлениям образования с высоким спросом (медицинские инженерные и IT-специальности).

10. Специальные визовые режимы и пакеты для медицинских туристов: возможность двух сопровождающих, упрощенный въезд для пациентов и их семей; скидки и сервисы для семейных поездок; интеграция медицинских

маршрутов с оздоровительными / рекреационными/экскурсионными предложениями; совместные программы с отелями/транспортными компаниями.

Manba: tahlil natijalariga asosan muallif ishlanmasi.

Tahlil natijalari WSS egri chizig'ida klasterlar soni ortishi bilan qo'shimcha tushuntirish quvvatining kamayishi $k = 5$ atrofida sezilarli sekinlashishini ko'rsatdi. Silhouette ko'rsatkichlari esa tekshirilgan barcha yechimlar uchun o'rtacha va o'zaro yaqin qiymatlarda (taxminan 0,22–0,25) bo'lib, ularning hech biri keskin ustunlikka ega emas. Shu sababli klasterlar sonini tanlashda tirsak usuli natijasi bilan birga hosil bo'lgan klasterlarning mazmunan izohlanuvchanligi va nazariy asoslanganligi hal qiluvchi mezon sifatida e'tiborga olindi. Ushbu mezonlar majmui $k = 5$ ni eng maqbul tipologik yechim sifatida belgilashga asos bo'ldi.

Natijada respondentlarning iqtisodiy faolligi va ijtimoiy-demografik tavsiflarini aks ettiruvchi beshta klasterli tipologiya tadqiqotning keyingi bosqichlari uchun asosiy analitik model sifatida qabul qilindi. Klasterlarning statistik ahamiyatligi dispersion tahlil (ANOVA) yordamida tekshirildi, natijalar guruhlar o'rtasidagi farqlar yuqori darajada ahamiyatli ekanini ko'rsatdi ($F = 957,75$; $p < 0,001$). Klasterlar bilan bandlik holati o'rtasidagi bog'liqlik xi-kvadrat (χ^2) mezoni asosida baholandi. Barcha hisob-kitoblar SPSS dasturining 22-versiyasida bajarildi.

Tahlil va natijalar

Ko'p o'lchovli K-means klaster tahlili natijasida O'zbekiston xotin-qizlari iqtisodiy faollik darajasi hamda ijtimoiy-demografik xususiyatlarining o'xshashligi asosida beshta nisbatan bir jinsli tipologik guruhga ajratildi. Mazkur yondashuv respondentlarning iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki, inson kapitali, yashash muhiti va ijtimoiy qarashlaridagi farqlarni tizimli ravishda aniqlash hamda xotin-qizlar tarkibidagi ichki xilma-xillikni empirik jihatdan namoyon etish imkonini berdi. Klasterlarning tanlanmadagi ulushi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Beshta klasterning xotin-qizlar tanlanmasidagi ulushi (n=2 262)

Manba: tahlil natijalariga asosan muallif ishlanmasi.

2-rasm natijalari respondentlarning aniqlangan klasterlar bo'yicha notekis taqsimlanganligini ko'rsatadi. Eng yirik klasterlarni "yosh potensial xotin-qizlar" guruhi tashkil etib, u tanlanmaning qariyb yarmini (46,4%) qamrab oladi. Mazkur holat yosh, yuqori raqamli kompetensiyalarga ega, biroq iqtisodiy faoliyatga yetarlicha jalb etilmagan ayollar qatlamining mamlakat miqyosida salmoqli ulushga ega ekanligini anglatadi.

Hajm jihatidan keyingi o'rinlarni "tajribali shahar xotin-qizlari" (17,8%) va "qishloq faol xotin-qizlari" (17,2%) klasterlari egallaydi. Ushbu ikki guruh birgalikda tanlanmaning uchdan bir qismidan ortig'ini tashkil etib, iqtisodiy jihatdan eng faol qatlam sifatida namoyon bo'ladi. Ularning mavjudligi xotin-qizlarning sezilarli qismi mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyalashganligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, "NEET (Not in Education, Employment or Training) maqomidagi xotin-qizlar" (10,7%) hamda "konservativ marginal xotin-

qizlar" (8,0%) klasterlari son jihatidan nisbatan kichik bo'lsa-da, ijtimoiy va iqtisodiy siyosat nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etadigan guruhlardir. Mazkur guruhlar iqtisodiy nafaollik, past inson kapitali yoki iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanishdagi cheklovlar bilan tavsiflanishi sababli, manzilli qo'llab-quvvatlash choralarining asosiy obyekti sifatida qaralishi mumkin.

Umuman olganda, klasterlar tarkibining notekis taqsimlanganligi O'zbekiston xotin-qizlari iqtisodiy faolligi va ijtimoiy-demografik profili bo'yicha sezilarli darajada differensiyalashganligini tasdiqlaydi. Shu bois xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosat va dasturlarni ishlab chiqishda ularni yagona ijtimoiy guruh sifatida emas, balki o'ziga xos ehtiyoj va imkoniyatlarga ega bo'lgan alohida tipologik qatlamlar sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Klasterlarning iqtisodiy faollik darajasi hamda asosiy ijtimoiy-demografik tavsiflari bo'yicha batafsil ma'lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Xotin-qizlarning iqtisodiy faollik bo'yicha klaster tipologiyasi

Klaster	n	Ulush, %	EAI (o'rtacha)	Bandlik, %	Asosiy tavsif
1. Konservativ marginal xotin-qizlar	180	8,0	27,90	50,0	Past moliyaviy savodxonlik, eng konservativ gender qarashlari, asosan qishloq hududi
2. Tajribali shahar xotin-qizlari	403	17,8	56,40	89,8	O'rtacha yoshi yuqori (~44,7), shaharlik, yuqori FLI va bandlik
3. NEET maqomidagi xotin-qizlar	242	10,7	6,01	10,7	Past ta'lim va raqamli ko'nikmalar, ta'lim va mehnatdan tashqarida
4. Qishloq faol xotin-qizlari	388	17,2	59,14	92,0	Eng yuqori ta'lim, ~81% qishloqda, eng yuqori bandlik va EAI
5. Yosh potensial xotin-qizlar	1 049	46,4	4,37	7,6	Eng yosh (~20,3), raqamli ko'nikmali va eng egalitar, ammo 92%i ishlamaydi
Jami	2 262	100,0	25,35	—	—

Manba: so'rovnomaga ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Klasterlar o'rtasida kuzatilgan tafovutlarning statistik jihatdan ishonchligini baholash maqsadida bir omilli dispersion tahlil (ANOVA) qo'llanildi. Tahlil natijalari klasterlar o'rtasidagi farqlar juda yuqori darajada ahamiyatli ekanligini ko'rsatdi ($F = 957,75$; $p < 0,001$). Mazkur natija respondentlarning

klasterlarga tasodifiy ravishda emas, balki tanlangan ko'rsatkichlar bo'yicha sezilarli darajada farqlanuvchi guruhlar sifatida ajratilganligini tasdiqlaydi. Boshqacha aytganda, aniqlangan klasterlar statistik nuqtayi nazardan bir-biridan aniq ajralib turuvchi tipologik qatlamlarni ifodalaydi.

Klasterlarning asosiy xususiyatlarini kompleks tarzda taqqoslash maqsadida barcha ko'rsatkichlar standartlashtirilgan (Z-baho) ko'rinishda radar diagramma yordamida vizualizatsiya qilindi (3-rasm). Z-baholar har bir klasterning umumiy

tanlanma o'rtacha ko'rsatkichidan qanchalik yuqori yoki past ekanligini aks ettirib, turli o'lchov birliklarida ifodalangan indikatorlarni yagona shkalada qiyoslash imkonini beradi.



3-rasm. Beshta klasterning yettita ko'rsatkich bo'yicha profillari (Z-baho).

Manba: tahlil natijalariga asosan muallif ishlanmasi.

Klasterlar tarkibi va ularning asosiy xususiyatlari respondentlar orasida iqtisodiy faollik, inson kapitali hamda gender qadriyatlari bo'yicha sezilarli heterogenlik mavjudligini ko'rsatadi. *Birinchi klaster* — “konservativ marginal xotin-qizlar” (8,0%) — moliyaviy savodxonlikning nisbatan past darajasi, eng konservativ gender qarashlari hamda qisman qishloq hududlarida yashashi bilan tavsiflanadi. Mazkur guruh vakillarining faqat yarmi (50,0%)

iqtisodiy faoliyatga jalb etilgan bo'lib, bu ularning mehnat bozoridagi ishtiroki cheklanganligini anglatadi.

Ikkinchi klaster — “tajribali shahar xotin-qizlari” (17,8%) — tanlanmadagi eng katta yoshdagi respondentlarni birlashtiradi. Ushbu guruh asosan shaharlarda istiqomat qiladi, moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori hamda mehnat bozoridagi ishtiroki barqarorligi bilan ajralib turadi. Klaster vakillarining 89,8 foizi band bo'lib,

bu ularni iqtisodiy jihatdan eng faol qatlamlardan biri sifatida tavsiflaydi.


Uchinchi klaster – “NEET maqomidagi xotin-qizlar” (10,7%) – past ta’lim darajasi va sust rivojlangan raqamli ko’nikmalarga ega respondentlardan tashkil topgan. Ushbu guruhda bandlik darajasi atigi 10,7 foizni tashkil etadi. Natijada klaster vakillarining aksariyati na mehnat faoliyatida, na ta’lim tizimida, na kasbiy tayyorgarlik dasturlarida ishtirok etmoqda. Bu holat ularning iqtisodiy va ijtimoiy integratsiya darajasi pastligini ko’rsatadi.

To’rtinchi klaster – “qishloq faol xotin-qizlari” (17,2%) – eng yuqori ta’lim darajasi, qishloq hududlarida yashovchilarning ustunligi (taxminan 81%) hamda mehnat bozoridagi yuqori faolligi bilan ajralib turadi. Ushbu guruhda bandlik darajasi 92,0 foizni, Iqtisodiy faollik indeksi (EAI) esa 59,14 ballni tashkil etib, uni tanlanmadagi eng muvaffaqiyatli va iqtisodiy jihatdan eng faol klaster sifatida tavsiflash imkonini beradi.

Beshinchi klaster – “yosh potensial xotin-qizlar” (46,4%) – tanlanmadagi eng yirik guruh bo’lib, eng yosh respondentlarni qamrab oladi. Ular raqamli ko’nikmalar va gender tengligiga asoslangan

egalitar (tenglikni qo’llab-quvvatlovchi) qarashlar bo’yicha eng yuqori ko’rsatkichlarga ega. Shunga qaramay, ushbu klaster vakillarining 92 foizi hali mehnat bozoriga kirib kelmagan. Bu holat mazkur guruhning hozirgi iqtisodiy faolligi past bo’lsa-da, kelgusida yuqori iqtisodiy salohiyatga ega ekanligini anglatadi.

Klasterlar o’rtasidagi bandlik darajasidagi tafovutlar nihoyatda katta bo’lib, statistik jihatdan ham yuqori darajada ahamiyatli ekanligi aniqlandi ($\chi^2 = 1400,76$; $p < 0,001$). 4-rasmda ko’rsatilganidek, “qishloq faol xotin-qizlari” (92,0%) va “tajribali shahar xotin-qizlari” (89,8%) klasterlari deyarli to’liq bandlik darajasiga ega. Aksincha, “NEET maqomidagi xotin-qizlar” (10,7%) hamda “yosh potensial xotin-qizlar” (7,6%) klasterlarida bandlik darajasi juda past bo’lib, ushbu guruhlar mehnat bozoriga integratsiyalashuv nuqtayi nazaridan alohida e’tibor talab etishini ko’rsatadi. Mazkur natijalar iqtisodiy faollikning nafaqat demografik va hududiy omillar, balki ta’lim, raqamli kompetensiyalar va gender qadriyatlari bilan ham chambarchas bog’liqligini tasdiqlaydi.



4-rasm. Klasterlar bo’yicha bandlik darajasi ($\chi^2 = 1\,400,76$; $p < 0,001$).

Manba: tahlil natijalariga asosan muallif ishlanmasi.

Tahlil natijalarining eng muhim xulosalaridan biri shundaki, respondentlarning qariyb yarmiga teng bo'lgan eng yirik klaster – “yosh potensial xotin-qizlar” guruhi – iqtisodiy faollikning eng past darajasini namoyon etadi: EAI = 4,37, bandlik darajasi esa 7,6%. Ushbu natija mazkur guruhning mehnat bozoridagi ishtiroki hozircha juda cheklanganligini ko'rsatsa-da, uning rivojlanish salohiyati nihoyatda yuqori ekanligini ham anglatadi. Xususan, aynan ushbu klaster respondentlari orasida raqamli ko'nikmalar darajasi eng yuqori bo'lib, gender tengligini qo'llab-quvvatlovchi egalitar qarashlar ham eng kuchli ifodalangan. Shunday qilib, mazkur guruh iqtisodiy faollikka yetarli darajada jalb etilmagan, biroq inson kapitali va zamonaviy kompetensiyalar nuqtayi nazaridan O'zbekiston xotin-qizlarining hozircha to'liq faollashtirilmagan eng katta iqtisodiy salohiyati sifatida qaralishi mumkin.

Tadqiqotning yana bir muhim natijasi “qishloq faol xotin-qizlari” klasteri bilan bog'liq. Mazkur guruh nafaqat eng yuqori 92,0 foizlik bandlik darajasini, balki Iqtisodiy faollik indeksining eng yuqori qiymatini ham namoyon etdi: EAI = 59,14. E'tiborlisi, ushbu ko'rsatkichlar ayrim shahar klasterlarinikidan ham yuqori bo'lib, qishloq aholisi iqtisodiy jihatdan nisbatan passiv degan an'anaviy tasavvurlarni empirik jihatdan tasdiqlamasligini ko'rsatadi. Aksincha, natijalar qishloq hududlarida yashovchi ayollar orasida mehnat bozoriga faol integratsiyalashgan va yuqori iqtisodiy natijalarga erishayotgan qatlam mavjudligini namoyon etadi.

Hududiy kesimdagi tahlillar ham iqtisodiy faollikning sezilarli darajada tabaqalashganligini ko'rsatdi. Bir omilli dispersiya tahlili (ANOVA) natijalariga ko'ra $F = 25,16$; $p < 0,001$ bo'lib, viloyatlar bo'yicha Iqtisodiy faollik indeksidagi farqlar statistik jihatdan yuqori ahamiyatga ega. Bu iqtisodiy faollik darajasi respondentlarning yashash hududi bilan uzviy bog'liqligini anglatadi. Xususan, eng yuqori o'rtacha Iqtisodiy faollik indeksi Namangan viloyatida (EAI = 47,78) qayd etilgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich Qashqadaryo viloyatida kuzatildi. Mazkur tafovutlar

hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, mehnat bozori imkoniyatlari, infratuzilma va mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan bog'liq omillar ta'sirida shakllanayotgan bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, klaster tahlili natijalari O'zbekistonda xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi bir xil emasligini, balki yosh, ta'lim, raqamli kompetensiyalar, yashash hududi va gender qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan bir necha turli tipologik guruhlar mavjudligini ko'rsatdi. Ayniqsa, yuqori ta'lim salohiyati va raqamli ko'nikmalarga ega bo'lgan, biroq aksariyati hozirda o'qish bosqichida bo'lgani bois iqtisodiy faoliyatga to'liq jalb etilmagan yosh ayollar qatlamining mavjudligi alohida e'tiborni talab etadi. Mazkur guruh uchun asosiy vazifa ularni darhol ish bilan ta'minlash emas, balki ta'limdan iqtisodiy faoliyatga muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlash – ularning yuqori salohiyati keyinchalik nafaollikka aylanib ketishining oldini olishdan iborat. Aynan shu jihat iqtisodiy siyosat va bandlik dasturlarini ishlab chiqishda e'tiborga olinishi lozim.

Xulosa va takliflar

Mazkur tadqiqot doirasida 2 398 nafar respondentni qamrab olgan keng ko'lamli so'rov ma'lumotlari asosida O'zbekiston xotin-qizlarining iqtisodiy faolligi bo'yicha tipologik tuzilmasi aniqlanib, klaster tahlili yordamida beshta alohida guruh ajratildi. Olingan natijalar xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi bir xil emasligini, aksincha, sezilarli darajada tabaqalashganligini ko'rsatdi. Bir tomondan, bandlik darajasi 90 foizdan yuqori bo'lgan va iqtisodiy hayotga faol integratsiyalashgan guruhlar – “tajribali shahar xotin-qizlari” hamda “qishloq faol xotin-qizlari” aniqlangan bo'lsa, ikkinchi tomondan, bandlik darajasi 11 foizdan ham past bo'lgan “NEET maqomidagi xotin-qizlar” va “yosh potensial xotin-qizlar” klasterlari mavjudligi qayd etildi. Ayniqsa, tanlanmaning qariyb yarmini (46,4%) tashkil etuvchi “yosh potensial” guruhi eng past iqtisodiy faollik darajasiga ega bo'lishiga qaramay, raqamli ko'nikmalar va gender tengligini qo'llab-quvvatlovchi qarashlar bo'yicha eng yuqori

ko'rsatkichlarni namoyon etdi. Bu esa mazkur qatlamni O'zbekiston xotin-qizlarining hozircha to'liq safarbar etilmagan eng yirik iqtisodiy salohiyati sifatida baholash imkonini beradi.

Tadqiqotning asosiy ilmiy va amaliy xulosasi shundan iboratki, xotin-qizlarni yagona va bir jinsli ijtimoiy guruh sifatida ko'rib, barcha uchun bir xil qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini qo'llash samarali natija bermaydi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy faollik darajasi, inson kapitali, raqamli kompetensiyalar, moliyaviy savodxonlik hamda gender qadriyatlari bo'yicha sezilarli farqlanuvchi guruhlar mavjudligini ko'rsatadi. Shu sababli davlat siyosati va qo'llab-quvvatlash dasturlari har bir klasterning o'ziga xos xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, manzilli va differensial yondashuv asosida shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir.

Birinchi navbatda, "yosh potensial xotin-qizlar" guruhi (46,4%; bandlik darajasi 7,6%) iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rilishi lozim. Mazkur guruhning yuqori raqamli kompetensiyalari ularni raqamli iqtisodiyot, masofaviy mehnat, platforma bandligi va o'zini o'zi band qilish shakllariga muvaffaqiyatli jalb etish imkoniyatini yaratadi. Shu bois, ushbu qatlam uchun maxsus raqamli bandlik dasturlari, startap tashabbuslari va moslashuvchan ish formatlarini rivojlantirishga qaratilgan choralarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Ularning iqtisodiy faolligini o'rta muddatli istiqbolda sezilarli oshirish nafaqat mazkur guruhning farovonligini yaxshilaydi, balki umumiy ayollar bandligining o'sishiga ham katta hissa qo'shishi mumkin. Ushbu yo'nalishda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi muhim institutsional rol o'ynashi mumkin. Xalqaro tajriba ham bu yondashuvni tasdiqlaydi: rivojlanayotgan mamlakatlarda yosh ayollarni raqamli ko'nikmalarga o'qitish hamda masofaviy va platforma asosidagi bandlikka jalb etish ularning mehnat bozoriga kirishini tezlashtiruvchi samarali vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Jumladan, Jahon banki qoshidagi «Women Entrepreneurs Finance Initiative» (We-

Fi) tashabbusi ayollar tadbirkorligini aynan raqamlashtirish orqali qo'llab-quvvatlashga urg'u beradi [15].

Ikkinchi ustuvor yo'nalish "NEET maqomidagi xotin-qizlar" guruhi bilan bog'liq. Ushbu klaster iqtisodiy va ijtimoiy integratsiyadan eng ko'p chetda qolgan qatlam bo'lib, mehnat bozori va ta'lim tizimidan uzilish xavfi yuqori hisoblanadi. Mazkur guruh vakillarini mahalla darajasida aniqlash, ularni qayta ijtimoiylashtirish, boshlang'ich raqamli savodxonlikni rivojlantirish va qisqa muddatli kasbiy tayyorgarlik dasturlariga jalb etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday choralar iqtisodiy nafaollikning uzoq muddatli oqibatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Ushbu yo'nalishda mahalla institutlari va Oila va xotin-qizlar qo'mitasi faol koordinatsion rol ni bajarishi mumkin. Mazkur yo'nalishda Yevropa Ittifoqining «Yoshlar kafolati» (Youth Guarantee) dasturini xalqaro miqyosdagi samarali modellardan biri sifatida aytish mumkin. 2013-yilda joriy etilgan ushbu dastur yoshlarga ma'lum bir ta'lim bosqichini yakunlagandan so'ng to'rt oy ichida bandlik, qo'shimcha ta'lim yoki kasb-hunarga tayyorgarlik yo'nalishlaridan birini kafolatlaydi. Ushbu dastur joriy etilganidan keyingi yillarda NEET toifasidagi yoshlar sonining millionlab kamayishiga olib kelgan [14]. O'zbekistonda mavjud «xotin-qizlar daftari» mexanizmini shunga o'xshash kafolatlar bilan boyitish maqsadga muvofiq.

«Konservativ marginal xotin-qizlar» guruhi uchun esa asosiy muammo inson kapitalining emas, balki moliyaviy savodxonlikning nisbatan pastligi hamda iqtisodiy faoliyatga nisbatan konservativ ijtimoiy qarashlarning mavjudligidir. Shu sababli mazkur qatlamga nisbatan moliyaviy savodxonlikni oshirish, oilaviy byudjetni boshqarish, tadbirkorlik asoslari va iqtisodiy imkoniyatlar bo'yicha ma'rifiy dasturlarni oila va mahalla institutlari orqali yetkazish samaraliroq bo'lishi mumkin. Bunda bank tizimi, mikromoliyalashtirish tashkilotlari va Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti muhim hamkorlar sifatida maydonga chiqadi va moliyaviy savodxonlikni oshirishning xalqaro standartlaridan foydalanish taklif etiladi. OECDning moliyaviy

savodxonlik bo'yicha xalqaro standarti mavjud bo'lib, 70 dan ortiq mamlakat unga tayanib milliy strategiyalarini shakllantirgan. Ushbu hujjatning asosiy tamoyillaridan biri – ma'rifiy dasturlarni aynan ehtiyoji yuqori bo'lgan maqsadli guruhlariga moslashtirishdir [16].

Shuningdek, **“tajribali shahar xotin-qizlari”** va **“qishloq faol xotin-qizlari”** klasterlari iqtisodiy jihatdan yetuk va biznes faoliyatiga tayyor qatlamlar sifatida alohida e'tiborga loyiqdir. Tadqiqot natijalari ushbu guruhlarda iqtisodiy faollik yuqori bo'lishiga qaramay, moliyaviy instrumentlardan, xususan kredit resurslaridan foydalanish darajasi hali ham cheklanganligini ko'rsatdi. Shu bois imtiyozli kreditlar, mentorlik dasturlari, biznesni kengaytirishga mo'ljallangan moliyaviy va konsalting xizmatlari hamda ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish ushbu qatlamlarning mavjud iqtisodiy salohiyatini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, qishloq hududlaridagi faol ayollar uchun mahalliy iqtisodiy sharoitlarga moslashtirilgan kredit va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bu boradagi xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlanayotgan mamlakatlarda rasmiy ayollar tadbirkorligining qariyb 70 foizi moliya institutlaridan yetarli kredit ololmaydi va bu yirik moliyaviy taqchilikka olib keladi. 2017-yilda tashkil etilgan We-Fi tashabbusi aynan shu muammoni hal etishga qaratilgan bo'lib, ayollarga kredit, bozor va mentorlik imkoniyatlarini taqdim etgan. Natijada 2025-yil oxiriga kelib 81 ta mamlakatda 600 mingdan ortiq ayol rahbarligidagi korxonani qo'llab-quvvatlagan va ularga 7 milliard AQSh dollaridan ortiq moliyaviy mablag' jalb etilishini ta'minlagan [15].

Tadqiqot natijalarini talqin qilishda ayrim metodologik cheklovlarni ham inobatga olish zarur. Birinchidan, tadqiqot ma'lumotlari ko'ndalang kesim (cross-sectional) xarakterga ega bo'lgani sababli aniqlangan bog'liqliklar sabab-oqibat munosabatlari sifatida talqin qilinmasligi kerak. Klasterlar o'rtasidagi tafovutlarning vaqt davomida qanday shakllanishini aniqlash uchun longitudinal (uzoq muddatli) kuzatuvlarga asoslangan tadqiqotlar talab etiladi. Ikkinchidan, tanlanmada yoshlar va ta'lim sohasi vakillarining nisbatan yuqori ulushi ayrim natijalarning umumlashtirilish darajasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Uchinchidan, Silhouette ko'rsatkichining o'rtacha qiymati (0,22) klasterlarning mazmunan mantiqiy va amaliy jihatdan izohlanuvchan ekanligini tasdiqlasa-da, ular orasidagi chegaralar mutlaq qat'iy emasligini ham ko'rsatadi.

Shunga qaramay, tadqiqot natijalari O'zbekistonda xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish siyosatini umumiy yondashuvdan manzilli va dalillarga asoslangan yondashuvga o'tkazish uchun muhim empirik asos yaratadi. Taklif etilgan tipologiya davlat va nodavlat institutlariga resurslarni eng katta iqtisodiy salohiyatga ega bo'lgan **“yosh potensial”** guruhi hamda eng yuqori ijtimoiy xavfga ega **“NEET”** guruhiga ustuvor ravishda yo'naltirish, bir vaqtning o'zida iqtisodiy jihatdan faol klasterlarning tadbirkorlik salohiyatini kengaytirish imkonini beradi. Tadqiqotning asosiy amaliy ahamiyati aynan xotin-qizlar iqtisodiy faolligini oshirish bo'yicha siyosiy qarorlarni maqsadli, samarali va dalillarga asoslangan tarzda shakllantirish imkoniyatini yaratishida namoyon bo'ladi.

Manba va adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni. URL: www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari. URL: www.stat.uz.

3. World Bank. *World Development Report 2012: Gender Equality and Development*. – Washington, DC: World Bank, 2011.
4. Klasen S. *What Explains Uneven Female Labor Force Participation Levels and Trends in Developing Countries?* // *The World Bank Research Observer*. – 2019. – Vol. 34, No. 2. – P. 161–197.
5. Ahl H. *Why Research on Women Entrepreneurs Needs New Directions* // *Entrepreneurship Theory and Practice*. – 2006. – Vol. 30, No. 5. – P. 595–621.
6. Brush C.G., de Bruin A., Welter F. *A Gender-Aware Framework for Women's Entrepreneurship* // *International Journal of Gender and Entrepreneurship*. – 2009. – Vol. 1, No. 1. – P. 8–24.
7. Minniti M. *Gender Issues in Entrepreneurship* // *Foundations and Trends in Entrepreneurship*. – 2009. – Vol. 5, No. 7–8. – P. 497–621.
8. *Global Entrepreneurship Monitor. Women's Entrepreneurship 2020/21: Thriving Through Crisis*. – London: GEM, 2021.
9. Woo C.Y., Cooper A.C., Dunkelberg W.C. *The Development and Interpretation of Entrepreneurial Typologies* // *Journal of Business Venturing*. – 1991. – Vol. 6, No. 2. – P. 93–114.
10. MacQueen J. *Some Methods for Classification and Analysis of Multivariate Observations* // *Proceedings of the Fifth Berkeley Symposium on Mathematical Statistics and Probability*. – Berkeley: University of California Press, 1967. – Vol. 1. – P. 281–297.
11. Everitt B.S., Landau S., Leese M., Stahl D. *Cluster Analysis*. 5th ed. – Chichester: John Wiley & Sons, 2011.
12. Хамракулова О.Д. Малое предпринимательство и активизация роли женщин в бизнесе // *Архив научных исследований*. – 2022. – № 2(1).
13. Mirzaliyev S.M., Babayeva Z.Yu. *Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari* // *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*. – 2023. – № 11–12.
14. Council of the European Union. *Council Recommendation of 22 April 2013 on Establishing a Youth Guarantee* // *Official Journal of the European Union*. – 2013. – C 120. – P. 1–6.
15. *Women Entrepreneurs Finance Initiative (We-Fi)*. World Bank Group. URL: www.we-fi.org.
16. OECD. *Recommendation of the Council on Financial Literacy*. – Paris: OECD Publishing, 2020.

УЎК: 331.5.024.5(575.1)

Bekzod SHARIPOV,

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi (O'zbekiston),

E-mail: shavkatovbehzod762@gmail.com

O'ZBEKISTONDA IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLARNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING HOZIRGI MEXANIZMLARI: INTEGRATSIYALASHGAN BAHOLASH MODELİ ASOSIDA TAHLİL

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda imkoniyati cheklangan shaxslarni (IChSh) qo'llab-quvvatlashning amaldagi huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy mexanizmlari muallif tomonidan ishlab chiqilgan Integratsiyalashgan Qo'llab-quvvatlash Samaradorligini Baholash Indeksi (IQSBI) asosida tahlil etiladi. Germaniya, Janubiy Koreya va Qozog'iston tajribasi bilan qiyosiy tahlil o'tkazilib, O'zbekistondagi qo'llab-quvvatlash tizimining kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi. Tadqiqot natijasida O'zbekiston uchun «Uch Ustunli Integratsiya Modeli» taklif etiladi, bu model huquqiy-institutsional, moliyaviy-iqtisodiy va ijtimoiy-muhit yo'nalishlari bo'yicha tizimli islohotlarni ko'zda tutadi.

Kalit so'zlar: imkoniyati cheklangan shaxslar, IQSBI, integratsiyalashgan baholash modeli, inklyuziv ta'lim, reabilitatsiya, qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, qiyosiy tahlil, ijtimoiy siyosat, O'zbekiston, bandlik, uch ustunli model.

Современные механизмы поддержки лиц с ограниченными возможностями здоровья в Узбекистане: анализ на основе интегрированной модели оценки

Бекзод Шарипов,

*самостоятельный исследователь
Бухарского государственного университета*

Аннотация. В данной статье на основе разработанного автором Индекса оценки эффективности интегрированной поддержки

(IQSBI) анализируются действующие правовые, социальные и экономические механизмы поддержки лиц с ограниченными возможностями (ЛОБ) в Узбекистане. Проведён сравнительный анализ с опытом Германии, Южной Кореи и Казахстана, в результате чего выявлены сильные и слабые стороны системы поддержки ЛОБ в Узбекистане. По итогам исследования предлагается «Трёхкомпонентная модель интеграции» для Узбекистана, предусматривающая системные реформы в правово-институциональном, финансово-экономическом и социально-средовом направлениях.

Ключевые слова: лица с ограниченными возможностями, IQSBI, интегрированная модель оценки, инклюзивное образование, реабилитация, механизмы поддержки, сравнительный анализ, социальная политика, Узбекистан, занятость, трёхкомпонентная модель.

Current mechanisms for supporting persons with disabilities in Uzbekistan: analysis based on an integrated assessment model

Bekzod Sharipov,

Independent researcher; Bukhara state university

Abstract. This article analyzes the existing legal, social, and economic mechanisms for supporting persons with disabilities (PWDs) in Uzbekistan based on the Integrated Support Effectiveness Assessment Index (ISEAI) developed by the author. A comparative analysis

is conducted with the experiences of Germany, South Korea, and Kazakhstan, identifying the strengths and weaknesses of Uzbekistan's support system. As a result of the study, a "Three-Pillar Integration Model" is proposed for Uzbekistan, which envisages systemic reforms across legal-institutional, financial-economic, and socio-environmental dimensions.

Keywords: *persons with disabilities, ISEAI, integrated assessment model, inclusive education, rehabilitation, support mechanisms, comparative analysis, social policy, Uzbekistan, employment, three-pillar model.*

Kirish

O'zbekistonda imkoniyati cheklangan shaxslar (IChSh) masalasi so'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mamlakatimizda 700 mingdan ortiq imkoniyati cheklangan shaxslar yashaydi va ularning soni yildan-yilga ortib bormoqda [12]. 2017-yildan boshlab O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida ushbu aholi toifasini ijtimoiy himoya qilish, reabilitatsiya va jamiyatga integratsiya qilish bo'yicha muhim qadamlar tashlandi [1].

Xalqaro miqyosda qabul qilingan "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi BMT Konvensiyasi (2006) va O'zbekistonning 2021-yilda ushbu konvensiyaga qo'shilishi mamlakat uchun yangi huquqiy majburiyatlar yukladi. Bu hujjat nogironlikni tibbiy muammo sifatida emas, balki insonning ijtimoiy huquqlari kontekstida ko'rib chiqishni taqozo etadi [2].

Tadqiqotning dolzarbligi shunda ifodalanadi-ki, O'zbekistonda mavjud qo'llab-quvvatlash mexanizmlari samaradorligini obyektiv baholash uchun ilmiy asos – milliy kontekstga moslashtirilgan baholash vositasi – hali ishlab chiqilmagan. Xorijiy mualliflar tomonidan taklif etilgan indekslar (MIPAA, SIPP va boshqalar) O'zbekistondagi iqtisodiy-ijtimoiy sharoitni to'liq hisobga olmaydi. Shu sababli ushbu tadqiqotning asosiy ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: birinchi, muallif tomonidan O'zbekiston

sharoitiga moslashtirilgan Integratsiyalashgan Qo'llab-quvvatlash Samaradorligini Baholash Indeksi (IQSBI) ishlab chiqildi; ikkinchi, IQSBI asosida O'zbekiston va taqqoslangan mamlakatlar (Germaniya, Janubiy Koreya, Qozog'iston) o'rtasida qiyosiy tahlil o'tkazildi; uchinchi, tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda «Uch Ustunli Integratsiya Modeli» taklif etildi.

Adabiyotlar sharhi

IChShlarni qo'llab-quvvatlash masalasi xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning e'tiborini keng jalb etgan. Scandinaviya mamlakatlarida qo'llaniladigan universal dizayn va inklyuziv yondashuv modellari alohida o'rin tutadi [3]. Zola (1993), Oliver (1996) va Barnes (2012) kabi tadqiqotchilar nogironlikning ijtimoiy modelini ishlab chiqishda muhim hissa qo'shganlar [4, 5].

O'rta Osiyo kontekstida Ilolov va boshqalar (2019) mintaqada inklyuziv ta'limning rivojlanishidagi muammolarni ko'rsatdi [6]. Rahimov (2020) O'zbekistondagi davlat dasturlarining samaradorligini tahlil qilib, moliyaviy resurslarning maqsadli sarflanishida jiddiy muammolar borligini qayd etdi [7]. Toshmatov (2021) va Yusupova (2022) esa amaldagi huquqiy bazaning afzalliklari va zaif tomonlarini aniqladilar [8, 9].

Shunday bo'lsa-da, mazkur tadqiqotlarning aksariyati O'zbekistondagi qo'llab-quvvatlash tizimini alohida sohalarida – faqat ta'lim, yoki faqat bandlik yo'nalishida – o'rganadi. Tizimni kompleks baholash uchun yagona metodologiya, milliy kontekstga moslashtirilgan indeks va xalqaro qiyosiy ma'lumotlarga tayanuvchi tahlil hali tadqiqot ob'ektiga aylanmagan. Ushbu bo'shliqni to'ldirish mazkur maqolaning asosiy ilmiy maqsadi hisoblanadi.

Metodologiya

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, statistik ma'lumotlarni qayta ishlash, qiyosiy tahlil, ekspert baholash va tizimli yondashuv. Tadqiqotning empirik bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasining 2018–2023-yillardagi rasmiy ma'lumotlari, Kambag'allikni qisqartirish

va bandlik vazirligi hisobotlari, Jahon banki va BMT ning tahliliy materiallari tashkil etadi.

Tadqiqotning metodologik yangiligi – muallif tomonidan ishlab chiqilgan Integratsiyalashgan Qo'llab-quvvatlash Samaradorligini Baholash Indeksi (IQSBI) bo'lib u uch o'lchovni – huquqiy-me'yoriy baza, moliyaviy ta'minot va amaliy ijro – sintez qiladi. Har bir o'lchov 10 balli tizimda baholanadi; umumiy IQSBI uchta o'lchovning og'irlashtirilgan o'rtachasi sifatida hisoblanadi (huquqiy baza – 0,30; moliyaviy ta'minot – 0,35; amaliy ijro – 0,35).

Baholash 30 nafar mutaxassis (tibbiyot, ta'lim, ijtimoiy ish va huquqshunoslik sohalari vakillari) bilan o'tkazilgan ekspert so'roviga asoslanadi. Ekspertlar o'rtasidagi kelishuv darajasi Kendallning konkordansiya koeffitsienti ($W=0,71$, $p<0,01$) yordamida tasdiqlandi, bu yuqori darajadagi metodologik ishonchlilikka dalolat beradi.

Asosiy qism

1. Huquqiy-me'yoriy baza: xalqaro qiyosda tahlil

O'zbekistonda IChShlarni qo'llab-quvvat-

lashning huquqiy asosi ko'p qatlamli tizimni tashkil etadi. 1991-yilda qabul qilingan "Nogironlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonun – keyinchalik bir necha bor takomillashtirilgan – ushbu tizimning asosiy me'yoriy hujjati hisoblanadi. 2021-yilgi tahrir qonunni BMT Konvensiyasi qoidalariga muvofiq lashtirdi [1].

2020-yilda qabul qilingan "Inklyuziv ta'lim to'g'risida"gi Qonun IChShlarning ta'lim olish huquqini mustahkamladi. Qonunga asosan, barcha ta'lim muassasalari 2025-yilgacha fizik jihatdan qulay muhitga ega bo'lishi lozim [11]. Huquqiy jihatdan O'zbekiston yaxshi natijalarga erishgan (IQSBI bo'yicha o'rtacha 7,4/10), ammo hujjatlar va ularning hayotdagi bajarilishi o'rtasida katta bo'shliq saqlanib qolmoqda.

2. Xalqaro qiyosiy tahlil (1-jadval)

Muallif tomonidan o'tkazilgan qiyosiy tahlil O'zbekiston, Germaniya, Janubiy Koreya va Qozog'iston ko'rsatkichlarini solishtirishga imkon berdi. Ushbu mamlakatlar turli rivojlanish darajasini, lekin bir-biriga o'xshash huquqiy majburiyatlarni (BMT CRPD ratifikatsiyasi) ifodalashi sababli taqqoslash uchun tanlandi.

1-jadval

O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarning IChSh ko'rsatkichlari bo'yicha qiyosiy tahlil

Ko'rsatkich	O'zbekiston	Germaniya	Janubiy Koreya	Qozog'iston
IChSh ulushi (aholi %)	6,8%	10,3%	5,1%	4,7%
Bandlik darajasi (%)	23%	48%	51%	31%
Inklyuziv maktablar ulushi	30%	89%	94%	47%
Nafaqaning tirikchilik minimumiga nisbati	0,62*	1,42	1,28	0,84
Reabilitatsiya markazlari (100 ming kishiga)	0,42	2,10	1,87	0,71
Qulay muhit (MIPAA indeksi, 100 dan)	38	82	79	52

Manba: Muallif tomonidan Milliy Statistika qo'mitasi (2023), ILO (2021), OECD (2022) va Jahon banki (2023) ma'lumotlari asosida tuzildi.

*O'zbekistonda nafaqaning tirikchilik minimumiga rasmiy nisbat ko'rsatkichi alohida nashr etilmagan; ushbu qiymat muallif tomonidan Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (2022) hisoboti ma'lumotlari asosida hisob-kitob qilingan ko'rsatkich hisoblanadi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda bandlik darajasi (23%) Germaniya (48%) va Janubiy Koreya (51%) ko'rsatkichlaridan sezilarli

darajada past. Inklyuziv maktablar ulushi bo'yicha ham – O'zbekistonda 30% ga qarshi Germaniyada 89%. Bu farqlar huquqiy bazaning kuchligiga

qaramasdan, moliyaviy ta'minot va amaliy ijroning zaifligidan dalolat beradi.

3. IQSBI asosida O'zbekiston qo'llab-quvvatlash tizimini baholash

Ekspert so'rovi natijalari va rasmiy statistika asosida O'zbekistondagi qo'llab-quvvatlash tizimining asosiy sohalari IQSBI metodologiyasi bo'yicha baholandi (2-jadval).

2-jadval.

IQSBI asosida O'zbekistonda IChSh qo'llab-quvvatlash tizimini kompleks baholash natijasi

Qo'llab-quvvatlash sohasi	Huquqiy baza	Moliyaviy ta'minot	Amaliy ijro	Umumiy ball (IQSBI)
Ijtimoiy nafaqalar	8/10	5/10	6/10	6,3
Inklyuziv ta'lim	8/10	6/10	4/10	6,0
Bandlik va ish ta'minoti	7/10	4/10	3/10	4,7
Tibbiy rehabilitatsiya	7/10	5/10	5/10	5,7
Qulay fizik muhit	7/10	4/10	3/10	4,3
O'rtacha IQSBI	7,4	4,8	4,2	5,4

Manba: Muallif tomonidan ekspert so'rovi ($n=30$) va rasmiy ma'lumotlar asosida hisoblangan.

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, tizimning eng zaif bo'g'ini – amaliy ijro (4,2/10). Xususan, bandlik va qulay fizik muhit sohalari amaliy ijro past baholandi (3/10). Huquqiy baza nisbatan kuchli (7,4/10), ammo bu bazaning amaliyotga ko'chirilishida tizimli kamchiliklar mavjud. Umumiy IQSBI ball (5,4/10) tizimning o'rta darajada rivojlanganligini ko'rsatadi va «rivojlanish imkoniyatlar zonasi»da joylashganini bildiradi.

4. Rehabilitatsiya va tibbiy qo'llab-quvvatlash

Mamlakatda 14 ta viloyat rehabilitatsiya markazi faoliyat yuritadi; 2022-yilda ulardan 120 000 dan ortiq kishi foydalandi [13]. Biroq 100 ming kishiga rehabilitatsiya markazi nisbati (0,42) Germaniya ko'rsatkichidan (2,10) 5 barobar past. Xorijiy investitsiyalar hisobiga protez-ortopediya sanoatida texnologik salohiyat oshdi – 7 ta ixtisoslashtirilgan korxona zamonaviy protezlar ishlab chiqarmoqda [14]. Autizm spektri buzilishi va cerebral falaj bilan kasallangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan markazlar soni esa talabga nisbatan hali ham yetarli emas.

5. Inklyuziv ta'lim tizimi

2023-yilgi statistika ma'lumotlariga ko'ra, umumta'lim maktablarida 42 000 dan ortiq IChSh bolalar ta'lim olmoqda – bu 2018-yilga nisbatan 2 barobar ko'p [15]. Biroq maktablarning atigi 30 foizida adaptiv o'quv materiallari mavjud. Oliy ta'limda 6 400 dan ortiq IChSh talaba

2022–2023-o'quv yilida tahsil oldi [15]. IQSBI bo'yicha inklyuziv ta'lim sohasi o'rta baholanadi (6,0/10): huquqiy baza kuchli, ammo amaliy ijro zaif.

6. Bandlik va ish bilan ta'minlash mexanizmlari

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, 50 dan ortiq xodimi bo'lgan korxonalar uchun IChShlarni ish bilan ta'minlash kvotasi 3% etib belgilangan [1]. XMT (2021) ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda IChShlarning bandlik darajasi 23% bo'lib, umumiy ko'rsatkichdan 3 barobar past [10]. Bu IQSBI bo'yicha eng past ball (4,7/10) olgan soha. Kasbiy rehabilitatsiya markazlari taqdim etayotgan kasblar soni cheklangan: an'anaviy sohalarga (tikuvchilik, hunarmandchilik) e'tibor ko'proq bo'lib, IT va raqamli texnologiyalar sohasidagi tayyorgarlik yetarli emas. 2021–2023-yillarda imtiyozli dasturlar doirasida 3 000 dan ortiq IChSh o'z biznesini boshlashga muvaffaq bo'ldi [12].

7. Atrof muhit va qulay sharoit ta'minoti

2020-yildan boshlab yangi qurilish obyektlari uchun qulay sharoit ta'minoti standartlarini qo'llash majburiy etildi. Toshkent metro tizimida maxsus lift va panduslar o'rnatildi. 2023-yilda my.gov.uz portalida qulay foydalanish rejimi – ekran o'quvchisi va yirik matn o'lchami funksiyalari joriy etildi [17]. Biroq MIPAA indeksi bo'yicha O'zbekiston (38 ball) Germaniya (82 ball) va Janubiy Koreya (79 ball)dan sezilarli

orqada. Mavjud infratuzilmani qulay sharoit ta'minoti standartlariga muvofiqlashtirish jarayoni sekin kechmoqda.

Muallif taklif etgan model: «Uch ustunli integratsiya modeli» IQSBI natijalari va qiyosiy tahlil asosida muallif O'zbekiston uchun «Uch Ustunli Integratsiya Modeli» (UIM) ni taklif etadi. Ushbu model uchta yo'nalish – huquqiy-institutsional, moliyaviy-iqtisodiy va ijtimoiy-muhit bo'yicha tizimli islohotlarni ko'zda tutadi hamda ularni bitta mexanizm sifatida muvofiqlashtiradi.

Birinchi ustun – Huquqiy-institutsional integratsiya: amaldagi qonunchilikni IQSBI natijalarini hisobga olgan holda yangilash; vakolatli tashkilotlar o'rtasidagi funksiyalar chegaralanishini aniqlashtirish; monitoringni amalga oshiruvchi mustaqil ekspert komissiyasini tashkil etish. Germaniya tajribasida bu ustun «Bundesagentur für Arbeit» institutining muvofiqlashtiruvchi roli orqali amalga oshirilgan va IChSh bandlik darajasini 31% dan 48% ga ko'tarishga yordam bergan.

Ikkinchi ustun – Moliyaviy-iqtisodiy integratsiya: nogironlik nafaqalarini tirikchilik minimumiga indeksatsiya qilish mexanizmini joriy etish (hozirgi 0,62 nisbatini 0,84-1,0 ga ko'tarish); korxonalar uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalar tizimini kengaytirish; rehabilitatsiya xizmatlarini moliyalashtirishda xususiy-davlat sherikligini rivojlantirish. Qozog'iston tajribasi shuni ko'rsatadiki, bu nisbatni 0,71 dan 0,84 ga ko'tarish IChSh farovonligi indeksini 12% ga yaxshilagan.

Uchinchi ustun – Ijtimoiy-muhit integratsiyasi: inklyuziv ta'lim sifatini oshirish uchun o'qituvchilarga maxsus tayyorgarlik dasturlarini kengaytirish; kasbiy rehabilitatsiyada AT va raqamli kasblarga ustuvorlik berish; infratuzilmani qulay sharoit ta'minoti standartlariga moslashtirish uchun aniq muddatlar va moliyalashtirish manbalari ko'zda tutilgan davlat dasturini qabul qilish. Janubiy Koreya tajribasi bu ustunda ayniqsa samarali – 2010–2020-yillarda inklyuziv maktablar ulushi 67% dan 94% ga ko'tarildi.

UIM ning muhim xususiyati — uch ustun o'rtasidagi sinergiya effekti: huquqiy islohotlar moliyaviy ta'minotsiz samarali bo'lmaydi, moliyaviy ta'minot esa ijtimoiy muhit o'zgarmasa to'liq samara bermaydi. Shu sababli model uchta yo'nalishni parallel ravishda amalga oshirishni va ularning o'zaro muvofiqligini IQSBI indeksi orqali doimiy monitoring qilishni talab qiladi.

Xulosa va takliflar

O'zbekistonda IChShlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlandi. Biroq muallif tomonidan ishlab chiqilgan IQSBI metodologiyasi asosida o'tkazilgan tahlil umumiy baholash (5,4/10) tizimda chuqur tarkibiy nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatdi: huquqiy baza nisbatan kuchli (7,4/10), ammo amaliy ijro keskin past (4,2/10). Xalqaro qiyosiy tahlil O'zbekistonning bandlik, inklyuziv ta'lim va qulay fizik muhit ko'rsatkichlari bo'yicha rivojlangan mamlakatlardan sezilarli orqada qolayotganini isbotladi.

Tadqiqot natijalari asosida va «Uch Ustunli Integratsiya Modeli» doirasida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Ijtimoiy nafaqalar miqdorini tirikchilik minimumiga nisbatan indeksatsiya qilish mexanizmini joriy etish va hududiy farqlanishni bartaraf etish (IQSBI moliyaviy yo'nalishi: 4,8/10 dan 7,0/10 ga ko'tarish maqsadi).

2. Kasbiy rehabilitatsiya dasturlarini zamonaviy mehnat bozori talablariga – xususan AT va raqamli texnologiyalar sohasiga yo'naltirish; bandlik kvotasi monitoring tizimini kuchaytirish.

3. Inklyuziv ta'lim sifatini oshirish maqsadida o'qituvchilar uchun maxsus tayyorgarlik dasturlarini kengaytirish va maktablarni adaptiv o'quv materiallari bilan ta'minlash (maqsad: 30% dan 60% ga ko'tarish).

4. Mavjud infratuzilma obyektlarini qulay sharoit ta'minoti standartlariga muvofiqlashtirish bo'yicha aniq muddatlar va moliyalashtirish manbalari ko'zda tutilgan davlat dasturini 2025-yilgacha qabul qilish.

5. IQSBI indeksini muntazam (yillik) monitoring vositasi sifatida institutlashtirish:

Bandlik vazirligi huzurida mustaqil monitoringni amalga oshiruvchi komissiya tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda IChShlarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish uchun muallif taklif etgan

«Uch Ustunli Integratsiya Modeli» va IQSBI metodologiyasi ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu yondashuv tizimni parcha-parcha emas, balki kompleks va sinergik tarzda isloh qilishga imkon beradi.

Manba va adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Nogironlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent: O'zR Qonun hujjatlari milliy ma'lumotlar bazasi, 2021 yil tahriri. – URL: <https://lex.uz>
2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya (CRPD). – Nyu-York: BMT, 2006. – 30 b.
3. Lid, L., Solvang, P.K. Disability and the Nordic Welfare States // *Disability & Society*. – 2016. – Vol. 31(8). – P. 1126-1139.
4. Oliver, M. *Understanding Disability: From Theory to Practice*. – London: Macmillan, 1996. – 192 p.
5. Barnes, C. *Understanding the Social Model of Disability // Theories and Models of Disability*. – London: Routledge, 2012. – P. 12–29.
6. Ilolov, M. va boshq. O'rta Osiyoda inklyuziv ta'limning rivojlanish muammolari // *O'zbekiston pedagogika jurnali*. – 2019. – № 4. – B. 45-53.
7. Rahimov, N. O'zbekistonda nogironlarga mo'ljallangan davlat dasturlarining samaradorligi // *Iqtisodiyot va jamiyat*. – 2020. – № 2. – B. 78-89.
8. Toshmatov, B. O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining huquqiy asoslari // *Huquq va jamiyat*. – 2021. – № 1. – B. 112-125.
9. Yusupova, M. Nogironlik va ijtimoiy integratsiya: O'zbekiston tajribasi // *Ijtimoiy fanlar*. – 2022. – № 3. – B. 34-47.
10. International Labour Organization (ILO). *Disability and Work in Uzbekistan: An Assessment Report*. – Geneva: ILO, 2021. – 54 p.
11. O'zbekiston Respublikasining "Inklyuziv ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020. – URL: <https://lex.uz>
12. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. *Ijtimoiy statistika: aholining ijtimoiy himoyasi (2023)*. – Toshkent, 2023. – 112 b.
13. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi. *2022-yil faoliyat hisoboti*. – Toshkent, 2023. – 78 b.
14. Alimov, R. Protez-ortopediya sanoatini rivojlantirish istiqbollari // *Tibbiyot va sog'liqni saqlash*. – 2022. – № 5. – B. 23-31.
15. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. *Inklyuziv ta'lim statistikasi 2022-2023*. – Toshkent, 2023. – 45 b.
16. OECD. *Health at a Glance 2022: Disability and Long-Term Care*. – Paris: OECD Publishing, 2022. – 240 p.
17. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. *Raqamli xizmatlar va qulay sharoit ta'mini: 2023-yil hisoboti*. – Toshkent, 2023. – URL: <https://mict.uz>
18. World Bank. *Disability Inclusion and Accountability Framework*. – Washington DC: World Bank, 2018. – 62 p.

УЎК: 330.101(575.1)

Наргиза АЗГАРОВА (МУРАДОВА),
PhD(по экономическим наукам),
доцент Самаркандского филиала
Ташкентского международного университета Кимё,
независимый соискатель Высшей школы бизнеса
и предпринимательства при Кабинете Министров Республики Узбекистан (Узбекистан),
E-mail: muradova.nargiza@bk.ru

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ ПРИ ВЫБОРЕ ВУЗА ПО КРИТЕРИЯМ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ

Аннотация. В условиях стремительной цифровой трансформации системы высшего образования актуализируется проблема формализации процесса выбора вуза абитуриентами. Настоящее исследование разрабатывает интегрированную модель принятия решений, основанную на сочетании метода анализа иерархий – МАИ/АНР (МАИ (метод анализа иерархий) / АНР (Analytic Hierarchy Process)) и метода TOPSIS (Technique for Order Preference by Similarity to Ideal Solution – метод упорядоченного предпочтения через сходство с идеальным решением), адаптированных к критериям конкурентоспособности вузов в цифровой среде. Предложенная модель обеспечивает основу для стратегического позиционирования вузов в конкурентной цифровой среде.

Ключевые слова: выбор вуза, конкурентоспособность высшего образования, цифровая среда, MCDM-модель (MCDM – Multi-Criteria Decision Making, многокритериальное принятие решений), метод анализа иерархий (МАИ/АНР), TOPSIS, цифровая трансформация, Узбекистан.

**Raqamli muhitda raqobatbardoshlik
mezonlari asosida oliy ta'lim muassasasini
tanlashda qaror qabul qilishning metodologik
yondashuvi**

Nargiza Azgarova (Muradova),
PhD (iqtisodiyot fanlari bo'yicha),
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Samarqand filiali dotsenti,
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Biznes va tadbirkorlik
oliy maktabining mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Oliy ta'lim tizimining jadal raqamli transformatsiyasi sharoitida abituriyentlar tomonidan oliy ta'lim muassasasini tanlash jarayonini formallashtirish muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur tadqiqot oliy ta'lim muassasalarining raqamli muhitdagi raqobatbardoshlik mezonlariga moslashtirilgan Ierarxiyalarni tahlil qilish usuli (MAI/AHP) va TOPSIS usuli kombinatsiyasiga asoslangan integratsiyalashgan qaror qabul qilish modelini ishlab chiqadi. Taklif etilgan model raqobatbardosh raqamli muhitda oliy ta'lim muassasalarini strategik pozitsiyalash uchun operatsion asosni ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: OTM tanlovi, oliy ta'limning raqobatbardoshligi, raqamli muhit, MCDM modeli, iyerarxiyalarni tahlil qilish metodi (ITM), TOPSIS metodi, raqamli transformatsiya, O'zbekiston.

**Methodological approach to
decision-making in university selection based**

on competitiveness criteria in the digital environment

Nargiza Azgarova (Muradova),

PhD (in Economics),

associate Professor, Samarkand branch of Kimyo International University in Tashkent, Independent Researcher of the Graduate School of Business and Entrepreneurship under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan,

Abstract. *In the context of the rapid digital transformation of the higher education system, the problem of formalizing the university selection process by applicants is becoming increasingly relevant. This study develops an integrated decision-making model based on the combination of the Analytic Hierarchy Process (AHP) and the TOPSIS method, adapted to the criteria of university competitiveness in the digital environment. The proposed model provides an operational framework for the strategic positioning of universities in a competitive digital environment.*

Keywords: *university selection, competitiveness of higher education, digital environment, MCDM model, Analytic Hierarchy Process (AHP), TOPSIS, digital transformation, Uzbekistan.*

Введение

Manba: muallif tomonidan Qishloq xo'jaligi vazirligi (2024). Import tarkibi tahlili, Milliy statistika qo'mitasi (2024). Tashqi savdo statistikasi hamda Bojxona qo'mitasi (2024). Tashqi savdo statistikasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

2021-yilda import qilingan go'sht va go'sht mahsulotlari uchun bojxona bojidani 7 166,8 mln so'm imtiyozlar berilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib berilgan imtiyozlar miqdori 24,2 barobarga (2022-yilda 78 560,1 mln so'm, 2024-yilda 173 823,3 mln so'm) oshib, 166 656,5 mln so'mni tashkil etgan.

8-jadval

QQSdan berilgan imtiyozlar (mln. so'mda)

№	Hujjat	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	Jami
1	Soliq kodeksining 483-moddasi	100 013,8	426 286,2	956,9	-	527 256,9
2	Vazirlar Mahkamasining 06.01.2022-yildagi 6-son qarori	-	30 518,7	-	-	30 518,7
3	O'z.Res. Prezidentining 30.12.2021-yildagi PQ-73-son qarori	-	5 234,6	9 969,1	240,8	15 444,5
4	2013-yildagi Xalqaro kelishuv	1 058,1	2 740,3	4 246,1	6 181,8	14 226,3
5	Vazirlar Mahkamasining 07.10.2021-yildagi 627-60-son qarori	6 386,0	-	-	-	6 386

6	O'z.Res. Prezidentining 28.12.2023-yildagi PF-217-son farmoni	-	-	-	12 321,6	12 321,6
7	Vazirlar Mahkamasining 28.04.2022-yildagi 218-son qarori	-	4 218,1	-	-	4 218,1
8	O'z.Res. Prezidentining 23.03.2023-yildagi PF-41-son farmoni	-	-	496,5	1 050,7	1 547,2
9	O'z.Res. Prezidentining 31.05.2022-yildagi PF-145-son farmoni	-	8,7	367,7	1 063,8	1 440,2
10	1994-yildagi Xalqaro kelishuv	1,1	-	2,4	-	3,5
Jami		107 459,0	469 006,6	16 038,8	20 858,8	613 363,0

Manba: muallif tomonidan Qishloq xo'jaligi vazirligi (2024). Import tarkibi tahlili, Milliy statistika qo'mitasi (2024). Tashqi savdo statistikasi hamda Bojxona qo'mitasi (2024). Tashqi savdo statistikasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

2021-yilda import qilingan go'sht va go'sht mahsulotlari uchun QQSdan 107,5 mlrd so'm imtiyozlar berilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib berilgan imtiyozlar miqdori 6,7 barobarga ortib, 469,0 mlrd so'mni tashkil etgan. 2024-yil QQSdan imtiyoz 5,2 barobar kamayib 86,6 mlrd so'mni tashkil etgan.

9-jadval

2021–2024-yillarda import qilingan go'sht va go'sht mahsulotlari uchun undirilgan bojxona to'lovlari

№	Yillar	Qiymati (mln. doll)	Undirilgan to'lovlar (mln. so'm)	Shundan		
				Bojxona boji	Aksiz	QQS
1	2021-yilda	188,4	300 637,50	11 635,6	87 588,2	201 413,7
2	2022-yilda	319,4	87 614,10	9 592,1	-	78 022,0
3	2023-yilda	352,2	516 418,60	8 080,0	-	508 338,6
4	2024-yilda	517,8	811 446,7	6 058,6	0,0	805 388,1
Jami:		1 377,8	1 716 116,9	35 366,3	87 588,2	1 593 162,4

Manba: muallif tomonidan Qishloq xo'jaligi vazirligi (2024). Import tarkibi tahlili, Milliy statistika qo'mitasi (2024). Tashqi savdo statistikasi hamda Bojxona qo'mitasi (2024). Tashqi savdo statistikasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

2024-yilda import qilingan go'sht va go'sht mahsulotlari uchun 6,1 mlrd so'm bojxona bojlari undirilib, 2021-yilga nisbatan 48% ga kamaygan bo'lsa (2021-yilda 11,6 mlrd, 2022-yilda 9,6 mlrd so'm), aksincha 2024-yilda 805,4 mlrd so'm QQS undirilib, 2021-yilga nisbatan 4 barobarga, 2022-yilga nisbatan 10,3 barobarga ortgan (2021-yilda 201,4 mlrd, 2022-yilda 78 mlrd so'm). Yuqoridagilardan aytish mumkinki, so'ngi yillarda go'sht va go'sht mahsulotlari importida QQSdan imtiyoz deyarli bekor qilingan bo'lib, import

bojidan berilayotgan imtiyozlar sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Tarif siyosati nazariyasiga ko'ra import hajmi ortib borayotgan mahsulotlar uchun imtiyozlar bekor qilinib, yuqoriroq boj stavkalari belgilanadi. Lekin, mamlakatimizda go'sht mahsulotlari importi oshayotgan bo'lsada, bu ichki iste'molning o'rtacha 6,5%ini (2021-yilda 5,6 %, 2022-yilda 6,5 %, 2023-yilda 7,5 %) tashkil etayotganligi, ichki bozorda narxning yuqorilashi davom etayotganligi sababli imtiyozlarni bekor qilish va

tarif stavkalarini oshirish maqsadga muvofiq emas deb hisoblaymiz.

Go'sht va go'sht mahsulotlari iste'moli fondini shakllantirishda tirik hayvonlarni yetishtirish va import qilish muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda Respublika bo'ylab so'yish uchun yetishtirilgan (boqilgan) jami hayvonlarning (mol, qo'y, parranda, echki, cho'chqa, ot, tuya, quyon va boshqa tirik

hayvonlar) tirik holatdagi umumiy vazni 2 833,2 ming tn (2021-yilda 2635,1 ming tn, 2022-yilda 2725,9 ming tn)ni tashkil etgan².

Mamlakatda so'yish uchun yetishtirilgan (boqilgan) tirik hayvonlarning asosiy qismini yirik shoxli qoramollar tashkil etadi. Jumladan, 2023-yilda so'yish uchun yetishtirilgan (boqilgan) yirik shoxli qoramollar 2 077,5 ming tn yoki 73%ni (2021-yilda 1987,4 ming tn, 2022-yilda 2025,7 ming tn) tashkil etgan [2] (3-rasm).



3-rasm. 2021–2023-yillarda so'yish uchun yetishtirilgan tirik hayvonlar vazni (ming tn)

Manba: muallif tomonidan Qishloq xo'jaligi vazirligi (2024). Import tarkibi tahlili, Milliy statistika qo'mitasi (2024). Chorva mollari statistikasi hamda Bojxona qo'mitasi (2024). Tashqi savdo statistikasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Shuningdek, 2021–2024-yillarda mos ravishda 68,8 ming, 35,2 ming, 54,0 ming va 105,2 ming tn tirik hayvonlar import qilinib, ularning importi yiliga o'rtacha 60–65 ming tn.ga to'g'ri kelmoqda (10-jadval).

10-jadval

2021–2024-yillarda import qilingan tirik hayvonlar

Olib kirish maqsadi	2021 y.		2022 y.		2023 y.		2024 y.	
	Vazni (tn)	Ulushi %	Vazni (tn)	Ulushi %	Vazni (tn)	Ulushi %	Vazni (tn)	Ulushi %
So'yish uchun	45 057,9	65,5	11 737,9	33,3	37 313,8	69,1	20 713,6	19,7
Zotli naslli hayvonlar	16 116,9	23,4	18 793,6	53,3	16 423,8	30,4	39 977,5	38,0
Boshqa maqsadlarda olib kelingan tirik xayvonlar	7 630,9	11,1	4 709,7	13,4	298,8	0,6	44 520,3	42,3
jami	68 805,7	100	35 241,3	100	54 036,5	100	105 211,4	100

Manba: muallif tomonidan Qishloq xo'jaligi vazirligi(2024). Import tarkibi tahlili, Milliy statistika qo'mitasi (2024). Tashqi savdo statistikasi hamda Bojxona qo'mitasi (2024). Tashqi savdo statistikasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

2. Jami so'yish uchun yetishtirilgan mollar va parrandalar (tirik vaznda), <https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya>

2024-yilda import qilingan tirik hayvonlarning 20,7 ming tonnasi yoki jami importning 19,7%ini so'yish (qolganlari naslchilik va boshqa maqsadlarda) maqsadida olib kelingan tirik hayvonlar tashkil etgan (11-jadval).

11-jadval

So'yish uchun olib kelingan tirik hayvonlarning turlari

Hayvon turlari	2021 y.		2022 y.		2023 y.		2024 y.	
	Vazni (tn)	Ulushi %	Vazni (tn)	Ulushi %	Vazni (tn)	Ulushi %	Vazni (tn)	Ulushi %
Qoramol	39 395,7	87,4	6 423,6	54,7	34 001,5	91,1	69 954,6	66,6
Qo'y va echki	5 595,0	12,4	4 925,5	42,0	1 968,6	5,3	26 890,2	25,6
Otlar	59,2	0,1	284,2	2,4	1 295,5	3,5	8 086,4	7,7
Quyov	8,0	0,0	29,8	0,3	10,7	0,0	-	0,0
Cho'chqa	-	0,0	74,9	0,6	37,5	0,1	114	0,1
Jami	45 057,9	100	11 738,0	100	37 313,8	100,0	105 045,3	100

Manba: muallif tomonidan Qishloq xo'jaligi vazirligi (2024). Import tarkibi tahlili, Milliy statistika qo'mitasi (2024). Chorva mollari statistikasi hamda Bojxona qo'mitasi (2024). Tashqi savdo statistikasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

2024-yilda so'yish uchun olib kelingan tirik hayvonlarning 66,6%ini yoki 70 ming tonnasi yirik shoxli qoramollar tashkil etgan (2021-yilda 39,4 ming tonna yoki 87,4%, 2022-yilda 6,4 ming tonna yoki 54,7%, 2023-yilda 34 ming tonna yoki 91%), 2022-yilda tirik hayvonlarning importi 2021-yilga nisbatan 4,2 barobarga kamaygan.

Mamlakatda barcha toifadagi xo'jaliklarda parvarish qilinayotgan chorva hayvonlarning 85–90 %i (2018-yilda 95,5%, 2022-yilda 91,8%) aholi xonadonlariga, 8–10 %i (2018-yilda 4,5%, 2022-yilda 8,2%) fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

“Ishonch.uz” axborot-tahliliy portali muhbiri Feruza Rahimovanning 2023-yil sentabrdagi maqolasida mamlakatimizda go'sht uchun chorva hayvonlarini yetishtirish tadbirkorlar uchun samarali biznes emasligi, chorvachilikdagi 92% go'sht aholining qo'lida bo'lib, bundan 7-8 yil ilgari bu ko'rsatkich 98%ni tashkil etganligi ta'kidlanadi. Shuningdek, aholida go'sht uchun chorva hayvonlarini yetishtirish ko'paymas ekan yaqin kunlarda go'sht narxi oshishda davom etadi deb xulosa qilinadi maqolada³.

Chorvachilikning mehnati og'ir. Bitta molni go'shtga boqish uchun kamida 90–100 kun davomida mehnat qilish talab etiladi. Ko'p xarajat, og'ir mehnat pirovardida esa kam foyda olish, aholini bu sohaga bo'lgan qiziqishini kamayishiga olib kelmoqda.

Bugungi kunda go'shtga bo'lgan talab oldingidan ancha yuqori va bu talab kundan kunga ortib bormoqda. Go'sht tannarxining 65 foizini yem-xashak tashkil qiladi. Aholi yem-xashakdan qiynalgani uchun ham chorvachilikda muammolarga duch kelinmoqda.

Eng asosiysi chorva soniga nisbatan ozuqa infratuzilmasi ortda qolmoqda. Chorva ozuqasiga bo'lgan talab 160 mln tonnadan ortiq bo'lib, 2020-yilda atigi 75 mln tonnaga yaqin ozuqa ishlab chiqarilgan va ehtiyojning 46 foizi ichki imkoniyatlar hisobidan qondiriladi⁴.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksiga muvofiq (461-modda. Bo'sh turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarining ajratiladigan o'lchamlari), fermer xo'jaliklariga va boshqa yuridik shaxslarga, shuningdek agrosanoat klasterlari,

3. Feruza RAHIMOVA, Go'sht narxi qimmatlashishi: chorvachilik inqiroz yoqasidami? ishonch.uz 26.09.2023 <https://ishonch.uz/news/gst-narhi-immatlashishi-chorvachilik-ini-1>

4. Xusainov O.J. Chorvachilik tarmog'iga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari <https://cyberleninka.ru/article/n/chorvachilik-tarmo-iga-hizmat-k-rsatuvchi-infratuzilma-faoliyati-samaradorligini-oshirish-yo'llari-1/pdf>

shu jumladan kooperatsiya shaklidagi klasterlar uchun chorvachilik mahsulotini ishlab chiqarishga ixtisoslashganlarga ozuqa ekinlarni yetishtirish uchun (shartli bir bosh qoramol uchun) – sugʻoriladigan yerlardan – kamida 0,3 gektar, lalmikor yerlardan – kamida 1 gektar, yaylovlar va pichanzorlardan – kamida 2 gektar yer maydonlari ajratilishi belgilangan [7].

2021-yilda chorvachilik subyektlariga ozuqabop ekinlar ekish uchun 339,7 ming gektar ajratilgan asosiy yer maydonlardan 37 ming gektariga yangi beda (100 ming gektar eski beda mavjud), 158,5 ming gektariga silos uchun makkajoʻxori, 31,8 ming gektariga oq joʻxori, 13,8 ming gektariga xashaki lavlagi, gʻalladan boʻshagan 177,4 ming gektar yer maydonlariga takroriy ozuqabop ekinlar ekilgan [5].

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008-yil 10-yanvarda 1758-son bilan roʻyxatdan oʻtgan “Paxta yetishtiruvchi qishloq xoʻjaligi korxonalariga paxtani qayta ishlash natijasida olinadigan chigitdan chiqadigan paxta sheluxasi va kunjarasidan ularga tegishli boʻlgan miqdorni qaytarish tartibi toʻgʻrisida”gi nizomga muvofiq, paxta yetishtiruvchi xoʻjaliklar tomonidan amalda sotilgan paxta xom ashyosidan (urugʻlik paxtadan tashqari) ishlab chiqariladigan texnik chigitdan chiqadigan sheluxa va kunjaraning 70 foizi ular ixtiyorida qolishi belgilangan, biroq Qishloq va suv xoʻjaligi vazirining 2010-yil 15-oktyabrda 170-son buyrugʻi (Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 21-oktabrda 1758-1-son bilan roʻyxatdan oʻtgan) bilan mazkur tartib 2010-yilning 31-oktabr kunidan bekor qilingan [8].

Bundan tashqari, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-yanvardagi “Chorvachilik xoʻjaliklariga xorijiy davlatlardan import qilingan nasldor qoramol, qoʻy va echkilar uchun subsidiya ajratish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 52-son qaroriga asosan, chorvachilik xoʻjaliklariga xorijiy davlatlardan import qilingan nasldor qoramolning har bir boshiga 2 mln soʻmdan, nasldor qoʻy va

echkining har bir boshiga 400 ming soʻmdan subsidiya ajratilishi belgilangan [6].

Mazkur qaror bilan faqatgina xorijiy davlatlardan import qilingan nasldor qoramollar, qoʻy va echkilar uchun subsidiya ajratilishi belgilanganligi, biroq naslchilikni rivojlantirish, bu borada tadqiqot va tajribalarni amalga oshirish uchun respublikamizda yetarlicha shart-sharoitlar mavjud. Oʻzbekistonda yiliga aholi jon boshiga goʻsht va goʻsht mahsulotlari isteʼmoli belgilangan miqdordan yuqori boʻlsa-da, aholining daromadiga nisbatan goʻshtning narxi balandligi saqlanib qolmoqda.

2024-yilning iyul – avgust oylarida goʻshtning chakana savdodagi narxi sezilarli ravishda oshdi. Goʻsht narxining oshish sabablarini oʻrganish maqsadida yaqin hududlardagi bozorlar, chorvachilik bilan shugʻullanuvchi fermer xoʻjaliklari bilan gaplashilganida, narxning oshishi 2025-yilning iyun-iyul oylarida havo haroratining keskin koʻtarilishi natijasida, goʻsht va goʻsht mahsulotlarini saqlash uchun qoʻshimcha xarajat qilinganligi, oʻz navbatida elektr energiyasi uchun limitlarning joriy qilinganligi, shuningdek gaz quyish shoxobchalarida avtomobillar uchun siqilgan (metan) va suyultirilgan (propan) gazlarning chakana sotuv narxlarining oshganligi ortidan transport xarajatlari oshganligi sabab boʻlayotganligi maʼlum boʻldi.

Goʻsht va goʻsht mahsulotlarining narxleri balandligining asosiy sabablaridan biri ishlab chiqarish (yetishtirish) xarajatlarining yuqoriligidir.

Bular asosan, qishloq xoʻjaligi hayvonlari uchun ozuqa yemlarining qimmatligi, transport xarajatlari, ozuqabop oʻsimliklarni (makkajoʻxori, beda, arpa...) yetishtirish uchun ajratilgan yerlarning kamligi va boshqalar. Ushbu masalada qishloq xoʻjaligi hayvonlarini yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xoʻjaliklari bilan gaplashilganida, bugungi kunda aksariyat fermer xoʻjaliklari chorva hayvonlarini yetishtirishda zarar koʻrayotganligi, ushbu zarar fermer xoʻjaligiga ajratilgan yerlarga ekilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlaridan (ortiqcha

hosilni sotish va dehqon xo'jaliklariga ikkinchi ekin ekish uchun ijaraga berish) olingan foyda hisobiga qoplanayotganligi ma'lum bo'ldi.

Bu esa o'z navbatida fermerlarga chorva hayvonlarini qo'shib ko'rsatish hisobiga ekin maydonlarini kengaytirish imkonini yaratish bilan birga, yetishtirilayotgan tirik hayvonlarning hisobi noto'g'ri yuritilishiga sabab bo'ladi.

Go'sht va go'sht mahsulotlarini ichki ishlab chiqarishning hisobini yuritishda dastlab qishloq va MFYlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar (hisobotlar) tuman hokimliklari tomonidan jamlanadi va viloyat hokimliklariga yuboriladi, viloyat hokimligi tumanlardan kelib tushgan ma'lumotlarni respublikaga taqdim etadi va shu tariqa statistik ma'lumotlar shakllantiriladi. Bundan shuni ko'rish mumkinki, go'sht va go'sht mahsulotlarini ichki ishlab chiqarishning hisobini yuritishda yaxlit shaffof mexanizmning yo'qligi sababli go'sht narxini oldindan prognoz qilish imkoni yo'q.

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki yaqin yillarda mamlakatda go'sht importiga qaramlik yuzaga kelish xavfi mavjud emas, ichki narxlar barqarorligini ta'minlash maqsadida go'sht va go'sht mahsulotlari uchun import bo'jxona bo'jidan imtiyozlarni davom ettirish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, mahalliy qassoblar tomonidan sanitariya talablariga javob bermaydigan xususiy qushxonalarda so'yilgan chorva hayvonlarining ikkilamchi submahsulotlarini (qorin, ichak va h.k.) belgilanmagan joylarga (tashlandiq yerlar, soy, anhorlarga) tashlanishi oqibatida har xil turdagi kasalliklarning tarqalishi hamda atrof-muhitga zarur yetkazish holatlari uchramoqda.

Aholi tomonidan chorva hayvonlarini yetishtirish uchun qulay sharoit va imtiyozlar (ozuqabop ekinlarni yetishtirish uchun yer, arzonlashtirilgan ozuqa yemlari, chorva hayvonlarini boqib, o'z-o'zini band qilganligi uchun soliq to'lovlaridan imtiyozlar kabi) berilmas ekan, go'sht va go'sht mahsulotlarining narxi yuqoriligicha qoladi. O'zbekistonda chorva hayvonlari uchun ozuqa yemlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar o'zi ishlab chiqargan

mahsulotlarni birja orqali ochiq savdolarida sotishi belgilangan.

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, birjada chorcachilik bilan shug'ullanuvchi kichik fermer xo'jaliklari ehtiyojiga yetarli bo'lgan kichik hajmdagi savdolar (lotlar) o'ynalmaydi, kichik fermer xo'jaliklarida ko'p miqdorda ozuqa yemni sotib olish uchun yetarli pul mablag'i bo'lmaydi. O'z navbatida kichik fermer xo'jaliklari ikkilamchi bozorda qimmat narxga ozuqa yemlarini sotib olishga majbur bo'lmoqda.

Xuddi shu kabi holatlar chorcachilik bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaliklariga ozuqabop o'simliklarni yetishtirish uchun yer maydonlarini ajratish, yoki yer-auksion orqali sotib olishda ham uchramoqda. Jumladan, fermer xo'jaliklari uchun zarur yer maydoni u joylashgan joydan uzoqda bo'lishi, yoki yer-auksionda unga kerak bo'lgan o'lchamdagi va joydagi yer maydonini topish qiyinligi, shuningdek yer-auksion orqali faqatgina bir marotaba yer xarid qilish mumkinligi kabi muammolar mavjud.

Xulosa va takliflar

Ichki balansning shaffof, haqqoniy yuritilishini ta'minlash maqsadida barcha xo'jaliklar tomonidan yetishtirilayotgan, hususan parvarishlanayotgan tirik hayvonlar hisobini yuritishga mo'ljallangan avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratish orqali oziq-ovqat zaxirasini shakllantirishda noreal statistikaning oldini olishga erishiladi. Bugungi kun talablaridan kelib chiqib, fermer xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan paxtani qayta ishlash natijasida olinadigan chigitdan chiqadigan paxta sheluxasi va kunjaraning ma'lum bir qismini fermer xo'jaliklariga qaytarish mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Kichik fermer xo'jaliklariga ozuqa-yem ishlab chiqaruvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish hamda chorva ozuqasi uchun fermer xo'jaliklariga subsidiyalar ajratish; go'sht mahsulotlari hisobdorligini oshirish hamda chorva hayvonlarining ikkilamchi submahsulotlari eksportini yo'lga qo'yish maqsadida xorijiy va mahalliy investorlarni jalb etgan holda zamonaviy qushxonalarni tashkil etish zarur.

Chorvachilik bilan shug'ullanadigan fermer xo'jaliklari uchun zarur yer maydoni u joylashgan joydan uzoqda bo'lishi yoki yer-auksionda unga kerak bo'lgan o'lchamdagi va joydagi yer maydonini topish qiyinligi, shuningdek yer-auksion orqali faqatgina bir marotaba yer xarid qilish mumkinligi kabi muammolarning oldini olishda chorvachilik bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaliklariga yer ajratish tizimini soddalashtirish va yerdan foydalanishda (texnika, yoqilg'i...) alohida imtiyozlar berish orqali go'sht va go'sht mahsulotlari narxini pasaytirish mumkin.

Bugungi kunda qo'y va echkichilikni rivojlantirish orqali qo'y va echki go'shtini O'zbekistondan eksport qilish uchun yetarlicha shart-sharoitlar mavjud. Shu sababdan mamlakatimizda go'sht va go'sht mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash, shuningdek innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida chorvachilik yo'nalishida qo'shimcha zarur subsidiya va moliyaviy ko'mak berilishi lozim. Bu orqali, samarali istiqbolga ega bo'lish va importning o'rnini bosuvchi nasldor qoramollar, qo'y va echkilar yetishtirilishiga imkon yaratiladi.

Manba va adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi. (2024). *Tashqi savdo statistikasi*. – Toshkent: Bojxona qo'mitasi nashriyoti.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. (2024). *Importyorlar ma'lumotlar bazasi tahlili*. – Toshkent: Soliq qo'mitasi nashriyoti.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2024). *Chorva mollari statistikasi*. – Toshkent: Statistika agentligi nashriyoti.
4. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi. (2024). *Import tarkibi tahlili*. – Toshkent: Qishloq xo'jaligi vazirligi nashriyoti.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2023). 85-sonli "Oziq-ovqat iste'moli me'yorlari to'g'risida"gi qarori. Toshkent: Adliya vazirligi nashriyoti.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2024). 52-sonli "Chorvachilik xo'jaliklariga subsidiyalar ajratish tartibi to'g'risida"gi qarori. – Toshkent: Adliya vazirligi nashriyoti.
7. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi. (2023). 461-modda. Qishloq xo'jaligi yerlari ajratish me'yorlari. – Toshkent: Adliya vazirligi nashriyoti.
8. Qishloq xo'jaligi tadqiqot instituti. (2024). *Paxta chiqindilaridan foydalanish*. Toshkent: Qishloq xo'jaligi nashriyoti.
9. Rahimova, F. (2023). O'zbekistonda go'sht ishlab chiqarish tahlili. "Ishonch.uz" axborot-tahliliy portali.
10. Alexandratos, N., & Bruinsma, J. (2023). *World agriculture towards 2030/2050*. FAO Agricultural Development Economics Division Working Paper, 12(3), 45-67.
11. Baldwin, R., & Evenett, S. (2023). *Trade policy in developing countries*. *Journal of International Economics*, 145, 103-125.
12. Eurasian Economic Commission. (2024). *Comparative price analysis in CIS countries*. Moscow: EEC Publications.
13. Food and Agriculture Organization of the United Nations. (2023). *The state of food security and nutrition in the world*. Rome: FAO Publications.
14. International Trade Centre. (2024). *Uzbekistan import geography analysis*. Geneva: ITC Publications.

УЎК: 633.1:338.43

G‘ayrat IBRAGIMOV,
PhD (iqtisodiyot fanlari bo‘yicha),
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Samarqand filiali dotsenti (O‘zbekiston),
E-mail: ibragimov.gayrat@sbtsue.uz

G‘ALLA YETISHTIRISHNING OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA’SIRI

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot O‘zbekistonning eng ko‘p aholiga ega viloyati – Samarqand viloyatida g‘alla yetishtirishning oziq-ovqat xavfsizligiga ta’sirini 2021–2025-yillar ma’lumotlari asosida baholashga qaratilgan. Maqolada suv tejovchi texnologiyalar, yuqori samarali navlar va kooperativ tizimni kengaytirish orqali hosildorlikni gektaridan 5,0 tonnaga (keyingi o‘rinlarda – 5.0 t/ga) yetkazish, g‘alla saqlash quvvatlarini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *g‘alla, bug‘doy, oziq-ovqat xavfsizligi, bug‘doy bilan o‘z-o‘zini ta’minlash.*

Влияние производство зерна на продовольственную безопасность

Гайрат Ибрагимов,
*PhD (по экономическим наукам),
доцент Самаркандского филиала
Ташкентского государственного
экономического университета*

Аннотация. *Целью данного исследования является оценка влияния производства зерна на продовольственную безопасность в самом густонаселенном регионе Узбекистана, Самаркандской области, на основе данных за 2021–2025 годы. В статье представлены рекомендации по повышению урожайности до 5,0 т/га и увеличению емкости зернохранилищ за счет водосберегающих технологий, высокоурожайных сортов и расширения кооперативной системы.*

Ключевые слова: *зерно, пшеница, продовольственная безопасность, самообеспечение пшеницей.*

The impact of grain production on food security

Gayrat Ibragimov,
*PhD (in Economics),
associate professor, Samarkand branch of
Tashkent State University of Economics*

Abstract. *The objective of this study is to assess the impact of grain production on food security in Uzbekistan’s most densely populated region, Samarkand, based on data for 2021–2025. The article presents recommendations for increasing yields to 5.0 t/ha and expanding grain storage capacity through water-saving technologies, high-yielding varieties, and expansion of the cooperative system.*

Keywords: *grain, wheat, food security, wheat self-sufficiency.*

Kirish

Oziq-ovqat xavfsizligi – har bir shaxs va har qanday vaqtda faol va sog‘lom hayot kechirish uchun o‘z ehtiyojlari va oziq-ovqat xohish-istaklariga mos keladigan yetarli, xavfsiz va foydali oziq-ovqatga jismoniy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan yetisha olish holati sifatida ta’riflanadi [13]. Bu to‘rt asosiy ustun – mavjudlik, foydalanish imkoni, foydalanish va barqarorlik – orqali ta’minlanadi.

Samarqand viloyati O'zbekistonning eng ko'p aholiga ega hududi bo'lib, 2025-yil holatiga ko'ra doimiy aholisi 4,37 million kishini tashkil etadi [16]. Bu respublika aholisining 11,4 foiziga teng. Viloyat aholisining asosiy qismi qishloq joylarda yashaydi va qishloq xo'jaligi ularning asosiy tirikchilik manbai hisoblanadi.

Zarafshon daryosi havzasida joylashgan Samarqand viloyati sug'oriladigan dehqonchilik uchun qulay tabiiy-iqlim sharoitiga ega. Viloyatda 14 tuman, 11 shahar va 88 ta shaharcha mavjud. Bug'doy yetishtirish uchun ajratilgan maydon 195 ming gektarni tashkil etib, bu respublika bo'yicha katta ko'rsatkichlar qatoriga kiradi [16].

2021–2025-yillarda O'zbekistonda qishloq xo'jaligini isloh qilish jarayoni faollashdi: 2022-yil iyundan g'alla savdosida bozor narxlariga o'tildi, fermer xo'jaliklariga qo'shimcha yer uchastkalari ajratildi va suv tejovchi texnologiyalar joriy etila boshlandi. Ushbu davrda Samarqand viloyatida g'alla yetishtirishning oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirini baholash ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi [17].

Maqola davomida tadqiqot maqsadi sifatida Samarqand viloyatida g'alla yetishtirishning 2021–2025-yillardagi dinamikasini tahlil etish va oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirini miqdoriy baholashni belgilab oldik. Bundan kelib chiqib, tadqiqot vazifalari sifatida: viloyat aholisining g'allaga ehtiyojini aniqlash; don yetishtirish dinamikasini tahlil etish; tumanlar bo'yicha ishlab chiqarish taqsimotini ko'rish; oziq-ovqat xavfsizligi ko'rsatkichlarini baholash; rivojlantirishga doir tavsiyalar ishlab chiqishni tanladik.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi 50 yildan ortiq davr mobaynida sezilarli darajada rivojlandi. FAO (Food and Agriculture Organization of the UN – BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti) to'rt ustunni – mavjudlik (availability), foydalanish imkoni (access), foydalanish (utilization) va barqarorlik (stability) – oziq-ovqat xavfsizligining asosi sifatida belgilab, ushbu to'rt ustunni 2009-yilgi Jahon oziq-ovqat sammitida rasman tasdiqladi [12].

Iqlim o'zgarishining g'alla ishlab chiqarishiga ta'siri alohida tadqiqot yo'nalishini tashkil etadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, haroratning 1°C ga ko'tarilishi jahon bug'doy ishlab chiqarishini taxminan 6 foizga kamaytiradi; 2001–2021-yillar orasida ekstremal ob-havo hodisalari asosiy donli ekinlarda jami 804 million tonna yo'qotishga olib keldi. Iqlim siyosati, barqaror intensivlashtirish va aralash ekinchilik tizimlari ekologik xizmatlarni buzmasdan mahsulot hajmini saqlab qolish uchun zarur, ammo ularning to'liq salohiyatini o'rganish uchun qo'shimcha tadqiqotlar kerak [5].

O'zbekiston bug'doy muammosi ko'p qirrali ekanligi bilan ajralib turadi. O'zbekiston Markaziy Osiyodagi eng ko'p aholiga ega mamlakatlar qatorida turib, bug'doy iste'moli 2022–23-yillarda 8,5 million tonnani tashkil etdi; bu esa O'zbekistonning mintaqadagi asosiy bug'doy iste'molchilaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Mahalliy bug'doy ishlab chiqarish kutilgan iste'molning taxminan 78 foizini qoplaydi, qolgan qismi esa asosan Qozog'istondan import qilinadi [15].

Materiallar va metodologiya

Tadqiqot obyekti maydoni 16,8 ming km² bo'lgan Samarqand viloyati. Viloyat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi alohida o'rin tutadi; asosiy ekinlar – bug'doy, paxta, uzum, meva va sabzavotlar.

Tadqiqotda quyidagi manbalardan foydalanildi:

- Samarqand viloyati Statistika boshqarmasining 2021–2025-yillar rasmiy hisobotlari [16];
- O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasining ochiq ma'lumotlar bazasi [17];
- FAO GIEWS – O'zbekiston bo'yicha mamlakat hisobotlari [13];
- USDA FAS – Markaziy Osiyo g'alla yetishtirish statistikasi [18];
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 30-maydagi 284-son va 2023-yil 3-iyundagi 227-son qarorlari [2].

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- *Statistik tahlil*: absolyut va nisbiy o'zgarishlar, o'rtacha yillik o'sish sur'ati (CAGR)ni hisoblash;

- *Oziq-ovqat xavfsizligi indeksi*: $\text{o'z-o'zini ta'minlash darajasi} = (\text{mahalliy ishlab chiqarish} / \text{umumiy ehtiyoj}) \times 100$;

- Aholining bug'doyga ehtiyoji FAO dietologiya standartlari va O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligi me'yorlari asosida (kishi boshiga 155 kg/yil) hisoblangan.

Tahlil va natijalar

Samarqand viloyati O'zbekistonning eng yirik qishloq xo'jaligi mintaqalaridan biri bo'lib, g'alla yetishtirish bu yerda bir necha jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Viloyat aholisi 4 milliondan oshadi. Mahalliy g'alla – asosan bug'doy – non va un mahsulotlarining asosiy xom ashyosi sifatida aholining kundalik ehtiyojini qondiradi. G'allaga bo'lgan ichki talabni mahalliy ishlab chiqarish orqali qoplash import xarajatlarini kamaytiradi va oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlaydi.

Samarqand viloyatida qishloq xo'jaligi yerlari 270 ming gektardan ortiq. G'alla ekinlari shu yerlarning katta qismini egallaydi va fermer xo'jaliklari uchun asosiy daromad manbai hisoblanadi. Viloyatda ishlovchi aholining sezilarli

qismi to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita qishloq xo'jaligida band.

Zarafshon daryosi havzasida joylashgan Samarqand viloyati sug'orma dehqonchilik uchun qulay tabiiy sharoitga ega. Tekislik va adir zonalaridagi unumdor tuproqlar, rivojlangan sug'orish tizimi bug'doy va arpa yetishtirish uchun nisbatan yuqori hosildorlikni ta'minlaydi. G'alla yetishtirish nafaqat don, balki somon va kepak ko'rinishida qimmatli yem-xashak manbaini ham beradi. Bu viloyatdagi chorvachilik va parrandachilik sohaslarini rivojlantirishga bevosita hissa qo'shadi.

Qishloq aholisi uchun g'alla yetishtirishning an'anaviy davom etishi ish o'rinlarini saqlash va qishloq turmush darajasini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Davlat tomonidan belgilangan g'alla xarid narxlari fermerlarning daromadini kafolatlaydigan ijtimoiy himoya mexanizmi vazifasini ham bajaradi. Samarqand viloyatining asosiy qishloq xo'jaligi va demografik ko'rsatkichlari tadqiqot davomida tadqiq etildi (1-jadval).

1-jadval

Samarqand viloyatida g'alla yetishtirish va demografik ko'rsatkichlar (2021–2025)

№	Ko'rsatkich	O'lchov birligi	2021	2022	2023	2024	2025
1	Viloyat aholisi	mln kishi	3,98	4,03	4,16	4,29	4,37
2	Bug'doy ekiladigan maydon	ming ga	189,0	192,0	193,0	195,0	196,5
3	Bug'doy hosili	ming tonna	820,0	887,9	870,0	900,0	902,5
4	O'rtacha hosildorlik	t/ga	4,33	4,62	4,51	4,62	4,60
5	Arpa va boshqa donlar	ming tonna	42,0	44,0	45,0	47,0	46,0
6	Makkajo'xori	ming tonna	28,0	30,0	31,0	33,0	34,0

Manba: Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi(2025). Viloyat qishloq xo'jaligi ko'rsatkichlari (2021–2025), samstat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadval ma'lumotlari ko'rsatadiki, viloyat aholisi 2021-yildagi 3,98 mln kishidan 2025-yilda 4,37 mln kishiga oshgan. Shu davrda bug'doy ekiladigan maydon 189 ming gektardan 196,5 ming gektarga yoki 3,9%ga, hosil esa 820 ming tonnadan 902,5 ming tonnaga yoki 10,0%ga oshgan. Bu ko'rsatkich hosildorlikning 4,33 t/gadan 4,6 t/gaga o'sishi hisobiga ta'minlangan.

FAO me'yorlari asosida bir kishiga yiliga oziq-ovqat uchun taxminan 180–200 kg bug'doy (un, non hisobida) talab etiladi. Bunga chorvachilik uchun yem-xashak va urug'lik miqdori qo'shilsa bu qiymat yanada ortadi.

FAO me'yorlari va viloyat aholisi soniga asoslanib, 2025-yilga mo'ljallangan g'alla ehtiyoji 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Samarqand viloyati aholisining g'alla ehtiyoji va ta'minot darajasi (2025-yil)

№	G'alla mahsuloti	Yillik me'yor (kg/kishi)	Aholi (mln kishi, 2025-yil)	Ehtiyoj (ming tonna)	Mahalliy ta'minot (ming tonna)	O'z-o'zini ta'minlash
1	Bug'doy (non va un)	155	4,37	677,4	902,5	133,2%
2	Makkajo'xori	18	4,37	78,7	34,0	43,2%
3	Arpa	8	4,37	35,0	46,0	131,4%
4	Guruch	12	4,37	52,4	—	—
5	Suli va boshqalar	5	4,37	21,9	—	—
	JAMI	198	4,37	865,4	982,5	≥113,5%

Manba: *FAO (2009) dietologiya me'yorlari va Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi (2025). Viloyat qishloq xo'jaligi ko'rsatkichlari (2021–2025), samstat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.*

2-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, 2025-yilda Samarqand viloyati aholisi uchun bug'doy bo'yicha yillik ehtiyoj 677,4 ming tonnani tashkil etadi. Mahalliy ishlab chiqarish esa 902,5 ming tonnaga yetib, ehtiyojdan 225,1 ming tonna (+33,2%) ortiqni tashkil etdi. Bu o'z-o'zini ta'minlash darajasini 133 foiz atrofida saqlaydi.

Makkajo'xori bo'yicha mahalliy ishlab chiqarish (33 ming tonna) ehtiyojdan (77,2 ming tonna) kam bo'lib, yetishmovchilik boshqa viloyatlar yoki import orqali to'ldiriladi. Guruch esa to'liq boshqa hududlardan keltirilib foydalaniladi. G'alla yetishtirishning dinamikasi 3-jadvalda ko'rsatilgan.

3-jadval

Samarqand viloyatida g'alla yetishtirish ko'rsatkichlari dinamikasi (2021–2025-yillar)

№	Ko'rsatkich	O'lchov birligi	2021	2022	2023	2024	2025	O'sish (2021–25, %)
1	Bug'doy maydoni	ming ga	189,0	192,0	193,0	195,0	196,5	104,0
2	Bug'doy hosili	ming t	820,0	887,9	870,0	900,0	902,5	110,1
3	Hosildorlik	t/ga	4,33	4,62	4,51	4,62	4,60	106,2
4	Arpa	ming t	42,0	44,0	45,0	47,0	46,0	109,5
5	Makkajo'xori	ming t	28,0	30,0	31,0	33,0	34,0	121,4
6	Jami don	ming t	890,0	961,9	946,0	980,0	982,5	110,4

Manba: *Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi(2025). Viloyat qishloq xo'jaligi ko'rsatkichlari (2021–2025), samstat.uz ma'lumotlari.*

3-jadval ko'rsatadiki, jami don yetishtirish 2021-yildagi 890 ming tonnadan 2025-yilda 982,5 ming tonnaga (+10,4%) oshgan. 2025-yil dastlabki bahosiga ko'ra bug'doy hosili 902,5 ming tonnani tashkil etib, 2024-yil ko'rsatkichidan (900 ming tonna) biroz yuqori. Respublika bo'yicha 2025-yil birinchi yarmida don yetishtirish 6,1 million tonna bo'lib, 2024-yilga nisbatan 4,3 foizga oshgan – viloyat ham shu tendensiyaga mos kelmoqda.

Makkajo'xori yetishtirish 2021-yildagi 28 ming tonnadan 2024-yilda 33 ming tonnaga, ya'ni 17,9 foizga oshgani ayniqsa e'tiborlidir. Bu chorvachilikni rivojlantirish siyosatining natijasi sifatida baholanadi. Viloyatda g'alla yetishtirish hududiy jihatdan notekis taqsimlanganligini 4-jadval ko'rsatadi.

4-jadval

Samarqand viloyati tumanlarida bug‘doy yetishtirish tahlili (2025-yil)

№	Tuman	Maydon (ga)	Hosil (tonna)	Hosildorlik (t/ga)	Viloyat jamida ulush (%)
1	Jomboy tumani	18 300	89 060	4,87	9,87
2	Pastdarg‘om tumani	17 700	85 830	4,85	9,51
3	Kattaqo‘rg‘on tumani	16 850	79 840	4,74	8,85
4	Tayloq tumani	15 750	73 130	4,64	8,10
5	Urgut tumani	14 980	69 210	4,62	7,67
6	Narpay tumani	14 520	64 770	4,46	7,18
7	Oqdaryo tumani	13 970	61 380	4,39	6,80
8	Qo‘shrabot tumani	13 360	57 640	4,31	6,39
9	Paxtachi tumani	12 570	53 810	4,28	5,96
10	Boshqa tumanlar	58 500	267 830	4,58	29,68
	JAMI	196 500	902 500	4,59	100,00

Manba: Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi(2025). Viloyat qishloq xo‘jaligi ko‘rsatkichlari (2021–2025), samstat.uz ma‘lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

4-jadval tahlili ko‘rsatadiki, Jomboy (89,06 ming tonna), Pastdarg‘om (85,83 ming tonna) va Kattaqo‘rg‘on (79,84 ming tonna) tumanlari yetakchi o‘rinlarda turibdi – ular birgalikda viloyat bug‘doy hosilining 28,22 foizini ta‘minlaydi. Bu tumanlar Zarafshon daryosining o‘rta qismida joylashgan va sug‘orish tizimlaridan samarali foydalanadi. Qo‘shrabot tumani kamayish tendensiyasini ko‘rsatmoqda, bu sug‘orish infratuzilmasining eskirishi va suv yetishmasligi bilan bog‘liq. Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI = 0,076) ishlab chiqarishning o‘rtacha

diversifikatsiyalashganligini ko‘rsatadi. Viloyatning oziq-ovqat xavfsizligi holati va kelajakdagi maqsadlari 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, Samarqand viloyatida bug‘doy bo‘yicha o‘z-o‘zini ta‘minlash darajasi 2021-yildan boshlab 120 foizdan yuqori, ya‘ni viloyat nafaqat o‘z ehtiyojini qoplaydi, balki ortiqcha mahsulot ham yetishtiradi. Jon boshiga don yetishtirish 223 kg/yildan 249 kg/yilga oshgan. 2026-yil maqsadi – hosildorlikni 5,0 t/gaga yetkazish va jami ishlab chiqarishni 1 050 ming tonnadan oshirish.

5-jadval

Samarqand viloyatida oziq-ovqat xavfsizligi ko‘rsatkichlari (2021–2025 yillar; 2026-yil maqsadlari)

№	Ko‘rsatkich	2021	2022	2023	2024	2025	2026 maqsad
1	Bug‘doy o‘z-o‘zini ta‘minlash (%)	~123	~133	~131	~135	~133	≥ 140
2	Jon boshiga don (kg/yil)	223	240	238	249	245	≥ 260
3	Jami don yetishtirish (ming t)	890	962	946	980	983	≥ 1050
4	Bug‘doy hosildorligi (t/ga)	4,33	4,62	4,51	4,62	4,60	≥ 5,00
5	Bug‘doy ekilgan maydon (ming ga)	189	192	193	195	196,5	200
6	Fermer xo‘jaliklari ulushi don yetisht. (%)	~74	~74	~74	~73	~73	—

Manba: Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi (2025), samstat.uz ma‘lumotlari; FAO GIEWS (2025); USDA FAS (2025); O‘zR Milliy statistika qo‘mitasi (2024). O‘zbekiston raqamlarda – 2024-yillik to‘plam ma‘lumotlari.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Samarqand viloyati bug'doy yetishtirish bo'yicha respublikaning etakchi viloyatlaridan biri hisoblanadi. Hosildorlik ko'rsatkichi (4,62 t/ga) respublika o'rtacha ko'rsatkichidan (4,50 t/ga) yuqori, ammo Farg'ona (5,1 t/ga) va Surxondaryo (5,0 t/ga) viloyatlari ko'rsatkichidan past. Bu Samarqand viloyatida hali ham foydalanilmagan ulkan hosildorlik salohiyati borligidan dalolat beradi.

Viloyatning bug'doy bo'yicha o'z-o'zini ta'minlash darajasi 135 foiz – bu juda yuqori ko'rsatkich. Bu O'zbekiston milliy oziq-ovqat xavfsizligiga ham ijobiy hissa qo'shadi, chunki viloyatdan respublika don zaxiralariga va kam ta'minlangan viloyatlarga mahsulot jo'natiladi. Biroq makkajo'xori va guruch bo'yicha tashqi ta'minot zaruriyati saqlanib qolmoqda.

Tadqiqot davomida quyidagi asosiy muammolar aniqlandi:

- Suv resurslari tanqisligi: Zarafshon daryosi suvining 90 foizi sug'orishga sarflanadi. Iqlim o'zgarishi fonida suv hajmining kamayishi g'alla ekiladigan maydonlarni qisqartirishi mumkin;

- Bug'doy sifati: mahalliy yetishtiriladigan bug'doy navlarining kleykovina tarkibi past bo'lib, sifatli non pishirish uchun Qozog'iston bug'doyi unidan qo'shimcha qo'shish talab etiladi;

- Don saqlash quvvatlari: yig'ilgan hosilning bir qismini sifatini saqlagan holda uzoq muddatga zaxiralash imkoniyati cheklangan;

- Tumanlar o'rtasidagi tafovut: Jomboy va Pastdarg'om tumanlari yuqori hosildorlikni saqlab turishga muvaffaq bo'layotgan bir paytda, Qo'shrabot tumani kabi hududlarda pasayish kuzatilmoqda.

Respublika ko'rsatkichlari bilan taqqoslaganda Samarqand viloyatining o'rni alohida ko'rinadi. 2025-yil USDA ma'lumotlariga ko'ra, respublika bo'yicha bug'doy hosili 5,9 mln tonnani tashkil etgan; viloyatning ulushi 900 ming tonna bilan 15,3 foizni tashkil etadi – bu Farg'ona viloyati ko'rsatkichi (709,4 ming t, 12,0%) dan ham yuqori.

Xulosa va takliflar

Ushbu tadqiqot Samarqand viloyatida g'alla yetishtirishning oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirini 2021–2025-yillar kesimida kompleks tahlil etdi.

Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Viloyatda bug'doy hosili 4 yil ichida 9,8 foizga oshib, 900 ming tonnaga yetdi va aholining bug'doyga ehtiyojini 135 foizga qopladi;

2. Hosildorlik ko'rsatkichi 4,62 t/ga bo'lib, respublika o'rtachasidan yuqori, ammo 5,0 t/ga maqsadiga hali erishilmagan;

3. Tumanlar o'rtasida ishlab chiqarishda sezilarli tafovut mavjud – 10 ta tumandan 3 tasi hosilning 28,2 foizini ta'minlaydi;

4. Makkajo'xori va guruch bo'yicha ta'minot yetishmovchiligi saqlanib qolmoqda;

5. Suv resurslari va bug'doy sifati masalasi uzoq muddatli oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid soluvchi asosiy omillar hisoblanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. *G'allachilikda hosildorlikni oshirish.* Yuqori kleykovina tarkibli, suv tejovchi yangi bug'doy navlarini keng joriy etish – sertifikatlangan urug'lar uchun subsidiyalar berish;

2. Yomg'irlatib va tomchilatib sug'orish tizimlarini, ayniqsa Qo'shrabot va Narpay tumanlarida, Jahon banki investitsiya dasturi bilan hamkorlik asosida kengaytirish;

3. *Don saqlash infratuzilmasini takomillashtirish.* Viloyatda zamonaviy don elevatorlari quvvatini hozirgi 350 ming tonnadan 700 ming tonnagacha oshirish;

4. *Diversifikatsiyani oshirish.* Makkajo'xori va dukkakli ekinlar maydonini kengaytirish orqali ozuqa bazasini mustahkamlash va yem-xashak importini kamaytirish;

5. Tumanlararo uyg'unlikni ta'minlash. Qo'shrabot va Paxtachi tumanlariga agrotexnik yordam, kreditlar va kengaytirilgan xizmatlar orqali hosildorlik tafovutini kamaytirish;

Manba va adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 30-maydagi "2022-yil hosilidan bug'doyni xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 284-son qarori. *lex.uz*.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 3-iyundagi "2023-yil hosilidan bug'doy xarid qilish va ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlash to'g'risida"gi 227-son qarori. *lex.uz*.
3. Ibragimov Gayrat Abلاقulovich, Raxmonov Davlat, Vahobova Shahodat. Qishloq xo'jaligida klaster tizimi: tashkil etish, muvaffaqiyatlar va kamchiliklar// Servis. – Samarqand, 2020. -№3. -29-32 b.
4. Kayumovich, Kurramov Ortiqjon, Ibragimov Gayrat Abلاقulovich, and Tursunov Ozod Matlubovich. *Agrarian reforms in Uzbekistan: resources and results*// In *Trends in Economics and Management for 21th Century: inter. conf.* 2012.
5. Lachman, J., Janssen, V., Devaux, A., Steinke, J., Ordinola, M., Thiele, G. Food security and the dynamics of wheat and maize value chains in Africa and Asia. *Frontiers in Sustainable Food Systems*, 4, 617009 · 2020. DOI: 10.3389/fsufs.2020.617009
6. Murtazaev Olim, Ibragimov Gayrat Abلاقulovich. *The Effectiveness of Economic Relationships and Forecasting between Farms and Agricultural Services*//*The Indian Journal of Economics* (ISSN: 0019-5170) Issue 400. Pages 6
7. Murtazayev Olim, Ibragimov G'ayrat Abلاقulovich, Saidmurodov Mamur Tairovich. *The role of grain production is ensuring food security. The 2nd International Conference on Sustainable Regional Development in Central Asia. May 6-7, 2024. -Samarqand, 2024. -p. 1-8.*
8. Murtazayev Olim, Ibragimov G'ayrat Abلاقulovich, Saidmurodov Mamur Tairovich. *Oziq-ovqat mahsulotlari ta'minoti xavfsizligida g'allachilik ishlab chiqarishining o'rni/Iqtisodiyoti barqaror rivojlantirishda raqamli texnologiyalar: muammolar, innovatsiya va yechimlar: Resp. ilm.-amal. anj. mat. to'p. 2024-yil 18-19 aprel. – Samarqand, 2024*
9. Yigezu Y.A., Bishaw Z., Niane A.A. (Eds.). (2022). *The wheat sector in Uzbekistan: seed systems, varietal adoption and impact*. ICARDA: Beirut.
10. World Bank. (2025). *Uzbekistan: irrigation and drainage modernization project*. Report No. PAD. World Bank Group: Washington D.C.
11. Godfray H.C.J. et al. (2010). Food security: the challenge of feeding 9 billion people. *Science*, 327(5967), 812–818. <https://doi.org/10.1126/science.1185383>
12. Wikipedia: Food security. https://en.wikipedia.org/wiki/Food_security
13. Food and Agriculture Organization (FAO). (2023). *GIEWS country brief: Uzbekistan*. FAO: Rome. Retrieved from fao.org/countryprofiles
14. Food and Agriculture Organization (FAO). (2024). *World food and agriculture – statistical yearbook 2024*. FAO: Rome. <https://doi.org/10.4060/cd1254en>
15. USDA Foreign Agricultural Service (USDA FAS). (2024). *Grain: world markets and trade*. USDA: Washington D.C. Retrieved from apps.fas.usda.gov
16. Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi. (2025). *Viloyat qishloq xo'jaligi ko'rsatkichlari (2021–2025)*. *samstat.uz*
17. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi. (2024). *O'zbekiston raqamlarda – 2024 yillik to'plam*. Tashkent. *stat.uz*
18. USDA Foreign Agricultural Service (USDA FAS). *Grain: world markets and trade*. USDA: Washington D.C. 2025. <https://apps.fas.usda.gov/psdonline/circulars/grain.pdf>



IQTISODIYOT:
TAHLILLAR VA PROGNOZLAR

100000, Toshkent sh., Xadra massivi 33a.
Tel: (+998 71) 244-03-43. E-mail: jurnal@imrs.uz